

**ONA TILI O‘QISH SAVODXONLIGI VA UNI O‘QITISH
METODIKASI**

(60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan)

O‘QUV QO‘LLANMA

Mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarda boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitish mazmuni, vazifalari hamda metodikasiga oid bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Unda ona tili didaktikasi va metodikasi, uni o‘quv predmeti sifatida o‘qitish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslari yoritiladi. Qo‘llanma orqali talabalarda ilmiy dunyoqarash, mantiqiy fikrlash va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi va darsliklarning mazmuni bilan tanishish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, unda boshlang‘ich ta’limda zamonaviy ilg‘or metod va usullardan foydalanish bo‘yicha nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu qo‘llanma pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari, amaliyotchi o‘qituvchilar va metodistlar uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

- Jumayev.R.X. f.f.f.d (PhD), dotsent.
- Ortikov O.R. p.f.f.d (PhD), dostent.

KIRISH

O‘zbekiston o‘z taraqqiyoti tarixida yangi davrni boshlab, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida salmoqli qadamlar qo‘ymoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda adolat, insonparvarlik, tenglik va erkinlik tamoyillari ijtimoiy hayotning bosh mezoniga aylanmoqda. Bunday yuksalish jarayonida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Chunki xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning tarixiy xotirasi va milliy g‘ururi, eng avvalo, tilida mujassam bo‘ladi. Shunday ekan, milliy tilni saqlash, rivojlantirish va boyitib, uni avloddan-avlodga yetkazish xalq taraqqiyotining, ma’rifatli jamiyatning hamda mustaqil davlat barqarorligining kafolatidir.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ona tilining jamiyat hayotidagi mavqeini mustahkamlash, uni davlat tili sifatida rivojlantirish, yoshlar ongiga singdirish va ta’lim tizimida samarali qo‘llash masalalari keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillariga hurmat bilan qaralishi, ularning o‘z ona tillarini erkin rivojlantirishlariga sharoit yaratilishi milliy bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat tamoyillarining yorqin ifodasidir.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimida “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanining o‘rni beqiyosdir. Zero, mazkur fan orqali o‘quvchilar savod chiqarish, to‘g‘ri va ongli o‘qish, yozish, muloqot qilish, o‘z fikrini aniq bayon etish, nutq madaniyatiga rioya qilish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, o‘quvchilar tafakkuri, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qarashlari shakllanadi, ularda milliy qadriyatlar va Vatanga muhabbat tuyg‘ulari kamol topadi.

Mazkur kurs nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga, balki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy, metodik va lingvistik jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi. Tilshunoslikning fonetika, grafika, leksikologiya, grammatika, sintaksis, uslubiyat, matnshunoslik va punktuatsiya kabi bo‘limlari bo‘yicha nazariy bilimlarni egallash, ularni amaliyotga tatbiq etish orqali

talabalar nutqni rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, so‘z va gap tuzilishini mashq qilish kabi zarur kompetensiyalarni o‘zlashtiradilar.

Shuningdek, metodik jihatdan savod o‘rgatish, yozuvga o‘rgatish, grammatik tushunchalarni shakllantirish, badiiy asarlar tahlili, kitobxonlikni rivojlantirish, xalq og‘zaki ijodini o‘qitish, nutqiy xatolarni tuzatish kabi yo‘nalishlarda puxta tayyorgarlik ko‘riladi. Bugungi ta‘lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash, darslarni samarali tashkil etish, to‘garak va tanlovlarni rejalashtirish kabi amaliy jihatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, ona tili va o‘qish savodxonligini o‘qitish metodikasini puxta o‘zlashtirish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini milliy qadriyatlar, zamonaviy ta‘lim talablari hamda ilg‘or pedagogik yondashuvlar asosida tayyorlash bugungi ta‘lim tizimining dolzarb va ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

I BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLDA EPIK ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI.

Tayanch so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, badiiy asar, janr, izohli o‘qish, o‘qish savodxonligi, tahliliy o‘qish, estetik tarbiya.*

1.1 Har xil janrdagi asarlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarlarning turli janrlari – hikoya, she‘r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy tarzda o‘rganiladi. Shuningdek, ilmiy-ommabop maqolalarga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Har bir janr o‘ziga xos qurilish, uslubiy vositalar va ta‘sirchanlik jihatiga ega bo‘lgani sababli, o‘qituvchi o‘quvchilarga asarni samarali yetkazish uchun unga mos metodlarni tanlashi lozim.

Hikoya – kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda inson hayotidagi ma‘lum bir voqea yoki epizod hayotiy umumlashmalar asosida tasvirlanadi. Ertakdan farqli ravishda hikoya mazmuni ko‘proq hayotiy voqelikka yaqin bo‘ladi. Shu bois hikoya boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qulay va qiziqarli janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalar qahramonning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portreti hamda voqea-hodisalar tasviriga katta qiziqish bildiradilar. Shu sababli ularni hikoya bilan tanishtirish jarayoni asar syujetini izchil tushuntirish bilan uyg‘un olib borilishi kerak.

Boshlang‘ich sinflarda hikoya o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida asarning mazmunini ochib berish, lug‘at ustida ishlash va matnni qayta hikoyalash asosiy metodik ish turlarini tashkil etadi. Odatda hikoya mazmuni savollar asosida tahlil qilinadi. Savollar qahramonlarning xatti-harakati va xarakterini ochib berishga, voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashga, fakt va mulohazalarni taqqoslab umumlashtirishga xizmat qiladi.

Hikoya o‘qitishda o‘quvchilarga tushunarsiz bo‘lgan so‘z va iboralarning ma‘nosini izohlab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, ular asar

mazmunini to'liq anglab yetolmaydilar. Shu bois o'qituvchi so'z ma'nosini qisqa va aniq izohlar orqali tushuntirib, asar g'oyasini ochib berishga e'tibor qaratishi lozim.

Hikoyani o'qish jarayonida uning mazmunini tahlil qilish hamda shu asosda o'quvchilarning nutqini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilarga o'ylash va o'z fikr-mulohazalarini ifodalash uchun vaqt berilishi lozim. Dastlab beriladigan savollarning maqsadi – asar bolalarga yoqqan-yoqmaganini, qaysi qahramonning xatti-harakati yoki xarakteri ularda ta'sir qoldirganini, bolalar kim yoki nima haqida qayta hikoya qilishni istashlarini aniqlashdan iborat. Shundan so'nggina hikoya qahramonlari xarakterini ochishga va asarning asosiy g'oyasini anglashga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda faqat syujetni bayon qilish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Qahramonlarga xos tavsif berish, asarning kompozitsion tuzilishini va til xususiyatlarini tahlil qilish kabi metodik ishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda savollarni o'qituvchi beradi, ammo o'quvchilarga ham mustaqil savol tuzdirish foydali hisoblanadi. Bu usul darsni jonlantiradi, bolalarda qiziqish uyg'otadi hamda asar mazmuni va voqealar orasidagi bog'liqlikni yaxshiroq anglab olishga yordam beradi.

Hikoyani o'quvchilar puxta o'zlashtirishlari va unda ilgari surilgan g'oyani anglab yetishlari uchun matn ustida ishlash jarayonida turli metodlardan foydalaniladi: tanlab o'qish, savol-javob, mustaqil savol tuzish, qayta hikoyalash, reja tuzish, ifodali o'qishga tayyorlanish, shuningdek, so'z bilan yoki rasm orqali mazmunni tasvirlash.

Kichik hajmli hikoyani izohli o'qish darsini tashkil etishda quyidagi reja varianti qo'llanishi mumkin:

1. hikoyani o'qishga tayyorlash (asar qahramonlari hayoti va davr haqida qisqacha ma'lumot berish);

2. hikoyani to'liq yoki qismlarga bo'lib o'qituvchi yoki tayyorlangan o'quvchi tomonidan ifodali o'qish;

3. o'quvchilarning idrokini aniqlash (qahramonlarning xatti-harakati, voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan suhbat);

4. hikoyani qayta o‘qish (qismlarga ajratish, so‘z ma’nosini tushuntirish, o‘quvchilarga o‘qitish);

5. har bir bo‘lim yuzasidan suhbat o‘tkazish va sarlavha topish;

6. ayrim bo‘limlarni ifodali o‘qish;

7. reja asosida qayta hikoyalash;

8. hikoyani ifodali o‘qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);

9. hikoyani ifodali o‘qish va ifodali qayta hikoyalash.

Bu reja dars vaziyatidan kelib chiqib o‘zgartirilishi mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, hikoya o‘qish darsining asosiy maqsadi – asarning mazmuni va g‘oyasini anglatish bilangina cheklanib qolmay, balki uning tarbiyaviy va estetik ta’sirini ham o‘quvchilarga yetkazishdir. Shu jarayonda ifodali o‘qish va qayta hikoyalashga alohida e’tibor berilishi lozim.

Janr so‘zi lotincha so‘z bo‘lib “tur”, “jins” degan ma’nolarni anglatadi. Janr adabiyot va san’at asarlarining turli mezonlar asosida turlarga bo‘linishidir. Janrlar adabiy turlarni tashkil qiluvchi asarlar demakdir. Adabiyotda 3 adabiy turni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Epik tur. Bu turga kiruvchi janrdagi asarlar asosan nasriy yo‘lda yozilgan asarlardir. Ular: ertak, hikoya, qissa, doston va boshqalar.

2. Lirik turdagi asarlarga esa she’riy yo‘l bilan yozilgan asarlar kiradi.

3. Dramatik turdagi asarlar esa dramalar ya’ni sahnalashtirish uchun yozilgan asarlar hisoblanadi.

Umuman adabiy tur va janrlarni qat’iy bo‘linishini belgilash mumkin emas. Chunki hozirgi kunda adabiy turlarning bir-biriga qo‘shilishidan hosil qilingan asarlar ham yetarlicha.

Boshlang‘ich sinfda asosan epik va lirik asarlar o‘rganiladi. Har bir o‘rganilayotgan asar bilan ishlashning o‘ziga xos metod va ish turlari mavjuddir. O‘qituvchi har bir janr bo‘yicha o‘ziga xos metodlardan foydalanishi, o‘quvchilarda asar orqali shakllantiriladigan ko‘nikmalarga alohida diqqat qaratishi kerak. Masalan, she’riy asarlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ohang, ritm, qofiya kabi

tushunchalarga e'tibor qaratsalar, ertak va hikoya kabi epik asarlar orqali voqealar ketma-ketligini tushunish, asarni yaxlit holda tasavvur qilish, asardan xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Adabiyotshunoslik hali hikoyaning ilmiy asoslangan tipologiyasiga ega emas. Adabiyotshunoslik amaliyotida turli xil yondashuvlar mavjud: mavzu bo'yicha (tabiat, bolalar, urush haqida), harakat vaqti bo'yicha (tarix haqidagi hikoyalar, bugungi kun haqida), janr xususiyatlari bo'yicha (kulgili, satirik, dramatik), kompozitsiyaning murakkabligi bo'yicha.

O'quvchilarning badiiy asarlar bilan ishlash malakasi ularning tafakkur, tasavvur va dunyoqarashini shakllantirishda muhim omillardan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf davrida izohli o'qish orqali bolada o'z fikrini ifodalash, obrazlarni tushunish va ularning ichki mazmunini anglashga yordam beruvchi ko'nikmalar shakllanadi. Bu jarayondamatnlarning janriga e'tibor qaratish orqali izohli o'qishni yanada maqsadli tashkil etish mumkin bo'ladi.

Badiiy asarlarni turli janrlarda o'rganish o'quvchining matnni idrok etish darajasini oshiradi. Ertaklarda afsonaviylik, hikoyalarda hayotiylik, she'rlarda obrazlilik va ritm orqali fikr ifodalanadi. Har bir janrda o'ziga xos tahlil qilish yondashuvi zarur:

Ertak – voqeani ketma-ket tushunish, ijobiy va salbiy obrazlarni ajratish, saboq chiqarishga undaydi.

Hikoya – real hayotga yaqin syujetni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini anglashga qaratilgan janr.

She'r – badiiy vositalar (tashbeh, sifat, takror) orqali estetik zavq uyg'otishga qaratilgan adbiy janr sanaladi.

Boshlang'ich sinf darslarida badiiy asar tahlilini tadqiq etgan. Olima Abdullayeva boshlang'ich sinflarda adabiy o'qish darslarini tashkil etishda izohli o'qishning roli haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib, badiiy asarni tahlil qilish orqali o'quvchilarda obrazli tafakkur, matnni anglash va nutqiy faollik rivojlantirish mumkinligini ilmiy asoslaydi. Abdullayeva o'quvchilar bilan jonli muloqot asosida

badiiy matni bosqichma-bosqich o'rganishning samarador jihatlarini tahlil etib, ilmiy asoslab bergan.

D. Ashrapova o'zining izohli o'qish bo'yicha tadqiqotida bu metodikaning nazariy asoslarini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, har bir janr bo'yicha ishlab chiqilgan savol-javoblar va kontekstual izohlar matni chuqurroq anglashda kalit rol o'ynaydi. Shuningdek, u izohli o'qish orqali bolalarning tanqidiy fikrlash va axloqiy baholash ko'nikmalari shakllanishiga urg'u beradi.

G. Karimova tomonidan yozilgan maqolada badiiy matnlar ustida ishlashda izohli o'qitishning o'rnini va metodik yo'nalishlari yoritilgan. Karimovaning fikricha, izohli o'qish – bu faqat tushunmagan so'zlarni tushuntirish emas, balki matnning ichki mazmunini ochib berish, o'quvchining fikr yuritish qobiliyatini faollashtirishni ilmiy asoslab bergan.

S. Usmonxo'jayev o'z asarida o'qish savodxonligi va adabiy o'qish darslarining uzviyligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, izohli o'qish orqali o'quvchilar nafaqat tahlilga, balki ijodiy fikrlashga ham o'rgatiladi. Ayniqsa, u drammatizatsiya, rolli o'yinlar kabi interfaol metodlarni izohli o'qish bilan uyg'unlashtirishni tavsiya etadi.

N. Jalolova tomonidan ishlab chiqilgan "Didaktik tahlil asoslari" nomli qo'llanma boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda qo'llaniladigan amaliy metodlar haqida boy ma'lumot beradi. Uning fikricha, har bir darsda tahliliy va obrazli savollarni uyg'un qo'llash izohli o'qish samaradorligini oshiradi.

S. Shodmonova boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish usullari haqida so'z yuritir ekan, izohli o'qishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida talqin qiladi. Uningcha, badiiy asarlardagi obrazlar orqali o'quvchining his-tuyg'ulari bilan ishlash, ularning qiziqishini kuchaytiradi.

R. Yo'ldosheva she'riy asarlarni o'qitishda obrazli ifodalarni tushuntirishda izohli o'qishning muhimligini qayd etadi. U, ayniqsa, she'r tahlilida metafora, epitet, ifodali tovush vositalarini o'rgatishda izohli o'qish metodining samaradorligi haqida batafsil fikr bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, izohli o‘qish – bu o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining matndagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar, obrazlar, g‘oyalar ustida izchil fikr yuritishidir. Boshlang‘ich sinflarda bu quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Matnga kirish: Muallif janr haqida qisqacha ma’lumot beradi.

Matnni bo‘lib o‘qish: Har bir parcha ustida izoh, savollar, tushunish mashqlari olib borish bosqichi.

Obrazlar tahlili: Qahramonlarning xatti-harakatlari, niyatlari va o‘zgarishlari haqida suhbat qilish jarayoni;

Estetik baholash: O‘quvchi hissiyotiga ta’sir qilgan joylar, badiiy vositalar, fikr ifodasi. Ushbu metodikaga mos ravishda quyidagi texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq.

1-jadval.

Janr	O‘rgatish texnologiyasi	Natija
Ertak	Raqamli ertak kartalari, dramtizatsiya	Obrazli tafakkur,og‘zaki nutq faolligi
Hikoya	“Savol-javob” tahlil, guruhiy tahlil	Sabab oqibat tahlili, mantiqiy fkirlash
She’r	Tovush ifoda bilan o‘qish, obrazli savollar	Estetik zavq,obrazni sezish qobilyati

1-jadval. Izohli o‘qishni o‘rgatuvchi texnologiyalar.

Boshlang‘ich sinfda o‘qitiladigan badiiy asarlar vositasida insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlar, ona tiliga hurmat, adabiy nutqni tushunish, ijtimoiy axloqiy me’yorlar singdiriladi. Bu jarayon izohli o‘qish orqali ongli amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun badiiy matnlarni izohli o‘qishga o‘rgatish ularning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tashkil etilishi lozim. Ushbu yosh davrida bolalarda vizual va obrazli tafakkur ustunlik qiladi, diqqatning tez chalg‘uvchanligi kuzatiladi, hissiy sezgirlik yuqori bo‘ladi, izchil mantiqiy fikrlash endigina shakllanmoqda bo‘ladi. Shu bois, izohli o‘qishda matnning badiiy obrazlarini ochib berishda ko‘rgazmalilik, hissiylik, dramtizatsiya

elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa matnni tushunishga va uni ongli tahlil qilishga zamin yaratadi.

Badiiy asarlar, ayniqsa, she'riy janrdagi matnlar ko'pincha metaforalar, tashbehlar va boshqa badiiy ifoda vositalariga boy bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hali bu kabi murakkab vositalarni anglashga tayyorlik darajasi yetarli bo'lmashligi mumkin, ammo izohli o'qish orqali bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Metaforik fikrlashni shakllantirishda har bir obrazni hayotiy tajriba bilan bog'lab o'rganadi. Masalan, "qushdek uchdi" iborasini jismoniy harakat bilan namoyish qilish, tasviriy vositalarni rasm, imo-ishora yoki dramatik ifoda orqali tushuntirish jarayoni tushuniladi. Bolaning hayotiy tasavvurini faollashtirish ham metaforik fikrlashga undaydi. Masalan; "shamol shivirladi" jumlasida ostidagi harakatni his etishga chorlashga o'rgatadi.

Metaforik fikrlash – insonning bir tushuncha yoki hodisani boshqa bir tushuncha orqali obrazli, ramziy shaklda ifodalab, yangicha ma'no hosil qilish qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda, metaforik fikrlash – bu narsalar va hodisalar o'rtasidagi bevosita bo'lmagan, lekin ma'noli o'xshashliklarni ko'ra olish va ularni ijodkorona tarzda bog'lay olishdir.

Metaforik fikrlashning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Obrazlilik – abstrakt fikrlarni hayotiy va yorqin obrazlar orqali tushuntirishga aytiladi.

Ijodkorlik – yangi g'oya va qarashlarni kutilmagan uyg'unliklarda topishga ko'maklashadi.

Simvolik – narsalarning tashqi ko'rinishi ortida chuqur ma'noni anglash imkonini beradi.

Tashqi bog'lanishlarni ko'rish – bir-biriga bevosita aloqador bo'lmagan tushunchalarni uyg'unlashtirishga yordamlashadi.

Masalan;

Hayot – hayotning to'lqinlari, tinchligi, bo'ronlari mavjud.

Bilim – inson uchun imkoniyat eshiklarini ochadi.

O‘qituvchi – o‘quvchilarni bilim olishga yetaklaydi.

Metafofik fikrlashni o‘rgatish o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Murakkab tushunchalarni osonroq tushuntirishga yordam beradi. Estetik idrokni shakllantiradi. Muammolarga yangicha yondashish imkonini beradi. Metafofik fikrlash orqali o‘quvchilar faqat matn mazmunini emas, balki matnning ruhini, estetik go‘zalligini sezish, baholash va aks ettirishga o‘rganadi.

Izohli o‘qish faqat so‘z ma’nosini tushuntirish bilan cheklanmaydi — u orqali o‘quvchining badiiy tafakkuri va estetik idroki ham shakllanadi. Badiiy tafakkuri va estetik idrokni shakllantirishda o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim. Izohli o‘qitish qahramonlarning harakati ortida yotgan ruhiy holatlarni tushuntirish, asardagi mo‘jaz badiiy tafsilotlarga (rang, tovush, muhit) alohida to‘xtalish, Matnning hissiy ta’sirini tahlil qilish (“Qaysi qism sizni hayajonga soldi?”, “Nega bu joy sizga yoqdi?”). Bunday izohli suhbatlar orqali o‘quvchilar badiiy matnga nafaqat tushunuvchi, balki his etuvchi va baholovchi shaxs sifatida munosabatda bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarni badiiy asarlarni janriga xos xususiyatlar asosida izohli o‘qishga o‘rgatish – ularning tafakkurini, estetik dunyoqarashini, so‘z boyligini va adabiy saviyasini shakllantirishda muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Har bir janr o‘ziga xos estetik qoidalar, kompozitsion qurilish va obrazlar tizimiga ega bo‘lib, bu o‘quvchining matnga bo‘lgan ongli munosabatini shakllantiradi.

Izohli o‘qish metodikasi orqali bolalar matnda yashiringan ma’no qatlamlarini, qahramonlarning ichki kechinmalarini, badiiy vositalarning estetik ta’sirini anglashga intiladi. Ayniqsa, bu jarayonda o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari, badiiy tasvirni ochib beruvchi mulohazalari va jonli muloqot muhim rol o‘ynaydi.

Fikrimizcha, bayon etilgan nazariy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Taklif etilgan texnologiyalar va janr asosidagi izohli o‘qish usullari orqali o‘quvchilarda mustahkam tahliliy fikrlash, obrazli tafakkur, og‘zaki va yozma nutqda mustaqil ifoda qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z milliy

adabiyotimiz, madaniyatimiz va axloqiy qadriyatlarimiz asosida yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishadi. Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun badiiy matnlarni janr xususiyatlar asosida izohli o‘qitish – bu nafaqat metodik ehtiyoj, balki har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlaridir.

1.2 Ertakni o‘qish metodikasi.

Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oyalar tashuvchi, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan og‘zaki hikoyalar ertaklardir.

Ertak xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to‘qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar, cho‘pchak¹. Metodika- yunincha methodike so‘zidan olingan bo‘lib, biror ishni bajarish, amalga oshirish metodlarining, usullarining yig‘indisi².

Ertak o‘qitish metodikasi – ta‘lim jarayonida ertaklardan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatuvchi pedagogik yo‘nalish bo‘lib, u o‘quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni singdirish, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan usul va vositalar majmuasidir.

Ushbu metodika:

ertakni tanlash va o‘qishga tayyorlash jarayonlarini;

ertakni ifodali o‘qish va qayta hikoya qilish usullarini;

rollarga bo‘lib ijro etish, suhbat, sahnalashtirish, ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilar faoliyatini tashkil qilishni;

ertak asosida tarbiyaviy va didaktik maqsadlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

¹ A.Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbek tilining izohli lugati E harfi”. -T.: Davlat milliy nashr-ti.2023. [56-b] 38-b.

² A.Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbek tilining izohli lugati M harfi”. -T.: Davlat milliy nashr-ti.2023. [157-b] 68-b.

Xulosa qilib aytganda, ertak o‘qitish metodikasi — o‘quvchilarni xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali ma’naviy, axloqiy, estetik va intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladigan ta’limiy-tarbiyaviy jarayondir.

Ertaklarda turli ezgu va yovuz qahramonlar timsolida bolalarga turli ibratli voqealar, ezgu fazilatlar haqida tushunchalar beriladi. Ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) Og‘zaki hikoyaga asoslangan qiziqarli syujetga ega bo‘lishi;
- 2) Voqealarning ongli tarzda xayoliy uydirmalar orqali aks ettirilishi;
- 3) Estetik vazifaning yetakchilik qilishi;
- 4) O‘ziga xos badiiy shakily qolip va tilga ega bo‘lishi.

Xalq ertaklari mazmuniga ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi:

- 1) Hayvonlar haqidagi ertaklar
- 2) Sehrli-fantastik ertaklar
- 3) Hayotiy-maishiy ertaklar

Boshlang‘ich sing o‘quvchilariga tushuntirilishi lozim bo‘lgan eng asosiy ma’lumotlardan biri – ertaklarning yaratilishi ko‘ra ham yana bir turi bo‘lib, ular yozma ertaklar deb ataladi. Bunday ertaklar shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan ertaklar hisoblanadi. boshlang‘ich sinf darsliklarida bunday ertaklarni uchratishimiz mumkin. Masalan, 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining II qismida Xudoyberdi To‘xtaboyev tomonidan yozilgan “Enajonim ertak aytadi”, 4-sinf darsligida esa “Qarg‘a va Paxta”, yozma ertagi keltirib o‘tilgan.

Amaldagi darsliklarda ba’zi matnlar, jumladan ertaklar ham audio shaklida keltirib o‘tilgan. Masalan, “Vatan mehri”, “Bir kunda uch marta hosil bergan daraxt” audioertaklari 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining I qismida keltirib o‘tilgan. Ertaklarning bunday ko‘rinishida berilishidan maqsad nutqiy kompetensiyalardan biri hisoblangan tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishdir.

Ertak o‘quvchilar uchun eng keng tarqalgan janrlardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ko‘proq hayvonlar haqidagi ertaklarni o‘rgatish foydali hisoblanadi. Chunki ularning tasavvurlari murakkab syujetli ertaklardan xulosa qilishga yetarli daraja bo‘lmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari

uchun esa ko‘proq vatanga bo‘lgan muhabbat, do‘stlikning qadri va yana boshqa ko‘plab insoniy fazilatlar haqidagi ertaklar mos keladi. Ertak badiiy matnning asosiy ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Badiiy matn - bu adabiy asarning yozma shakli bo‘lib, u yozuvchining hayot haqidagi qarashlari, his-tuyg‘ulari va g‘oyalarini badiiy obrazlar, timsollar va estetik vositalar orqali ifodalaydi.

2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining VII bo‘limi ertaklar uchun ajratilgan bo‘lib, u “Ertaklarning sehrli olamidan bahra olamiz” deb nomlangan. Bu bo‘limda o‘quvchilar uchun turli xil ertaklar bilan bir qatorda ertaklar to‘g‘risida nazariy ma’lumotlar ham keltirib o‘tilgan.

Xalq ertaklarini mavzusi bo‘yicha 3 turga bo‘linganini ko‘rishimiz mumkin. Ular: maishiy ertaklar, sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar sanaladi. Ertak mavzusi o‘tilayotgan darsga albatta alohida tayyorgarlik zarur. Chunki ertak o‘qitish darsida bajariladigan vazifalar soni nisbatan ko‘proq hisoblanadi. Dars jarayonida ertakni o‘granishda quyidagi bosqichlarga duch keladi.

- 1) O‘quvchilarni ertak haqida eshitishga tayyorlash, ularni ertak muhitiga olib kirish;
- 2) Ertak sarlavhasi bilan tanishtirish va avvalgi o‘rganilgan ertaklarni eslashga undash;
- 3) O‘qituvchi tomonidan ertakning o‘qilishi yoki audio tarzida eshittirilishini ta’minlash.
- 4) Ertakni bolalar qanchalik anglaganliklarini aniqlash uchun qisqa suhbat o‘tkazish.
- 5) Ertak matni bo‘yicha lug‘at ishi o‘tkazish ya’ni ertakdagi o‘quvchilar uchun notanish bo‘lgan so‘zlarning ma’nolarini aniqlash va tushuntirish, bunday so‘zlar ertaklar tarkibida talaygina topiladi chunki ertaklarda ko‘pincha ma’lum xalqning o‘zigagina tegishli bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlardan tashkil topadi.
- 6) Ertakni rollarga yoki qismlarga bo‘lib o‘qish, tahlil qilishni o‘rganish.
- 7) Ertakni so‘zlab berishga tayyorlash;
- 8) Biror metod yoki topshiriq asosida ertakni qayta o‘qish;

- 9) Yakuniy suhbat o'tkazish, ertakdan tegishli xulosani chiqarish
- 10) Ertakni qayta hikoya qilishga o'rganish topshiriqlarini berish.

Ertakni o'qitish va tahlil qilish jarayonida biror bosqichda turli usullardan foydalanish mumkin. Masalan, o'gzaki hikoya, ertakni rollarga bo'lib o'qitish, ertakdagi qahramonlarga ta'rif berish, ertakni qismlarga bo'lib o'qish singarilarni aytish mumkin. Badiiy matnning ko'rinishi bo'lmish ertak ustida ishlash jarayonida o'qituvchi tomonidan turli topshiriqlar bajartirilishi yoki mashq daftarlarida berilgan topshiriqlar orqali dars mavzusi mustahkamlanishi mumkin.

Ertak o'qitish darslarida ko'rgazmalilikdan foydalanish ham muhim hisoblanadi, chunki, ertak qahramonlari yoki undagi voqealarni o'quvchilar rasmlar orqali ko'rishsa tasavvurlari kengayadi hamda xotiralarida yaxshi saqlanib qoladi.

Ertak o'rgatiladigan darslarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu ertaklardan xulosa chiqarish va qahramonlarning xususiyatlarini to'g'ri baholay olishdir. Ya'ni o'quvchilar ertaklar orqali nima yaxshi-yu nima yomon, nima to'g'riy-yu nima noto'g'ri ekanligini tushunib yetishlari lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf darsliklarini tahlil qiladigan bo'lsak, ilmiy-ommabop asarlar soni ko'pchilikni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Chunki, o'quvchilarda vatanparvarlik, millatsevarlik kabi xislatlarni shakllantirishda va ularni ilm-fanning so'nggi yutuqlari bilan tanishtirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish uchun ilmiy-ommabop asarlar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-ommabop matnlar ko'pincha mavsumiy, bayramlarga mos holatda beriladi. Masalan, biror tarixiy shaxsning tavallud kuni munosabati bilan darslikda shu shaxs haqida nazariy ma'lumot berilgan bo'ladi.

1- sinf "O'qish savodxonligi" darsligida "Vatan - mo'tabar", "Kumush qish", "Bahor keldi" "Kutubxona – nurxona" kabi ilmiy-ommabop matnlar berilgan. Yil fasllari bilan bog'liq matnlar orqali o'quvchilar fasllar, ularning o'zgarishi haqida ma'lumotga ega bo'lishsa, "Kutubxona – nurxona" kabi matnlar orqali kutubxonada o'zini tutish qoidalari va kitoblarga qanday munosabatda bo'lish haqida tushuncha hosil qilishlari mumkin.

2- sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida esa “O‘zbek milliy hunarmandchiligi” mavzusida, 3-sinf darsligida esa ko‘proq mashxur sportchi, bastakorlar haqida, 4-sinf darsligida esa vatanimiz va davlatimiz ramzlari haqida ilmiy-ommabop matnlar keltirilgan. Bular orqali o‘quvchilar juda ko‘plab nazariy ma’lumotlarga ega bo‘lishadi.

Ilmiy-ommabop asarlarni o‘rganish darslarini yanada qiziqarli bo‘lishi uchun o‘qituvchi boshqa qo‘shimcha manbalardan foydalanishi, videomateriallar, qiziqarli topshiriqlardan foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. bunday qo‘shimcha vositalarni mavzuga kirish suhbat yoki mustahkamlash jarayonida ishlatishlari mumkin.

Ilmiy-ommabop asarlarni o‘rganish darslarida quyidagi ketma-ketlikda ish olib boorish zarurdir:

- 1) O‘quvchilar bilan kirish suhbat o‘tkazish: o‘quvchilarni asar muhitiga olib kirish, ularni yangi ma’lumotlar olish uchun tayyorlash, asar mavzusi bo‘yicha bilganlarini so‘zlatish;
- 2) O‘qituvchi yoki o‘quvchilarning o‘ziga asarni o‘qitish;
- 3) Asardagi notanish so‘zlar ustida ishlash;
- 4) Asarning mazmunini tushuntirish uchun, o‘quvchilarning qay darajada tushunganlarini aniqlash uchun suhbat va savol-javob o‘tkazish;
- 5) Asarni qismlarga bo‘lib o‘rganish;
- 6) Qismlar asosida yoki yaxlit holatda qayta hikoya qilishga o‘rganish.
- 7) Asardan xulosa qilish.

Ilmiy-ommabop asarlar o‘rganilgan darsda o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida mavzu doirasida qo‘shimcha ma’lumot yig‘ish yoki mavzu bo‘yicha rasm chizish kabi topshiriqlarni uyga vazifa sifatida berishimiz mumkin.

1.3 Hikoya janridagi asarni o‘qitish metodikasi.

Hikoya o‘rganilayotgan darsda hikoyaning o‘quvchilar uchun o‘qib berilishiga ham e’tibor qaratish zarur. Chunki, hikoyada tasvirlangan qahramonlar, voqea-

hodisalarning holatini to‘liq tasavvur qilish uchun o‘quvchilari hikoya muhitiga olib kiruvchi nutq asosiy o‘rinni egallaydi. Hikoya o‘qib bo‘lingandan so‘ng esa o‘quvchilar bilan hikoyaning mazmuni va boshqalar haqida savol-javob o‘tkazish muhim hisoblanadi. lekin undan oldin o‘quvchilarga hikoyani anglashlari va mustaqil o‘qishlari uchun vaqt berish lozim. “Hikoya – arabcha so‘z bo‘lib, gapirib, so‘zlab berish, qissa, tarix. Kimsa, narsa va u bilan bo‘g‘liq voqea-hodisalarning og‘zaki tafsiliy bayoni”³. Hikoya o‘qitish metodikasi – ta’lim jarayonida hikoyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatuvchi pedagogik yo‘nalish bo‘lib, u o‘quvchilarning nutqini boyitish, tasavvurini kengaytirish, axloqiy-estetik tarbiyasini shakllantirish hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metod va usullar majmuasidir.

U hikoyani tanlash, mazmunini o‘rganish va tayyorlanish jarayonlarini, hikoyani ifodali o‘qish, qayta hikoya qilish, suhbat asosida tahlil qilish, obrazlarni ochib berish, voqealar rivojini anglatish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholash, hikoya asosida savol-javob, ijodiy topshiriqlar, drammatizatsiya va ijodiy yozuv mashg‘ulotlarini tashkil etishlarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, hikoya o‘qitish metodikasi — o‘quvchilarni badiiy asar orqali fikrlashga, nutqiy faoliyatga, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga yo‘naltiruvchi ta’lim-tarbiya jarayonidir.

Hikoyani tushuntirish jarayonidagi suhbatda foydalaniladigan savollar unda aks etgan voqea, ularning ketma-ketligi, personajlarning xatti-harakatlari va xarakterlari va nihoyat asardan olinadigan xulosa haqida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya o‘rganish darslarida hikoya tahlilidan so‘ng bajariladigan mashqlar ham alohida o‘rin egallaydi. Bunda o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan turli topshiriqlardan foydalanish yoki “O‘qish savodxonligi” darsligining mashq daftaridagi mashqlardan foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘rganilayotgan hikoyaning mavzusi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Hikoyaning mavzusi o‘quvchilarning yoshi va

³ A.Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbek tilining izohli lugati H harfi”. -T.: Davlat milliy nashr-ti.2023. [107-b] 64-b.

saviyasiga mos, ularda turli ijobiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Hozir amalda bo'lgan darslikda ham o'quvchilar uchun turli mavzudagi va qiziqarli hikoyalar ko'plab keltirilgan. Masalan 1-sinf "O'qish savodxonligi" darsligining 1-qismida "Rahmdil qizcha", "Izza – bir qoshiq jizza", "Sovg'a", "Bahor keldi" kabi hikoyalar o'quvchilar e'tiboriga havola etilgan. Darslikda har bir hkoyadan so'ng savol-topshiriqlar, hikoya mavzusiga mos biror tez aytish yoki maqol, hikoya matni ustida ishlash uchun mo'ljallangan mashqlar keltirib o'tilgan. Sinflar yuqorilagani sari hikoyalar va unga oid topshiriqlar ham biroz murakkablashib, kengayib boradi. Masalan, 1-sinfda hikoyalar asosan o'qib kelish uchun beriladi. Keyingi sinflarda esa hikoya mazmunini so'zlab kelish kabi murakkabroq topshiriqlar beriladi. Bundan tashqari hikoya ustida ishlash jarayonida undagi biror voqea yoki personajning rasmini chizdirish topshirig'i ham o'quvchilar uchun foydali hisoblanadi. Bu o'quvchining xotirasida yaxshi saqlanib qolishi uchun asos bo'ladi.

Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.).
2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin).
3. Lug'at ustida ishlash.
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).
5. Hikoyani qayta o'qish (qismlarga bo'lib, rollarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish).
6. Hikoyaning har bir bo'limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish.
7. Reja asosida qayta hikoyalash.
8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar.

9. Hikoyani ifodali o‘qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).
10. Hikoyani ifodali o‘qish va ifodali qayta hikoyalash.

1.4 Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish metodikasi.

Boshlang‘ich sinflarda ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayot haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o‘rgatishdan iborat.

Tabiatshunoslikka oid va tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop asarlarni o‘qib o‘rganishda tabiat hodisalarini kuzatish (masalan, daraxt kurtaklarining bo‘rtishi), o‘quvchilarni dehqonlar mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergan o‘zgarishlarning guvohi va ishtirokchilari bo‘lgan insonlar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi asarlar Vatanimiz o‘tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug‘ siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to‘g‘risida bilim beradi. O‘qish darsliklaridan o‘rin olgan Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqiq ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bir xildagi matnlar o‘quvchilarni nafaqat o‘tmishimiz bilan tanishtiradi, balki ularning Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas’uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. O‘quvchibrda Vatanga muhabbat tuyg‘usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o‘tmishi haqida hikoya qilingan ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar o‘tmish bilan buglningi kllni taqqoslash imkoniga ega bo‘ladilar. Jamiyat taraqqiyoti haqida qisqacha bo‘lsa-da, tllshuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog‘liq mavzudagi asarlar tahliliga alohida e‘tibor berish zarur. 1-sinf dasturida o‘qish bilan bog‘liq holda kuzatish, sayohat darslari mo‘ijallanadi. Masalan, yil fasllarida mavsumiy tabiat hodisalari (ob-havoning o‘zgarishi, o‘simlik va hayvonlarning

hayoti) ni, shuningdek, dala mehnatini kuzatish uchun tabiatga (dala, bog‘, xiyobonlarga) sayohat uyushtirish ko‘zda tutiladi. Sayohatda tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning nisbatan uzoq kuzatishlari uyushtiriladi.

Bunday darslarda ko‘rgazma sifatida o‘quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy mavzudagi ilmiy-ommabop asarlarni unga mos rasmlar bilan bog‘lab o‘qitish kishilarning baxtli hayot uchun intilishlari, ota-bobolarimizning dushmanlardan Vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi. O‘quvchilar mehnat hayotning asosi ekanligini, insonlar turmushi mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Yangi avlod darsliklariga ko‘ra 2-sinf o‘qish savodxonligining IV bo‘limida Hunar zo‘r–kasb gavharda ilmiy-ommabop mavzusidagi asarlarni, 4-sinf o‘qish savodxonligining 1- qismida esa "Yagonadir vataning sening" (Xurshid Davron) asarini o‘qish orqali o‘tmish ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi taraqqiyoti haqida bilib oladilar. Bu maqolalar xalqimizning hayoti, mehnati va kurashi haqida yangi bilim berish bilan birga, bolalarni Vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o‘qish darsini uyushtirishda quyidagicha reja asos qilib olinishi mumkin:

I. O‘qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimini aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o‘tkazish.

2. Asarni yoki uning muallifi bir qismini o‘qish, o‘quvchiga notanish bo‘lgan so‘zlar ma’nosi testda ishlash.

3. Asar rejasini tuzish.

4. O‘qilgan maqola yuzasidan suhbat o‘tkazish

5. Matnning asosiy mazmunini aniql

6. Reja asosida maqolani qayta o‘qish.

7. Maqolani yaxlit o‘qish. Bunda bolalarni qayta hikoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o‘zlashtirishlariga erishish maqsadi ko‘zda tutiladi.

8. Reja asosida qayta hikoyalash.

9. Xulosalash va umumlashtirish. itmiy-ommabop asarlarni uzviy birlikda o'rganish o'quvchilarning har bir mavzida bayon etilgan tarixiy-adabiy hodisalarni, ular o'rtasidagi umumiylikni, har bir davrga ega xususiyatlarni anglab olishlarini ta'minlaydi. Ular bolalarni kelgusida gazeta va jurnallarni o'qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o'zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o'stiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Epik asarlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich sinfda epik asarlarni o'qitishning maqsadi nima?
3. Epik asarlarni o'qishda qaysi metod va usullardan foydalaniladi?
4. Hikoya va ertak janrlari o'rtasidagi farqlarni izohlang.
5. Epik asarlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?
6. Epik asar syujetini tahlil qilishda qaysi savollardan foydalanish mumkin?
7. Nima uchun epik asarlarni o'qishda ifodali o'qishga katta e'tibor beriladi?
8. O'qilgan biror hikoya yoki ertak syujetini qisqa rejada yozing.
9. Asardagi bosh qahramonga tavsif bering (uning xatti-harakati va xarakterini ochib yozing).
10. Epik asarda uchraydigan 5 ta yangi so'z yoki iborani topib, ularning ma'nosini yozing.
11. O'qilgan hikoya mazmunini 5–6 gapda qayta hikoya qilib bering.
12. Berilgan epik asardan parchani ifodali o'qishga tayyorlaning.
13. Hikoyaning mazmuniga mos tarzda rasm chizing yoki grafik sxema tuzing.
14. Asarda ilgari surilgan g'oyani o'z so'zlaringiz bilan izohlang.
15. Hikoya qahramonlari haqida savollar tuzing va sinfdoshlaringizga bering.

Testlar

1. Epik asarlarning asosiy belgisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - A) Voqealar, qahramonlar hayotini tasvirlash orqali g'oya ifodalanadi
 - B) Qahramonlar xatti-harakati qo'shiq orqali beriladi

- C) Faqat she'riy shaklda yoziladi
 - D) Asosan maqol va topishmoqlardan iborat bo'ladi
2. Boshlang'ich sinflarda epik asarlarni o'qitishning maqsadi nima?
- A) O'quvchilarni faqat yod olishga o'rgatish
 - B) Qahramonlarni taqlid qilishga undash
 - C) O'quvchilarda nutq, fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish
 - D) Hikoya mazmunini eslatib turish
3. Hikoya qaysi janrga mansub?
- A) Lirik janrga
 - B) Epik janrga
 - C) Dramatik janrga
 - D) Publitsistik janrga
4. Epik asarlarni o'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri qaysi?
- A) Kuzatish metodi
 - B) Ifodali o'qish va qayta hikoyalash
 - C) Eksperiment metodi
 - D) Rasm chizish
5. Boshlang'ich sinflarda hikoya ustida ishlashda o'qituvchi birinchi navbatda nimalarga e'tibor qaratishi lozim?
- A) Qahramonlarning liboslari va tashqi ko'rinishiga
 - B) Asarning syujeti va asosiy g'oyasiga
 - C) Faqat qiziqarli voqealariga
 - D) Muallifning tarjimai holiga
6. Epik asarlarni o'qishda o'quvchilarga so'z ma'nosini tushuntirishning maqsadi nimada?
- A) Matnni tez o'qish uchun
 - B) Matnni tushunmay yod olish uchun
 - C) Asar mazmunini chuqurroq anglash uchun
 - D) O'qituvchining vaqtini to'ldirish uchun

7. Epik asarlarni tahlil qilish jarayonida qanday ish turlari amalga oshiriladi?

A) Reja tuzish, qayta hikoyalash, ifodali o‘qish

B) Faqat yodlash

C) Faqat savol-javob

D) Asarni yozuvchidan eshitib olish

II-BOB. BOSHLANG‘ICH SINFDALIROEPIK ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, lirik asarlar, bolalar, fantaziya, ritm, she‘r, nutq madaniyati. pand-nasihati, maqol, matal, majoz, ramz, ibrat, obraz, naql, xarakter, yumor, satira.

2.1 Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi

Boshlang‘ich sinflarda lirik asarlar o‘quvchilarning estet didini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yoshdagi bolalar uchun lirik she‘rlar va matnlar ularning hissiyotlarini ifodalash, so‘z boyligini oshirish hamda tasavvur dunyosini kengaytirishga xizmat qiladi. Lirik asarlar orqali bolalar tabiat, mehr-muhabbat, do‘stlik kabi mavzularni o‘rganib, o‘z his-tuyg‘ularini anglashga o‘rgatiladi. Lirik ijodning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchining ichki olamini, his-tuyg‘ularini uyg‘otadi va ruhiy olamiga ta‘sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinflarda bunday asarlar yordamida bolalar so‘z san‘ati bilan tanishib, o‘z fikrlarini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, lirik asarlar bolalarning nutq madaniyatini oshirish va tilga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonida lirik asarlarni o‘qish va tahlil qilish bolalarning estetik didini rivojlantirishga, ularni san‘atga mehr qo‘yishga yordam beradi. Bu yoshdagi o‘quvchilar uchun she‘rlar oddiy va tushunarli bo‘lishi, ular orqali ijobiy hissiyotlar uyg‘otilishi muhimdir. Shuningdek, lirik asarlar bolalarda mehr-oqibat, do‘stlik, tabiatga hurmat kabi qadriyatlarni singdirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Lirik asarlar ustida ishlashda avvalo o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun she'rlarni tushunish va qabul qilish jarayoni o'ziga xosdir. Ular hali abstrakt tushunchalarni chuqur anglay olmaydi, shu bois lirik asarlarni tanlashda bolalar hayotidan olingan, oddiy va tushunarli tilga ega bo'lgan asarlar tanlanadi. Bu asarlar tabiat, do'stlik, ota-ona muhabbati kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Bunday asarlar bolalarning o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lanishi, o'z his-tuyg'ularini ifodalashga yordam beradi. Lirik asarlarni o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samarali bo'ladi. O'qituvchi she'rnı baland ovozda, ifodali o'qib, uning ohangini, ritmini bolalarga yetkazishi kerak. Bu bolalarda she'rga nisbatan hissiy qiziqishni uyg'otadi. Keyinchalik o'quvchilar she'rnı birgalikda o'qiydilar, so'ngra uning mazmuni haqida suhbat quriladi. Suhbatda o'quvchilardan she'rda qanday hislar aks etgani, kim haqida yoki nima haqida gapirilgani so'raladi. Bu jarayon bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Lirik asarlarnı tahlil qilishda o'quvchilarga she'rning asosiy mavzusi, qahramonlari, his-tuyg'ulari haqida oddiy savollar beriladi. Masalan, «She'r kim haqida?», «U qanday his qiladi?», «Nega shunday his qiladi?» kabi savollar orqali bolalar o'z fikrlarini ifodalashga o'rgatiladi. Shu bilan birga, she'rning til va uslubiy xususiyatlari haqida ham tushuntirishlar beriladi. Masalan, so'zlarning ohangi, takrorlanishlar, metafora va boshqa badiiy vositalar haqida oddiy tilda gapiriladi.

Lirik asarlarnı o'qish jarayonida drammatizatsiya usulidan foydalanish ham juda foydali. Bolalar she'rdagi qahramonlarning ro'linı bajarib, uning his-tuyg'ularini jonlantiradilar. Bu nafaqat she'rnı yaxshiroq tushunishga yordam beradi, balki o'quvchilarning nutq madaniyatini oshiradi, sahna madaniyatini shakllantiradi. Shu tariqa, lirik asarlar bolalarning ijodiy fikrlashini va ifoda madaniyatini rivojlantirishda muhim vositaga aylanadi.

Lirik asarlar ustida ishlashda rasm chizish, qo'shiq kuylash, harakatlar bilan ifodalash kabi ijodiy faoliyatlarnı ham keng qo'llash lozim. Masalan, bolalar o'qigan she'r mavzusida rasm chizish orqali uning mazmunini yanada chuqurroq anglashadi. Qo'shiq kuylash esa she'rning ritmi va ohangini his qilishga yordam beradi.

Harakatlar bilan ifodalash esa bolalarning tanaviy faoliyatini oshirib, hissiy tajribalarini boyitadi.

Metodik jihatdan lirik asarlar ustida ishlashda o'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarning fikrini tinglashi, ularni o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalashga undashi zarur. O'quvchilar o'z fikrlarini aytishda erkin bo'lishlari, har qanday javob hurmat bilan qabul qilinishi kerak. Bu muhit bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va lirik asarlarga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi. Shuningdek, lirik asarlar ustida ishlashda o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish uchun so'z boyligini oshirishga alohida e'tibor beriladi. O'qituvchi yangi so'zlar, iboralar va ularning ma'nolari haqida tushuntirishlar beradi, ularni kontekstda qo'llashga o'rgatadi. Bu nafaqat she'rni tushunishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarning umumiy nutq madaniyatini ham yaxshilaydi. Lirik asarlarni o'qish va tahlil qilish jarayonida o'quvchilarning hissiy va estetik didini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar she'r orqali go'zallik, mehr-muhabbat, tabiatning nozik jihatlarini his qilishni o'rganadilar. Bu esa ularning shaxsiyati va dunyoqarashini boyitadi.[4] Lirik asarlar ustida ishlashda ota-onalar bilan ham hamkorlik qilish muhimdir. Uyda ham bolalar o'qigan she'rlarni takrorlashlari, ular haqida suhbat qurishlari, qo'shiq kuylashlari rag'batlantiriladi. Bu o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va bolalarning til ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Yana bir muhim jihat — lirik asarlarni tanlashda milliy adabiyotimizning boy merosidan foydalanishdir.

O'zbek xalqining milliy she'riyati, xalq qo'shiqlari, zamonaviy bolalar adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'quv dasturiga kiritish bolalarda milliy o'zlikni anglash va qadrlash hissini shakllantiradi. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodi elementlarini o'rganish bolalarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Lirik asarlarni o'qish jarayonida o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini yaratish, ifodalash imkoniyatlari berilishi kerak. Masalan, ular o'zlari uchun qisqa she'rlar yozishlari, his-tuyg'ularini rasmlar orqali ifodalashlari mumkin. Bu ijodiy faoliyat bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularning badiiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Metodik jihatdan lirik asarlarni o'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Ba'zi bolalar she'rlarni tezda o'zlashtirsa, boshqalari

uchun tushunish qiyinroq bo'lishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi har bir bolaning qobiliyatiga moslashgan yondashuvni qo'llashi zarur. Bu esa o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Lirik asarlar ustida ishlashda o'qituvchi o'z faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi mumkin. Masalan, interaktiv doska, audio va video materiallar yordamida she'rlarni yanada qiziqarli va tushunarli qilish mumkin. Bu usullar bolalarning diqqatini jamlashga yordam beradi va o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Shuningdek, lirik asarlarni o'qishda o'quvchilarning birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Guruhlarda she'rlarni tahlil qilish, muhokama qilish, o'zaro fikr almashish bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini oshiradi va ularni jamoaviy ishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan lirik asarlar ustida ishlashda o'qituvchi doimiy ravishda o'z metodikasini takomillashtirib borishi lozim.

Yangi metod va texnologiyalarni o'rganish, pedagogik tajribalarni tahlil qilish uning ish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarning individual rivojlanish darajasini doimiy nazorat qilish va kerak bo'lsa, qo'shimcha yordam ko'rsatish muhimdir. Lirik asarlar ustida ishlash nafaqat o'quvchilarning badiiy saviyasini oshiradi, balki ularning umumiy madaniyatini, hissiy intellektini rivojlantiradi. She'riyat orqali bolalar olamni yanada chuqurroq anglashga, go'zallik va ezgulikni qadrlashga o'rgatiladi. Bu esa ularning shaxs sifatida yetilishi va jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishlariga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinfda lirik asarlar ustida ishlash metodikasi bolalarning badiiy didini rivojlantirish, hissiy va estetik tarbiyasini oshirishda muhim vositadir. Ushbu jarayon o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari va qiziqishlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Interaktiv, ijodiy va didaktik usullarni qo'llash, milliy adabiyotga e'tibor qaratish, ota-onalar bilan hamkorlik qilish samaradorlikni oshiradi. Shu yo'l bilan lirik asarlar bolalarda so'z san'ati va madaniyatining mustahkam poydevorini yaratadi, ularni kelajakda yanada yuqori darajadagi badiiy va madaniy bilimlarga tayyorlaydi.

2.1 Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi.

Masal (arab. — namuna, misol) — didaktik adabiyot janri. Ta’limiy xarakterdagi, aksariyat kichik she’riy yoki nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar qushlar, hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Mazmuni majoz asosiga quriladi, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy tanqid motivining ustunligi masalga hajviy ruh bag‘ishlaydi.

Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarga yaqin bo‘lib, xotimasi, ta’limiy xulosasi maqol, hikmatli so‘z va iboralar tarzida bo‘ladi. Masalning materiallari aksariyat ertak, majoz, novella, latifa va boshqacha ham qo‘llanishi mumkin. Masal nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlarda — hayvonlar, jonivorlar va o‘simliklar dunyosiga ko‘chiriladi. Ko‘pincha masalning kirish qismida, ba’zan qissadan hissa-ibratli xulosa keltiriladi. Ramzli hikoyadan farqli ravishda masalning o‘z an’anaviy obrazlar va motivlar doirasi mavjud bo‘ladi (hayvonlar, o‘simliklar, qushlar, muayyan tizimdagi odamlar va hokazo).

Masal janrini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda dangasalik, yolg‘onchilik, ikkiyuzlamachilik, qo‘pollik, yalqovlik, beparvolik va qo‘rslik kabi illatlarni yo‘q bo‘lishi uchun yordam beradi. Bu kabi illat yoki nuqsonlarni har bir o‘quvchida yo‘q bo‘lishi uchun turli xil mavzudagi masallar bilan tanishtirish va shu orqali kitobxonlikni ham shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Masal janrini asosida o‘rgatish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish ham ko‘zda tutiladi, chunki, ta’lim jarayonida ular o‘z fikrlarini mustaqil bayon qiladilar, tafakkur qilish jarayoni kechadi. Maktab yoshidagi va boshlang‘ich sinfda tahsil olayotgan o‘quvchilarning nutqini ravon qilish juda muhimdir, chunki mazku bolalarning hozirgi zamon talabi asosida jamiyatimiz ishlarida faolligini ta’minlashda ular nutqining ravonligi katta ahamiytaga ega.

Nutq - insonlararo aloqa vositasi bo'lganligi uchun ham har bir yosh avlodni nutqiy ko'nikmalarni puxta eggalashga o'rgatish davr talabidir. Albatta, masallarda ham umuminsoniy qadriyatlar ulug'lanadi, badiiy-estetik qarashlar namoyon etiladi.

Bu janrning xalq poetik ijodiga yaqinligi, uni avvalo donishmand xalq yaratganligi, so'ng esa yozuvchilar, shu jumladan Ezop o'z ijodida takomillashtirgani xususida so'z boradi: "Masal janri II asrlarda Babriy, Rimda Fyodr (eramizning I asri) Avian (IV asr) tomonidan rivojlantirildi. Masal janri taraqqiyotiga fransuz masalchisi Lafonten (XVII), rus masalchisi I.A.Krilov, Daniya masalchisi Golberg (XVIII), nemis masalchisi Lessing(XIX) katta hissa qo'shganlar"-deyiladi. Mashhur masalnavis Gulxaniyning "Toshbaqa bilan Chayon", "Maymun bilan Najjor" masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do'stlik, sadoqat, mehr-oqibat, har doim qo'lidan keladigan ish qilishni, aksincha, qo'lidan kelmaydigan ishlarga qo'l urmaslik kabi tuyg'ulari aks ettirilgan.

O'quvchilar faqat masalni o'qibgina qolmasdan tahlil qilish ko'nikmasini ham shakllantirish kerak. Agar o'qigan asarini ongli ravishda tushuna bilsa, asarlarni anglab yetishida hech qanday muammo bo'lmaydi. Shunday ekan, endi Ezop va uning massalari haqida aytadigan bo'lsak, 4-sinf o'qish savodxonligi darsligida Ezop va uning massalari berilgan.

Ezop-yunon masalchisi, rivoyatlarga qaraganda u frigiyalik qul bo'lib, so'ng ozod qilingan milodiy X-XV asrlarda qo'lyozmalarda 300dan ortiq massalari saqlab qolgan. Ezop masallari g'oyaviy jihatdan tushkunlik va umidsizlik ruhida yozilgan, personajlari (asosan, hayvonlar) o'ta shartli, voqealar ixcham bayon qilingan. Tili sodda, jonli tilga yaqin. Ezop masallari syujeti Yevropa masalchiligi syujetining asosini tashkil etgan. Lotin masalchisi Fedr (1-asr) va yunon masalchisi Babriy (2-asr)dan tortib J. Lafonten va I. A. Krilovgacha Ezop masallari syujetini davrga moslab ijodiy rivojlantirganlar.

4-sinf o'qish savodxonligi darsligida "Tovuq bilan Tulki" masali berilgan. Bu masalda tulking yirtqichlar bilan qushlar o'rtasida tinchlik bitimi imzolangani, uning

tovuqqa bo‘lgan mug‘ombirligi haqida aytilgan ya’ni shu orqali tovuqni yemoqchi bo‘lgani batafsil yozilgan.

Masalning asosiy mazmuni - to‘satdan taklif qilingan do‘stlikdan ehtiyot bo‘lishdir. Bu masal bolalarda har kim bilan do‘st tutunavermaslik, hammaga ham ishonmaslik kerakligini tulki va tovuq majoziy obrazlarda bilib olishadi. Tulki - ikkiyuzlamachi, yolg‘onchi bo‘lgan insonlar timsolida qiyoslangan.

Ezopning masallarini o‘quvchilarga oson tarzda tahlil qilishni va tushunib mag‘zini chaqishni o‘rgatish o‘qituvchining vazifasidir. “Yovvoyi echkilar va cho‘pon” masalini o‘qitish orqali o‘quvchilar juda ko‘p ma’lumotlarni olishi va hayotda ham shularga asoslangan holda yashashga o‘rgatadi. Masalda cho‘ponning echkilariga qo‘shilib, yovvoyi echkilar kelib qo‘shilishadi. Va shu bilan ertasiga yomg‘ir yog‘ganligi sababli echkilarni yaylovga olib chiqmaydi. Yovvoyi echkilarga juda ko‘p yem-xashak beradi cho‘pon. Lekin o‘zining echkilariga ozgina qilib beradi. Shunda echkilar xafa bo‘ladi. Ertasiga hamma echkini yaylovga yuborganda yovvoyi echkilar qochib, faqat eski echkilar qoladi. Shunda cho‘pon ularga qarata “ey echkilar men sizlarga o‘zimning echkilarimdan ham yaxshi qaragandim, lekin sizlar vafo qilmay qochib ketdinglar”, - deb o‘ksinib gapiradi. Qissadan hissa shuki, inson hech qachon yangi do‘st topganda eski do‘stni unutmaslik kerak. Bunda echkilar timsolida ikkita ma’noni anglash mumkin. Ya’ni birinchisi o‘zining manfaati uchun harakat qiladigan insonlar, ikkinchisi esa sadoqatli do‘st timsoli gavdalanadi. Bu bilan o‘quvchilarga har doim do‘stga vafodor bo‘lish, yangi do‘stlar ko‘proq topish kerak, lekin eski do‘stlarni ham unutmaslik kerakligini o‘rgatadi. Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘quvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar.

2.3 Masal janrinig boshqa janrlardan farqini tushuntirish.

Adabiyot – bu kitoblar dunyosi, unda hayot, odamlar va ularning yaxshi-yomon fazilatlari haqida hikoya qilinadi. Kitoblar orqali biz yaxshi ishlarga o‘rganamiz, yomonlardan esa saboq olamiz. Adabiyotda turli-tuman asarlar bo‘ladi: hikoyalar, she‘rlar, ertaklar va masallar.

Ular orasida masal degan o‘ziga xos asar turi bor. Masal – bu qisqa, lekin juda ibratli asar. Uni o‘qiganimizda ko‘pincha hayvonlar, qushlar yoki boshqa jonivorlar insonlardek so‘zlashadi, o‘ylaydi va ish tutadi. Aslida esa muallif ular orqali insonlar haqida gapiradi.

Masalda kimdir halol, kimdir yolg‘onchi, kimdir esa xushomadgo‘y bo‘lib chiqadi. O‘quvchi esa bu masaldan o‘ziga saboq oladi — yaxshilikni tanlab, yomonlikdan qochadi.

Masal qisqa yoziladi, so‘zlari sodda, tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun uni bolalar ham, kattalar ham bemalol tushunadi. Masalning eng muhim joyi — uning oxiri. Chunki u yerda muallif nima demoqchi bo‘lganini, qanday fikrni o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lganini bildiradi. Bu yerda odatda biror ibratli fikr yoki saboq yoziladi.

Masallar boshqalardan shuncha farqli: ular o‘rgatadi, o‘ylantiradi va tarbiyalaydi. Masal – bu shunchaki voqea emas, bu hayotdagi haqiqatni kulgili, lekin o‘tkir tilda aytib beruvchi hikoyadir.

Masal – bu qisqa, lekin mazmunan boy va ibratli badiiy asar bo‘lib, o‘quvchini o‘ylantiradi, tarbiyalaydi va unga saboq beradi. Masal o‘z shakli, uslubi va maqsadi bilan adabiyotda o‘ziga xos o‘rin egallagan. Quyida ushbu janrning eng muhim belgilari haqida so‘z yuritamiz.

Masalning eng asosiy vazifasi — o‘quvchini to‘g‘ri yo‘lga boshlash, unga yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish, insoniy kamchiliklardan ogoh etishdir. Har bir masal yakunida muallif o‘z fikrini aniq va lo‘nda qilib bildiradi. Ushbu xulosa, ko‘pincha, o‘quvchiga saboq bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu ibratli yakun masalning ma’naviy asosini tashkil etadi.

Personifikatsiya – jonli obrazlar orqali insoniy xususiyatlarni ifodalash jarayoni

Masallarda ko‘pincha qahramonlar sifatida hayvonlar, qushlar, hasharotlar yoki hatto jonsiz narsalar tanlanadi. Ular inson kabi so‘zlashadi, o‘ylaydi, his qiladi va harakat qiladi. Bunday yondashuv “insoniylashtirish” yoki personifikatsiya deyiladi. Ammo bu tashqi shaklgina – aslida, muallif bu obrazlar orqali odamlar, ularning fe‘l-atvori, xulq va odatlarini gavdalantiradi. Masalan, tulki hiylakor, eshak nodon, sher esa hokimiyat ramzi bo‘lib chiqadi.

Masal o‘z hajmi jihatdan odatda juda qisqa bo‘ladi. Voqealar sodda, tushunarli va lo‘nda ifoda etiladi. Bu esa masalni nafaqat kattalar, balki bolalar uchun ham yengil qabul qilinadigan qiladi. Qisqalik bilan birga, undagi mazmun chuqur va ta’sirchan bo‘ladi. Har bir so‘z o‘z joyida, har bir jumla esa o‘z maqsadiga xizmat qiladi.

Masal janri shakl jihatdan ikki xil bo‘lib, nasrda yoki nazmda yozuilishi mumkin. Nazmiy masallar odatda she’riy uslubda, qofiyalangan holda yoziladi, ularni yod olishni va og‘zaki tarzda yetkazishni osonlashtiradi. Ayniqsa, bolalar uchun she’riy masallar yanada jozibador va esda qolarli bo‘ladi. Nasriy masallar esa ko‘proq tafakkur va mulohazaga urg‘u beradi.

Masallar ko‘pincha kulgili va hazilomuz uslubda yoziladi. Ammo kulgi – faqat kulgi uchun emas. Unda jamiyatdagi turli illatlar – nodonlik, yolg‘on, laganbardorlik, xiyonat, zo‘ravonlik va adolatsizlik kabi salbiy holatlar kinoya, istehzo va satira orqali tanqid qilinadi. Bu orqali muallif o‘quvchini o‘ylantiradi, uni haqiqatga yetaklaydi.

Adabiyotda bolalar va kattalar uchun mo‘ljallangan, o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlar orasida masal va ertak alohida o‘rin tutadi. Garchi ularning har ikkalasi ham badiiy asar bo‘lsa-da, mazmuni, shakli va vazifasi jihatidan bir-biridan ancha farqlanadi.

Ertaklarda odatda sehrli, mo‘jizaviy voqealar, g‘ayritabiiy kuchlar va fantastik qahramonlar ishtirok etadi. Ularning syujeti ko‘proq sarguzashtlarga boy bo‘lib, voqealar tez-tez o‘zgarib turadi. Ertaklar ko‘ngilochar bo‘lishi bilan birga, tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Odatda ular ijobiy yakun bilan tugaydi, ya’ni yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qiladi.

Masallar esa aksincha, ko‘proq real hayotdagi holatlarni ramziy obrazlar orqali tasvirlaydi. Unda hayvonlar, qushlar yoki jonsiz narsalar insoniy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular orqali insonlar va jamiyatdagi muammolar tanqid qilinadi. Masalda mo‘jiza emas, balki ibrat ustuvor. Har bir masal oxirida muallif o‘z fikrini xulosa qilib beradi va o‘quvchini saboq chiqarishga undaydi.

Agar bu ikki janrni qiyoslab ko‘radigan bo‘lsak, quyidagi farqlarni ko‘rishimiz mumkin:

Qahramonlar jihatidan, masallarda hayvonlar insoniy fe‘l-atvor bilan gavdalanadi, ertaklarda esa sehrli mavjudotlar, afsonaviy qahramonlar va sehrgarlar faol ishtirok etadi.

Maqsad nuqtayi nazaridan, masal asosan axloqiy saboq berishga xizmat qilsa, ertakda syujet asosiy o‘rinda turadi – u ko‘proq ko‘ngilochar bo‘lishi bilan birga, bolalar uchun tarbiyaviy vazifani ham bajaradi.

Hajmiga ko‘ra, masallar qisqa bo‘ladi, voqea sodda va lo‘nda ifoda etiladi. Ertaklar esa odatda o‘rta yoki katta hajmli bo‘lib, syujetli voqealardan iborat bo‘ladi.

2.4 Epik she‘rlar bilan tanishtirish usullari

Epik (voqeiy) she‘rlar yoki she‘riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo‘lgan biror voqeani umumlash tirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o‘xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo‘laklarning izchil va bir me‘yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so‘zlamning qo‘llanishi bilan she‘riy nutq sanaladi.

Epik she‘rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mavjud bo‘ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o‘quvchilar tom onidan ham tuzilishi mumkin. Epik turning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gap borganda, avvalo, uning voqeabandlik xususiyati tilga olinadi. Epik asarda makon va zamonda bo‘layotgan voqea-hodisalar tasvirlanadi, oddiygina so‘z vositasida o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlanadigan to‘laqonli badiiy voqeylik yaratiladi. Epik she‘rlarga misollarni biz 2-sinf “O‘qish

savodxonligi” darsligida “Qish yaqin” (2-qism), 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida “O‘q” (3-qism) da ko‘rishimiz mumkin. Bu she‘riy ertaklar orqali o‘quvchilarda tabiatga muhabbat, jonivorlarga mehr shafqat va hayvonlarga g‘amxorlik qilish kabi tushunchlar shakllanadi.

Epik asalarni o‘quvchilarga tushuntirayotganda she‘r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi. Asar mazmunini ochib berishda savol-javob, qayta hikoyalash, rollarga kirib ishro etishdan foydalanamiz. She‘rni yod olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida “Chuchvarachi chumchuq xola” (2-qism 49-bet), “Mikrop, virus va Salomat qiz haqida ertak” (1-2-qism) kabi she‘riy asarlar bilan tanishamiz. O‘quvchilar bilan she‘rni yod olishdan tashqari rollarga bo‘lib ijro etish, ertak mazmunini qayta hikoya qilish, savol-javob va ertakdan kelib chiqib rasm chizish hamda o‘quvchilar mustaqil tarzda savol va test topshiriqlari tayyorlashlari mavzuni o‘zlashtirishda ijobiy natija beradi. Bunda analiz va sintez metodlaridan foydalanamiz. She‘rni izohli o‘qish darsining tuzilishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- She‘rni ifodali o‘qib chiqish. Bu she‘rni mazmunini yaxlit tushunish uchun yordam beradi

- she‘rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat o‘tqazish

- she‘rni qayta-qayta ifodali o‘qishni mashq qilish;

- she‘rni yod aytib berishga tayyorlanish;

- epik (voqeiy) she‘rlar ustida ishlash (she‘rdagi g‘oya va maqsadni aniqlash);

- she‘rdagi notanish so‘zlar ustida lug‘at bilan ishlash.

Boshlang‘ich sinf 4- sinf o‘qish savodxonligi darsligidagi Qudrat Hikmat “Bahor”she‘rini mazmunnomasidan namuna keltiramiz.

Darsning nomi : o‘qish savodxonligi Sinf: 4-sinf

(Soatlar soni:1soat. Vaqt-45 daqiqa.)

Mavzu: „Bahor“. (Qudrat Hikmat)

Mavzuning qisqacha ta‘rifi: she‘rda shoir mayin shamollar, anhor qirg‘oqlaridagi tollar, tonggi shabboda, maysa o‘tlar, teraklar va qushlarning hatti-

harakatlarini chiroyli ta'riflaydi. Hammayoq yam-yashil, chamanzordek gullarga burkanganidan zavqlangan shoir bahor fasli tarovatini o'z she'rida bayon qiladi.

Darsning shiori: „Ko‘ra-ko‘ra ko‘zchil bo‘lasan,

So‘zlay-so‘zlay so‘zchil bo‘lasan”. (O‘zbek xalq maqoli)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o‘quvchilarni bahor fasli, bahor faslida tabiatning uyg‘onishi , qushlar hayotidagi o‘zgarishlar haqidagi bilimlarini boyitish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarning tabiatga muhabbat ruxida tarbiyalash. Tabiatni sevish bilan birga uni asrash, gullab - yashnashi uchun hissa qo‘shishga yo‘llash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ongli, ifodali o‘qish malakasini rivojlantirish, nutqiy boyligini oshirish va ijodiy tafakkur salohiyatini o‘stirish.

Tayanch kompetensiyalar:

TK2: Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan eshittirishlarni tinglab tushuna oladi va gapirib bera oladi;

mavzu doirasida ko‘rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildira oladi;

o‘z yoshiga mos kitoblarni, gazeta va jurnallarni tanlay oladi, kutubxonadan foydalana oladi.

Fanga oid kompetensiyalar:

FK1: she'ning audio matnini tinglab tushuna olish va ongli, ifodali to‘g‘ri o‘qiy olish

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars metodlari: savol-javob, “O‘yin-topishmoq”, suhbat, “Qofiyasini toping” mashqi, “Mantiqiy zanjir” usuli.

Dars jihozi: darslik, “Bahor fasli “tasvirlangan ko‘rgazmali rasmlar va tarqatmali materiallar, videolavhalar, „Rag‘bat“ kartochkalari.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism

a) Salomlashish:

b) Navbatchining hisoboti tinglanadi, o‘quvchilar davomati aniqlanadi.

d) O‘quvchilar to‘rt guruhga bo‘linadi va guruhlar nomlari e‘lon qilinadi.

1-guruh – “Boychechak”. 2-guruh – “Lolaqizg‘aldoq”.

3-guruh – “Binafsha”. 4-guruh – “Nastarin”.

O‘qituvchi: Qani o‘quvchilar, manashu gullar haqida nimalarni bilasiz?

1- guruh: Boychechak – jajjigina, nafis gul bo‘lib, uni bahor elchisi ham deyishadi.

2-guruh: Lolaqizg‘aldoq –rang-barang bo‘lib ochiladi, qir-adirlarda alvon gilamdek jilovlanadi.

3-guruh: Binafsha – bahor gullarining eng go‘zal guli, u kamalak rangida ham aks etgan.

4-guruh: Nastarin guli – to‘p-to‘p bo‘lib ochiladi. Uning isi ancha olisdan ham kishiga zavq bag‘ishlaydi.

Shunday qilib “Boychechak” guruhi o‘quvchilari muhim sanalarni eslab o‘tishadi. “Lolaqizg‘aldoq” guruhi o‘quvchilari davlatimizda chiqarilgan qarorlarga qisqacha to‘xtalib o‘tishadi.

“Binafsha” guruhi o‘quvchilari o‘zbek xalq maqollaridan aytishadi.

“Nastarin” guruhi o‘quvchilari esa bahor fasli haqida she‘rlar aytishadi.

I. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Har bir guruh o‘quvchilari tanlangan rasm asosida matn tuzishadi. Mazmunli matn tuza olgan guruh o‘quvchilari rag‘bantiriladi.

II. Yangi mavzuni tushuntirish “O‘yin-topishmoq” o‘yini.

Bu o‘yinda yangi mavzu nomini ta‘riflab she‘riy topishmoq aytiladi. She‘rni tinglagan o‘quvchilar topishmoq javobini topadilar.

1- variant: Ko‘k yuzida bulutlar Erkanib suzarlar. Go‘yo ikki chaqmoq tosh, Tevarakni buzarlilar.

2- variant: Bodom shoshib gullaydi, Qishdan ertak so‘ylaydi. Oppoq kuylagin yoyib, Viqor bilan kuylaydi.

3- variant: Yomg‘ir yo‘g‘ar tomchilab, Gul yuzini chimchilab. Yomg‘ir yog‘ ar tomchilab, Yer bag‘rini qamchilab.

4- variant: Doshqozonda sumalak, Aylanasi kamalak.

Fasllar kelinchagin Nomin topishing kerak.

O‘quvchilar: Bahor!

O‘qituvchi: Balli, bolajonlar! Bugun biz sizlar bilan Quدرات Hikmatning “Bahor” she’ri bilan tanishamiz. (Shoir haqida ma’lumot beriladi.)

She’r matnini texnik vosita orqali ifodali tarzda o‘qib beriladi. O‘quvchilar kuzatib boradilar.

Bahor

Quدرات Hikmat she’ri

Uchib yurar mayin shamollar Yelpib-yelpib anhor yuzini.

Qirg‘oqlarda soyabon tollar Oyna suvda ko‘rar o‘zini.

Tong yellari o‘ynoqlab sekin, Jiydazorga kirib yo‘qolar.

Maysa o‘tlar tebranib sekin, Orqasidan kuzatib qolar.

Chumchuqlarning og‘zida cho‘p-xas, In qo‘yishar tutlar ustiga.

Ko‘kni quchgan teraklar tinmas, Oro berar kulrang po‘stiga, Bedapoya yam-yashil o‘tloq, Chinorlarda qushlar chug‘urlar.

Ko‘klam ko‘rkin ko‘rdingmi, o‘rtoq, Chamanzordek hammayoq gullar.

Notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

Lug‘at ishi:

tong yellari – ertalabki yengil shabada

ko‘kni quchgan – baland o‘sgan oro berar – zeb berar

ko‘rkin – go‘zalligin

“Qofiyasini toping” mashqi o‘tkaziladi. Bunda har bir guruhga she’rni bir banddan bo‘lib beriladi. Guruhlar she’r misralaridagi qofiyadosh so‘zlarni

topadilar. Qaysi guruh oldin topsa o‘sha guruh rag‘batlantiriladi.

Qofiyadosh so‘zlar:

yuzini – o‘zini

yo‘qolar – qolar ustiga – po‘stiga o‘tloq – o‘rtoq

O‘quvchilar she’rni ifodali o‘qib beradilar. (She’rni ifodali o‘qigan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash darslik bilan ishlash:

Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Mantiqiy zanjir” usulidan foydalaniladi. Bunda o‘qituvchi darsdan oldin she’rni qog‘ozga tushirib, uning satrlarini qirqib tarqatmalar tayyorlaydi. Har bir guruh o‘quvchilari qismlarga ajratilgan she’r matni bo‘laklaridan bir butun she’r hosil qiladilar. Bu mashqni birinchi bo‘lib bajargan guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.

Mustahkamlovchi toshiriq:

Bahor tabiatini “mayin shamollar”, “soyabon tollar”, “tong yellari”, “o‘tlar tebranib”, “ko‘kni quchgan teraklar” iboralaridan foydalanib, qayta hikoya qiling.

Bahor tabiatini yuqoridagi iboralardan foydalanib mazmunli hikoya qilib bera olgan guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi.

V. Darsni yakunlash va baholash.

O‘quvchilarning yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

–Bahor fasli haqida qanday ma’lumotlarni bilib oldingiz? O‘quvchilar javoblari umumlashtirilib, dars xulosalanadi.

O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Ballar guruh bo‘yicha yig‘ilgan rag‘bat kartochkalari soniga ko‘ra aniqlanadi.

VI. Uyga vazifa berish,

O‘quvchilarga she’rni yoddan ifodali o‘qish uyga vazifa qilib beriladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Liroepik asarlarning asosiy xususiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Lirik va epik asarlar orasidagi farq nimada?
3. Liroepik asarlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?
4. Boshlang‘ich sinflarda liroepik asarlarni o‘qitishda qaysi metodlar samaraliroq hisoblanadi?
5. Liroepik asarlarda obraz va his-tuyg‘ular qanday ifodalanadi?

6. Ifodali o'qish liroepik asarlarni o'rganishda nima uchun muhim?
7. O'quvchilarni liroepik asar mazmunini anglashga qanday savollar yordam beradi?
8. O'qilgan liroepik asardan (masalan, she'riy hikoya) qisqa reja tuzing.
9. Asardagi asosiy qahramon va uning his-tuyg'ularini tasvirlab yozing.
10. O'quvchilarga qiziqarli bo'lgan 5 ta yangi so'z yoki iborani topib, ma'nosini izohlang.
11. O'qilgan liroepik asar mazmunini 6–7 gapda qayta hikoya qilib bering.
12. Asardan parchani ifodali o'qishga tayyorlaning.
13. Liroepik asar mazmuniga mos rasm chizing yoki grafik sxema tuzing.
14. Asardagi qahramon his-tuyg'ularini hozirgi zamon o'quvchisi hayoti bilan bog'lab yozing.
15. O'quvchilar uchun 3 ta savol tuzing: biri mazmuniy, biri g'oyaviy, biri esa obrazlarga oid bo'lsin.

Testlar

1. Liroepik asarlarning asosiy xususiyati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - A) Faqat voqealar bayon qilinadi
 - B) Qahramonlar hayoti lirik his-tuyg'ular bilan uyg'un tasvirlanadi
 - C) Asar faqat lirik she'r shaklida bo'ladi
 - D) Faqat syujetli hikoya sifatida yoziladi
2. Liroepik asarlarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
 - A) Faqat yodlashni osonlashtiradi
 - B) O'quvchilarni xotira mashqlariga o'rgatadi
 - C) O'quvchilarda his-tuyg'ularni tarbiyalaydi, estetik didni rivojlantiradi
 - D) O'quvchilarning tez yozishini rivojlantiradi
3. Boshlang'ich sinflarda liroepik asarlarni o'qitishda asosiy metodlardan biri qaysi?
 - A) Eksperiment o'tkazish
 - B) Ifodali o'qish va suhbat

C) Faqat matnni yod olish

D) Rasm chizish orqali izohlash

4. Liroepik asarlarda qahramonning qaysi jihatlari ko‘proq yoritiladi?

A) Faqat tashqi ko‘rinishi

B) Faqat ismlari

C) Ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari va ruhiy holati

D) Ularning ijtimoiy mavqei

5. O‘quvchilarda liroepik asarlarni o‘zlashtirishni yengillashtirish uchun qanday topshiriqlar foydalidir?

A) Matnni yodlab aytish

B) Reja tuzish, ifodali o‘qish va qayta hikoyalash

C) Faqat muallif haqida ma’lumot yozish

D) Asarni qisqartirib qayta yozish

6. Ifodali o‘qishning liroepik asarlar ustida ishlashdagi ahamiyati nimada?

A) O‘quvchilar tez o‘qishni o‘rganadilar

B) Asarning hissiy ohangini va g‘oyasini to‘liq anglashga yordam beradi

C) Matnni qisqartirish imkonini beradi

D) O‘quvchilar faqat yod olishni mashq qiladilar

7. Liroepik asarlarni tahlil qilishda qanday savollardan foydalanish maqsadga muvofiq?

A) Faqat syujetga oid savollar

B) Qahramonlar ismlarini eslab qolishga oid savollar

C) Qahramonlarning his-tuyg‘ulari, voqealarning g‘oyaviy mazmunini anglashga qaratilgan savollar

D) Faqat muallif hayotiga oid savollar

III-BOB. BOSHLANG‘ICH SINFDAN XALQ OG‘ZAKI IJODI USTIDA ISHLASH METODIKASI

Tayanch so‘zlar: afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo‘shiq, , boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, xalq og‘zaki ijodi, janrlar, tez aytish, nutq,

usul, tovush, talaffuz, mashq, nutq, nutq o‘stirish, xalq og‘zaki ijodi, kompetentlik, nutqiy kompetentlik.

3.1 Doston, topishmoq, tez aytish, maqol, xalq qo‘shiqlari janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladigan ko‘plab asarlar xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lib, ular orasida ertaklar alohida o‘rin tutadi. Chunki ertaklar bolalar hayotiga erta yoshdan boshlab – bog‘cha davridan ta‘lim olish jarayonigacha – hamroh bo‘ladigan janrlardan biridir. Ertaklarda bolalar uchun ibrat bo‘luvchi, ularning qiziqishini uyg‘otadigan voqea va hodisalar tasvirlanadi. Maktab davriga kelib esa o‘quvchilar ertak, topishmoq, maqol kabi xalq og‘zaki ijodiy namunalari bilan yanada kengroq va chuqurroq tanishadilar.

Xalq og‘zaki ijodi insoniyat tarixi bilan barobar ravishda shakllanib, rivojlanib va boyib borgan. Og‘zaki tarzda yaratilgan hamda og‘zaki yo‘l bilan avloddan-avlodga o‘tib kelgan, xalq shoirlari yoki jamoaning ijod mahsuli bo‘lgan bunday badiiy asarlar bugungi kunda "xalq og‘zaki ijodi" yoki ilmiy atama bilan aytganda "folklor" deb yuritiladi. "Folklor" atamasi ilk bor 1846-yilda ingliz olimi Vilyam Toms tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, ingliz tilidagi "folk" — "xalq" va "lore" — "donolik" so‘zlaridan iborat bo‘lib, "xalq donoligi" degan ma‘noni anglatadi.

Xalq og‘zaki ijodi har bir xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda vujudga keladi. Shu bois, unda xalqning orzu-umidlari, tasavvurlari, hayotiy tajribalari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Mazkur ijodiy meros o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi va turli turlarga hamda janrlarga bo‘linadi. Bu esa ularni tizimli ravishda o‘rganish va o‘zlashtirish imkonini beradi. Masalan, ertaklar, qo‘shiqlar, maqollar, topishmoqlar, latifalar va boshqa shu kabi janrlar mavjud. Bularni tartibga solish, to‘g‘ri tasniflash maqsadida xalq og‘zaki ijodinin tur va janrlari o‘zaro ajratilib o‘rganiladi.

Xalq og‘zaki ijodi tur va janrlarini jadvalga solib tushuntirishga harakat qildik.

Epik tur	Marosim qo‘shiqlari	Dramatik tur	Maxsus tur
Afsona	Bolalar folklori	Og‘zaki drama	Maqol
	Ashula	Qo‘g‘irchoq o‘yini	Matal
Rivoyat	askiya	Topishmoq	
Ertak	Xalq tetrlari		
Naql			
Latifa			

3.2 Doston o‘qitish metodikasi.

Doston xalq og‘zaki ijodining eng yirik va keng tarqalgan janrlaridan biridir. “Doston” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “qissa”, “hikoya”, “ta’rif” va “maqto‘v” ma’nolarini bildiradi. Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o‘tgan murakkab voqealar she’r va nasr usullarini o‘zida mujassam etgan yirik hajmli epik asarlar sifatida xalq dostonlari shakllangan. Ularning muallifi ko‘pincha noma’lum bo‘lib, bunday dostonlar xalq orasida avloddan-avlodga og‘zaki tarzda yetkazib kelinadi.

Mamlakatimizda dostonchilik san’ati qadimdan rivojlangan bo‘lib, barcha viloyatlarimizda o‘ziga xos dostonchilik maktablari mavjud. Xalq dostonlari odatda baxshilar tomonidan do‘mbira jo‘rligida jonli tarzda ijro etiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, XIX–XX asrlar dostonchilik san’atining yuksalgan davri hisoblanadi. Folklorshunoslar tomonidan shu vaqtga qadar 150 dan ortiq xalq dostonlari yozib olingan bo‘lib, ularning eng mashhurlari “Go‘ro‘g‘li turkumi”ga mansub dostonlardir: “Alpomish”, “Ravshan”, “Malikai ayyor” va boshqalar.

Xalq dostonlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

Tarixiy dostonlar – bu turdagi dostonlarda tarixiy voqea-hodisa yoki tarixiy shaxslarning hayoti aks ettiriladi. Masalan, “Shayboniyxon”, “Edega”.

Jangnoma dostonlar – tarixiy urushlar, jang-u jadallar haqida soʻzlaydigan dostonlardir. Masalan, “Xoldorxon”.

Ishqiy-sarguzasht dostonlar – ishqiy munosabatlar va sarguzashtlarni uygʻunlashtirgan dostonlar. Misol uchun, “Rustamxon”, “Kuntugʻmish”, “Malikai ayyor”.

Qahramonlik dostonlari – urugʻchilik munosabatlari va xalqning koʻchmanchi hayoti haqida soʻzlaydi. Masalan, “Alpomish”, “Yodgor”.

Kitobiy dostonlar – yozma adabiyot taʼsiri ostida yaratilgan dostonlardir. Masalan, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”.

Albatta, xalq dostonlari bilan yozma adabiyotdagi dostonlar voqea-tasniflari jihatidan tubdan farq qiladi. Xalq dostonlarida koʻpincha fantastik tasvirlar va aqlga sigʻmas darajadagi boʻrttirishlar mavjud boʻlib, ular asarga oʻziga xos taʼsir kuchini beradi.

Dostonlar hajmi katta, unda koʻplab voqealar tasvirlanganligi sababli, ularni oʻrganish va tahlil qilish uchun maxsus tayyorgarlik talab etiladi. Doston qahramonlari va voqealar ketma-ketligiga eʼtibor qaratish juda muhimdir, chunki bu oʻquvchilarning xotirasida voqealarning toʻgʻri va aniq saqlanishini taʼminlaydi.

Dostonni oʻqitish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Avvalo, doston haqida nazariy maʼlumot berilib, oʻquvchilarga dostonning ertak yoki oddiy hikoyadan farqini tushuntirish.

Oʻqituvchi oʻrganiladigan doston haqida qisqacha maʼlumot beradi va doston hamda uning qahramonlari haqidagi dastlabki tasavvurni shakllantiradi.

Doston ifodali oʻqiladi yoki audio shaklda oʻquvchilarga eshittiriladi.

Doston yuzasidan suhbat oʻtkazilib, “Doston nima haqida?”, “Dostonda qanday qahramonlar bor?” kabi savollar orqali oʻquvchilarning tushunchalari rivojlantiriladi.

Doston matnida uchraydigan notanish soʻzlarning maʼnolari tahlil qilinib tushuntiriladi.

Doston qismlarga boʻlinib, oʻquvchilar tomonidan oʻqiladi.

Dostonni qayta hikoya qilish uchun turli usullardan foydalaniladi; masalan, doston rollarga bo‘linib o‘qilishi va sahnalashtirilishi mumkin.

Doston bo‘yicha ijodiy ishlarga vaqt ajratilib, o‘quvchilarga o‘zlariga yoqqan qahramonning rasm chizish topshirig‘i beriladi.

3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida doston haqida yoshga mos tarzda qisqacha nazariy ma’lumot berilgan va yozma adabiyotga oid Hamid Olimjon tomonidan yozilgan “Oygul bilan Baxtiyor” dostonidan parcha keltirilgan. Bunday dostonlar xalq dostonlaridan farqli ravishda muallifi haqida alohida ma’lumot berilishi bilan ajralib turadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi va xotirasini rivojlantirish pedagogik jarayonlarning eng muhim jihatlaridan biridir. “O‘qish savodxonligi” darsligi nafaqat o‘qish texnikasini o‘rgatish, balki bolalarda tahliliy fikrlash, nutqni rivojlantirish hamda eslab qolish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu darslik tarkibida joy olgan topishmoqlar esa xotirani mustahkamlash vositasi sifatida samarali qo‘llanilishi mumkin.

Topishmoqlar mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, e’tibor markazida bo‘lishga o‘rgatadi, tasavvur qilish va tezkor xulosa chiqarish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xotirasini mustahkamlashda topishmoqlardan foydalanishning metodik jihatlari alohida e’tiborga loyiqdir.

Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, bolaning aqliy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vositadir. Ularning ta’lim jarayonidagi asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Xotirani faollashtirish – o‘quvchilar topishmoq matnini eslab qolishga harakat qiladi, bu esa ularning eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish – har bir topishmoq ichida yashiringan ma’no o‘quvchilarni tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritishga o‘rgatadi.

Til boyligini oshirish – topishmoqlar yangi so‘zlarni o‘rganish va ularni mustahkamlashga yordam beradi.

Ijodiy fikrlashni shakllantirish – o‘quvchilar o‘zlari ham yangi topishmoqlar yaratishga intiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yangi ma’lumotlarni eslab qolishda muammolar uchrab turadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun xotirani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Shu nuqtai nazardan, topishmoqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun eng mos va samarali usullardan biri hisoblanadi.

Topishmoqlar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini faollashtirib, eslab qolish qobiliyatini oshiradi hamda mustaqil fikrlashga undaydi. Shu bilan birga, ular obrazli tafakkur va nutqiy kompetensiyani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Topishmoqlar yordamida o‘quvchilar yangi bilimlarni qiziqarli va tushunarli tarzda egallaydilar.

Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xotirasini rivojlantirishda topishmoqlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Ularni dars jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning eshitish, ko‘rish va assotsiativ xotirasi mustahkamlanadi, natijada ta’lim samaradorligi oshadi.

2. “Tez fikrla” o‘yini. Mazmuni: Bu o‘yin tezkorlik va aniqlikni talab qiladi. O‘qituvchi topishmoq o‘qiydi, o‘quvchilaresa belgilangan vaqt ichida javob berishlari kerak. Qoidalari:

1. O‘qituvchi sinfga biror topishmoq o‘qiydi.

2. O‘quvchilar 5-10 soniya ichida javob berishlari kerak.

3. Kim birinchi to‘g‘ri javob bersa, unga ball beriladi.

4. Eng ko‘p ball yig‘gan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Foydasi: - O‘quvchilar tez fikrlashni o‘rganadilar. - Eshitib tushunish qobiliyati rivojlanadi. - Xotira mustahkamlanadi. - Musobaqa muhiti o‘quvchilarning ishtirokini yanada faol qiladi.

3. “Sahnalashtirish” o‘yini. Mazmuni: O‘quvchilar topishmoqlarning javobini faqat so‘z bilan emas, balki harakatlar orqali ifodalaydilar. Qoidalari:

1. O‘qituvchi yoki bir o‘quvchi topishmoq aytadi.

2. Boshqa o‘quvchi topishmoqning javobini so‘zsiz, faqat harakatlar bilan tushuntiradi.

3. Sinfdagilar esa uning nima ifodalayotganini topishga harakat qiladi.
4. To'g'ri topgan o'quvchi keyingi harakatni bajarishga o'tadi. Foydasi:

- O'quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanadi.
- Jamoaviy ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
- So'z boyligi va nutq rivojlanadi.

4. "Topishmoq izlash" topshirig'i

Mazmuni: O'quvchilarga darsdan so'ng uyga vazifa sifatida o'z oilalaridan yoki internet manbalaridan yangi topishmoqlar topib kelish topshiriladi. Qoidalari:

1. Har bir o'quvchi oilasi yoki internetdan topishmoqlar izlab keladi.
2. Sinfda o'quvchilar topgan topishmoqlarini aytadilar.
3. Sinfdagilar bu topishmoqlarning javobini topishga harakat qiladi.
4. Eng qiziqarli va murakkab topishmoq topgan o'quvchiga rag'bat beriladi.

Foydasi:

- O'quvchilar mustaqil izlanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.
 - Ota-onalar ham dars jarayoniga jalb qilinadi.
 - Yangi topishmoqlar orqali o'quvchilarning bilim doirasi kengayadi
- #### 5. "Yangi topishmoqlar tuzish" mashg'uloti

Mazmuni: O'quvchilarga yangi topishmoqlar tuzish va ularni sinfdoshlariga taqdim qilish vazifasi beriladi. Qoidalari:

1. O'quvchilar o'zlari topishmoqlar tuzadilar.
2. Sinfda bir-birlariga aytib, sinfdoshlarining javob topishini so'raydilar
3. Eng qiziqarli va mantiqan to'g'ri topishmoqlarni tuzgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Foydasi:

- O'quvchilarning ijodiy fikrlashi rivojlanadi. - Xotira va tasavvur kengayadi.

3.3 Tez aytishlarni o'rganish metodikasi. Tez aytishlarning fonetik ahamiyati.

Tez aytishlar – bu ma'lum bir so'z, so'z birikmasi yoki tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatadigan, tovushlarni bir-biridan aniq ajratishga yordam beradigan, xotirani mustahkamlovchi va nutqni rivojlantiruvchi samarali

vositlardan biridir. Shuningdek, ular o‘quvchilarning o‘qish sur‘atini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda ko‘plab tez aytishlar kiritilgan. Masalan, “Botir botmas botqoqqa”, “Qobil qozonda qovurdoq qovurdi”, “Bahodir bayroqni Botirga berdimi, Botir Bahodirga bayroqni berdimi?”, “Olim oldidagi oltita olmani oldi” kabi tez aytishlar bolalarning talaffuzini yaxshilashda katta yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va mavzularga mos keladigan, shuningdek tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan topishmoq, latifa va tez aytishlar tanlab kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Topishmoq, latifa va tez aytishlarni o‘rganish boshlang‘ich sinflarda dastlab har bir darsda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Alohida dars sifatida o‘rgatilganda esa, o‘qituvchilar turli metod va usullardan foydalanishlari mumkin. Bu usullar orqali o‘quvchilarning nutq madaniyati, mantiqiy tafakkuri va xotirasi yanada rivojlanadi.

Tez aytishlar talaffuz qobiliyatini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan samarali vositadir. Ular og‘zaki motorikani faollashtiradi, nutq reflekslarini rivojlantiradi, talaffuzdagi noaniqliklarni kamaytirishga yordam beradi va nutqning ravonligini oshiradi. Shu bilan birga, tez aytishlar o‘quvchilarning talaffuz madaniyatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik usullar. Tez aytishlarni samarali o‘rganish uchun bir qancha metodik usullardan foydalanish lozim:

Fonetika mashqlari: Tez aytishlarning har bir elementini alohida ajratib o‘rganish, tovushlarni aniq va ravon talaffuz qilishga e‘tibor qaratish.

Segmentatsiya: Murakkab tez aytishlarni kichik qismlarga bo‘lib, bosqichma-bosqich o‘rganish. Bu usul o‘quvchilarning talaffuzda chalkashmasligi va so‘zlarni to‘g‘ri aytishiga yordam beradi.

Ritmik va intonatsion mashqlar: Nutqning ritmi va intonatsiyasini oshirish orqali talaffuzni tabiiylashtirish va nutqning musiqiy ohangini rivojlantirish.

Ta‘lim jarayonida muntazam va tizimli ravishda o‘tkaziladigan mashqlar yordamida tez aytishlar o‘quvchilarning nutq mahoratini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bois, ularni darslarda keng qo'llash nutq madaniyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Xalq maqollari eslab qolishga juda qulay shaklga ega bo'lib, etnopedagogik vosita sifatida ularning ma'nosini yanada kuchaytiradi. Maqollar xotirada mustahkam joy oladi. So'z o'yinlari, so'zlarning turlicha ohanglari, qofiyadoshligi va ohangdorligi shunchalik jozibadorki, inson ularni oson eslab qoladi.

Shunday qilib, she'riyat donolik, tarbiya va uning natijasi — xulqni ifoda etish faoliyatining tajribasini asrash va targ'ib qilish vazifasini bajaradi. Maqollarning eng asosiy vazifasi tarbiyadir. Ular qadim zamonlardan buyon ta'lim vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Bir tomondan, maqollar ta'lim g'oyalarini ifodalaydi, ikkinchi tomondan esa tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ta'lim vazifasini ado etadi.

Maqollar xalq tasavvurlariga mos keluvchi tarbiya vositalari va uslublari haqida so'zlaydi. Shuningdek, shaxsning ijobiy yoki salbiy jihatlarini baholab, uning shakllanish maqsadlarini aniqlaydi, tarbiyalanishga undaydi va o'zining tarbiyachi sifatidagi qutlug' vazifalarini mensinmaydigan katta yoshdagi odamlarni tanqid qiladi.

Maqollarning eng keng tarqalgan shakli – o'g'itdir. Ta'lim nuqtai nazaridan o'g'itlar uch toifaga bo'linadi: bolalar va yoshlarni yaxshi xulqli, muloyim bo'lishga undovchi tanbehlar; katta yoshdagilarni munosib xulq-odobga o'rgatuvchi tanbehlar; va nihoyat, ta'lim natijalarini aks ettiruvchi, ta'lim maslahatlaridan iborat o'ziga xos nasihatlar. Bu shakl ayniqsa ta'lim tajribasini umumlashtirishning o'ziga xos yo'li hisoblanadi.

Maqollarda bolalarning tug'ilishi, xalq hayotidagi o'rni, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublari, rag'batlantirish va jazolash, o'qish mazmuni, mehnat va ahloq tarbiyasi, shuningdek, bolalarning ota-onalar fe'l-atvoridagi fazilatlarini meros qilib olishlari, atrof-muhit va jamoatchilik fikrlarining ta'siri kabi ta'limga oid ko'plab g'oyalar ifoda topgan.

Xalq bola tarbiyasida yomon yo'lga berilish mumkinligini ham to'g'ri his qilgan va ularni qayta tarbiyalash uchun qator usullarni tavsiya qiladi: "Buyumni suv bilan, insonni o'rgatish bilan tozalashadi." Shu bilan birga, buyuk shoir Rudakiy

ta'kidlaganidek: "Agar kim hayotdan ta'lim olmasa, unga hech bir muallim o'rgata olmaydi." Yoki "Tarbiyasizlikning davosi bor, axmoqlikning davosi yo'q", "Toptalgan o'tloqda ham gul unadi" kabi maqollar xalqning donolik va tarbiya haqidagi mulohazalarini ifodalaydi.

Maqollar – turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan, xalq donoligini ifoda etuvchi qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli va chuqur ma'noli iboralardir. Maqollar turli mavzularda bo'lib, hayotning turli jihatlarini o'zida aks ettiradi. Ko'p hollarda ular o'git va nasihat xarakteriga ega bo'ladi, masalan: "Yetti o'lchab, bir kes", "Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining" kabi.

Maqol xalq og'zaki ijodining eng qadimiy shakllaridan biri hisoblanadi. Unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari, ohangdosht tovushlar takrorlanadi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega so'z ustalari tomonidan yaratilgan o'lmas satrlar va hikmatli so'zlar ko'pincha xalq maqollariga o'xshash xususiyatga ega bo'ladi.

Ma'lumki, badiiy asar matni bilan ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni o'rganishda ham shu bosqichlarga e'tibor qaratish zarur. 1-2 sinflarda maqollarni o'rganishning birinchi bosqichi – savod o'rgatish davri bo'lib, unda maqollarni o'qish va o'rganishga tayyorlanish amalga oshiriladi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar maqollarni o'qiy boshlaydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuniga bog'liq bo'lib, ular matn g'oyasini o'quvchilarga lo'nda va aniq yetkazish uchun xizmat qiladi. Bu bosqichda o'quvchilardan maqollarni o'qish va ma'nosini tushunib izohlash so'raladi. O'qituvchi esa o'quvchilarning javoblarini to'ldirib, maqolning ma'nosini aniq va sodda misollar bilan tushuntirib beradi.

Maqollarni o'rgatish jarayoni o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab qiladi. Har bir darsga tayyorlanayotganda, asar mazmuni va unda ilgari surilgan g'oyaga mos maqollarni tanlab, ularga oid mashqlarni rejalashtirish zarur. Iloji boricha maqollar dars rejasiga kiritilib, ularni izohli lug'atlardan (masalan, Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovning "Hikmatnoma" – o'zbek maqollarining izohli lug'ati, Toshkent, 1990) foydalanib, ma'nosini oson va sodda tilda tushuntirish lozim.

Boshlang'ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o'qish, o'rganish va tahlil qilish asar to'liq o'qilib, uning mazmuni hamda yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyani to'liq tushunilgach amalga oshirilishi lozim. Chunki asarning mazmunini anglamsdan maqolning ma'nosini to'g'ri izohlash qiyin bo'ladi. Mualliflar ham ko'pincha maqol ma'nosini asardagi voqealar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladilar.

Xalq qo'shiqlari – bu bolalarga turli madaniyatlar, qadriyatlar va qarashlarni anglashda yordam beradigan, asrlar davomida sayqallangan, jonli og'zaki an'analar xazinasini sanaladi. Ular insoniyatning ruhiy olamiga, tuyg'ular dunyosiga, o'zgalarga nisbatan empatiya va tushunish hissini uyg'otishga xizmat qiladi. Bu asarlar orqali bolalar nafaqat estetik zavq oladilar, balki dunyoqarashlari kengayib, o'zlarini anglashga intiladilar.

Xalq og'zaki ijodiga, xususan, xalq qo'shiqlariga murojaat etish bolalarda tasavvur, fikrlash va ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Har bir qo'shiq yoki hikoya orqali ular insoniy tuyg'ular – quvonch, g'am, muhabbat, hasrat kabi holatlarni boshdan kechiradilar va shu orqali boshqalarning holatiga ham tushunish bilan yondashishni o'rganadilar.

Shuningdek, bu asarlar bolalarning shaxsiy barkamolligini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ular xalq ertaklari, dostonlar, afsona va qo'shiqlardan ilhom olib, o'z ichki dunyosini kashf etadi va o'zini turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday tutishni anglay boshlaydi.

Ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodiga asoslangan interfaol mashg'ulotlar, rolli o'yinlar va musiqiy chiqishlar orqali o'qituvchilar o'quvchilarning e'tiborini jalb qilishlari, ularni faol ishtirok etishga undashlari mumkin. Bu esa darslarni yanada jonli, esda qolarli va ma'rifiy jihatdan boy qiladi.

3.4 O'quvchilarning nutqini rivojlantirishda xalq o'g'zaki ijodining roli.

Nutq –inson hayotidagi eng oliy va murakkab ruhiy faoliyatlardan biridir. Uning mohiyati faqatgina so'zlash jarayoni yoki uning natijasi bilangina

chegaralanmaydi. Aslida, nutq inson tafakkurining, aqliy va ruhiy salohiyatining yorqin ifodasidir. U ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashish zaruratidan kelib chiqqan bo'lib, insoniyatning taraqqiyoti va madaniy rivojida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nutq insonning tashqi olamni anglashida, uni idrok etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Odam borliqdagi predmet va hodisalarni sezgi a'zolari orqali qabul qiladi, biroq aynan nutq orqali ularni umumlashtirib, fikran tahlil qilish va tushunish imkoniga ega bo'ladi.

So'z signalizatsiyasi – ya'ni nutq vositasi tufayli inson atrof-muhitdagi voqelikni nafaqat bevosita, balki bilvosita tarzda ham angelaydi. Bu esa fikr yuritish, bilimni uzatish, tajriba almashish, o'zaro muloqot qilish kabi murakkab jarayonlarning poydevorini tashkil etadi.

Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limni samarali tashkil etish nafaqat bolalarning til va nutq madaniyatini rivojlantiradi, balki ularning ma'naviy kamolotini ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining bebaho namunalari biri bo'lgan topishmoqlar bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, topishmoqlar – xalq donishmandligining ko'p asrlik durdonalari bo'lib, ular inson tafakkurini, idrokini, kuzatuvchanligini va poetik tasavvur qobiliyatini o'stiruvchi badiiy yaratmaqlardir. Ular bolalar uchun quvnoq o'yin yoki ma'naviy hordiq vositasi bo'libgina qolmay, balki ajdodlarimizning ruhiy olami, tarixiy ong va xotirasini anglashda ham muhim kalit vazifasini bajaradi.

Xalq og'zaki ijodiga, jumladan topishmoqlarga shunchaki ko'ngilxushlik sifatida qarash yuzaki yondashuvdir. Har bir topishmoq, har bir maqol o'zida millat tafakkuri, vijdoni, axloqiy qiyofasi va tarixiy xotirasini mujassam etadi. Bu asarlar orqali yosh avlod nafaqat fikrlashga, balki milliy o'zligiga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Maqollar va topishmoqlar – ikki turdagi janr xalq donishmandligining yuksak ifodasi sifatida inson tafakkurining shakllanishida beqiyos o'rin tutadi. Maqollar

insonni axloq va odobga chorlaydi, hayotiy saboqlar beradi. Topishmoqlar esa bolalarni mantiqiy fikrlashga, topqirlik va hozirjavoblikka undaydi, ularning tafakkurini chiniqtiradi.

Maqollar soʻzning ziynatidir. Xalqimiz bejiz “Soʻz koʻrki — maqol” deb aytmaydi. Maqollar fikrni taʼsirchan va loʻnda ifodalashda xizmat qiladi, ularni nutqimizda qoʻllash esa gapning ogʻirligini, taʼsir kuchini oshiradi. Ular nasihat va tarbiyaviy suhbatlarda oʻgit sifatida keltiriladi, shu bois ularni “otalar soʻzi” deb ataymiz. Bu nom bejiz tanlanmagan — har bir maqol avloddan avlodga oʻtib, asrlar davomida sayqal topgan, ezgulik va yaxshilikka yoʻnaltiruvchi bebaho maʼnaviy merosimiz sanaladi.

Maqollarning mazmuni aniqligi, fikrning loʻndaligi va iboratning silliqligi ularni rad etib boʻlmaydigan hayotiy haqiqat darajasiga koʻtaradi. Har bir maqolda hikmat, har bir topishmoqda fikrning sinovli yoʻli mujassamdir. Ana shu jihatlar bois ularni adabiy taʼlim jarayoniga singdirish nafaqat zarur, balki gʻoyat foydalidir.

Nutq oʻstirish — bu insonning fikrini aniq, loʻnda va ravon ifoda eta olishi, muloqotga samarali kirisha olishi uchun zarur boʻlgan asosiy koʻnikmalarni shakllantirish jarayonidir. Ushbu tushunchani ikki yoʻnalishda izohlash mumkin: agar eʼtibor markazida oʻquvchi tursa, nutq oʻstirish — bu tilni har tomonlama, yaʼni toʻgʻri talaffuz qilish, boy lugʻatga ega boʻlish, sintaktik qurilmani toʻgʻri qoʻllay olish va bogʻlanishli nutq hosil qilish koʻnikmalarini amaliy egallash demakdir. Biroq agar eʼtibor oʻqituvchiga qaratilsa, unda nutq oʻstirish — bu oʻquvchilarga tilni faol va ongli ravishda oʻzlashtirishga koʻmaklashuvchi metod va mashgʻulotlar tizimini tashkil etishdir.

Nutq faoliyatini samarali rivojlantirish uchun bir nechta zarur shartlar mavjud:

Talab va zarurat. Har qanday nutq faoliyatining boshlanishi uchun shaxsda soʻzlashga ehtiyoj — ichki turtki boʻlishi lozim. Oʻquvchining fikrini ogʻzaki yoki yozma shaklda ifodalash istagini uygʻotuvchi vaziyatlar yaratish — nutq oʻstirish metodikasining asosiy talabi hisoblanadi.

Mazmunli material. Har bir nutqning asosi bo‘lmish material boy, sermazmun va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lsa, ifodaning sifati ham shunga yarasha yuksak bo‘ladi.

Til vositalari bilan qurollantirish. Fikr faqat tinglovchi tushuna oladigan til vositalari — so‘zlar, iboralar, gaplar orqali ifodalangandagina maqsadga yetadi. Shuning uchun o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda ularni boy til vositalari bilan tanishtirish va ularni amaliy qo‘llashga o‘rgatish nihoyatda muhimdir.

Zamonaviy ta’lim modeli shaxsning erkin fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishini maqsad qiladi. Bunday inson o‘zining qadr-qimmatini anglashi, aniq hayotiy maqsadga ega bo‘lishi, mustahkam e’tiqod, kuchli irodaga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shunday shaxslar — ongli, ozod va hur fikrli insonlar — jamiyat taraqqiyotining ustun tayanchiga aylanishi mumkin.

Shu bois barcha ma’naviy-axloqiy fazilatlarining poydevori, ularning asosiy tushunchalari va ko‘nikmalari bolalikdan boshlab shakllantirilishi zarur. Bu poydevor mustahkam bo‘lishi uchun nutq, muloqot va munosabat madaniyatiga alohida e’tibor qaratish lozim. Aynan pedagog o‘quvchini nutqiy munosabatga kirisha oladigan, o‘z fikrini ishonch bilan ifoda eta oladigan, tinglovchiga hurmat bilan yondasha oladigan shaxs sifatida shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Xalq og‘zaki ijodi nima va uning yozma adabiyotdan farqi nimada?
2. Xalq og‘zaki ijodining qaysi janrlarini bilasiz? Ularning o‘ziga xos jihatlarini ayting.
3. Nega xalq og‘zaki ijodi “tarixiy va abadiy” deb ataladi?
4. Bir xalq maqolini tanlab, uning ma’nosini izohlang.
5. Mashhur ertaklardan birini qisqa qayta hikoya qilib bering.
6. Guruhda ishlash – 3 ta maqol yoki topishmoq ayting va ularning tarbiyaviy ahamiyatini izohlang.
7. Xalq qo‘shiqlaridan namunalar keltiring va ular qanday voqealar, tuyg‘ularni ifodalashini tushuntiring.

8. “Afandi latifalari”dan birini aytib berib, undagi kulgili vaziyatning sabog‘ini tushuntiring.

Testlar.

1. Xalq og‘zaki ijodi deganda nimani tushunasiz?
 - A) Adiblarning yozma asarlari
 - B) O‘qituvchi tuzgan matnlar
 - C) Avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan ijod namunalari
 - D) Zamonaviy hikoyalar
2. Quyidagilardan qaysi biri xalq og‘zaki ijodi janrlariga kirmaydi?
 - A) Doston
 - B) Maqol
 - C) Ertak
 - D) Roman
3. Xalq maqollari qanday xususiyatga ega?
 - A) Qisqa va lo‘nda bo‘ladi, tarbiyaviy ma’no beradi
 - B) Juda uzun bo‘ladi
 - C) Faqat kulgili voqealarni aytadi
 - D) Faqat tarixiy voqealarni bayon qiladi
4. Afandi latifalari asosan nima uchun yaratilgan?
 - A) Qo‘rqitish uchun
 - B) Kulgili voqealar orqali saboq berish uchun
 - C) Tarixiy voqealarni yozib olish uchun
 - D) Qo‘shiqlar yaratish uchun
5. Xalq dostonlarida odatda nima tasvirlanadi?
 - A) Qahramonlik, jasorat va tarixiy voqealar
 - B) Kulgili voqealar
 - C) O‘qituvchi hayoti
 - D) Zamonaviy texnologiyalar

IV-BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISH

Tayanch so‘zlar: Sinf, ko‘nikma, malaka, o‘quvchi, o‘quv dasturi, vazifa, kitob, inson, adabiyot, nashr, gazeta, jurnal, albom, xabar, kitob, kitobxonlik, maktabgacha ta‘lim, mutolaa madaniyati, nutq faolligi, kitob mutolaasi, vatanparvarlik, adabiy ta‘lim.

4.1 Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishning maqsadi va vazifalari.

Kitob va kitobxonga oid tadqiqotlarni o‘rganish kichik maktab o‘quvchilarining o‘quv faoliyatida kitobning murakkab va ko‘p qirrali hodisa ekanligini anglash imkonini beradi. Kitob tushunchasi o‘zining murakkabligidan kelib chiqib, hali ham yagona va qat‘iy ta‘rifga ega emas.

Mashhur fransuz yozuvchisi, adabiyotshunos va sotsiolog Robert Eskarpi ta‘kidlaganidek, barcha tirik mavjudotlar kabi, kitob ham qat‘iy chegaralarga sig‘maydi va unga aniq, barqaror ta‘rif berish hozircha imkonsizdir.

Kitobshunoslar “kitob” tushunchasini turlicha talqin qiladilar. Ularga ko‘ra, kitob quyidagi ma‘nolarga ega bo‘lishi mumkin:

Kitob — insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi va ommaviy axborot quroli;

Kitob — adabiyot asari, mualliflik ishi natijasi;

Kitob — nashriyot va poligrafiya faoliyati mahsuli;

Kitob — gazetalar, jurnallar, bukletlar, albomlardan farqli holda, alohida nashr shakli bo‘lib, betlarning ma‘lum konstruktiv tashkil topishi;

Kitob — yozma xabarni tashkil etish shakli.

Shu bois, kitob tushunchasini o‘quvchilarga tushunarli va to‘liq yetkazish uchun uning ko‘p qirraliligi, har tomonlama ko‘rib chiqilishi zarur.

Kitobxonni shakllantiruvchi pedagog uchun, shuningdek, mustaqil o‘qish san‘atini o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun kitobning asosiy ma‘nosi nihoyatda

muhimdir. Ushbu savolga javob izlashda biz kitobning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan berilgan ta'riflarga murojaat qilamiz.

Masalan, mashhur olim A. Gersen kitobni shunday ta'riflaydi: “Kitob – yozma ifodalangan va umumiy foydalanishga taqdim etilgan tajriba”. Bu ixcham ta'rifni biz tarixda va hozirgi zamonda ko'plab buyuk allomalar tomonidan berilgan boshqa ta'riflarda ham uchratamiz. Kitobni ular “suhbatdosh”, “ustoz”, “mash'ala”, “o'qituvchi”, “do'st”, “bebaho meros”, “inson orqali ko'rinadigan olam”, “xalqlar tarixi”, “o'tmish tajribasi”, “inson aqlining merosi”, “fikir kemasi”, “inson kashf etgan buyuk mo'jiza” kabi tushunchalar bilan tasvirlaydilar.

Bu tasavvurlar kichik yoshdan boshlab shakllanib, kitobni kashf etgan har bir insonda g'urur va hurmat hissini uyg'otadi. Kitob oldida turib, insoniyat tomonidan to'plangan tajribani saqlash va avlodlarga yetkazish vositasi sifatida unga alohida e'zoz bilan qarash yuzaga keladi.

Tarixiy tajriba va inson aqli orqali shakllangan bilimlar faqat kitoblarda emas, balki inson tomonidan yaratilgan har bir predmetda — qo'lbola qurollardan tortib, zamonaviy elektron hisoblash mashinalarigacha — o'z amaliy ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan kitob ham “fikrni amalga oshirish jarayoni” sifatida qaraladi.

Ammo kitobda ijtimoiy tajriba va individual fikr ikki bosqichda mujassam bo'ladi. Birinchi bosqich – qo'lyozma yaratilishi, ya'ni muallif o'z fikrini til va yozuv orqali keng jamoatchilik mulkiga aylantirish ehtiyoji tug'ilganda yuzaga keladi. Ikkinchi bosqich – muallif fikrini aniq, maqsadga muvofiq va o'quvchilarga qaratilgan yozma xabar shaklida yetkazish uchun maxsus nashr shaklida amalga oshiriladi.

Ammo “inson – kitob” tizimida biz uchun eng qiziqarli tomon kitobxon, xususan, boshlovchi – kichik maktab o'quvchisidir. Mustaqil o'qishda kitob so'z va belgi vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, kitobda berilgan topshiriqlar va fikrlarning o'ziga xos tizimini to'g'ri tushunish, matn obrazlarini anglash ham o'quvchining mustaqil o'qish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kitobxonlik — bu shunchaki sahifalarni varaqlash emas, bu qalbni boyitish, tafakkurni charog'on qilish, shaxsiyatni mukammallikka eltuvchi ulug' ne'matdir.

Kitob o‘qish — inson ruhining ovqatidir, tafakkurining suvi, ma’naviyatining mevasi. Kitobxonlik madaniyati esa — bu o‘qish jarayonidan tashqari, o‘zini anglash, atrofni idrok etish, o‘qiganlarini hayotga tatbiq etish, fikr va so‘z orqali ongni yuksaltirish san’atidir.

Bugungi zamon insoni uchun bu madaniyat — havodek zarur, chunki ma’rifatli jamiyat qurish — o‘qimishli, tafakkurli, intellektual shaxslarga tayanadi. Ayniqsa, bu masala yosh avlod tarbiyasi va ta’lim tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, qalbida kitobga mehr uyg‘ongan, fikrda yuksalgan yoshlar jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlaydi.

Kitobxonlik madaniyati — bu:

kitob tanlashdagi hushyorlik,

o‘qishga bo‘lgan ongli munosabat,

va o‘qilgan bilimni hayotiy tajribaga aylantira olish fazilatidir.

Bu madaniyat insonning ma’naviy-axloqiy, estetik, fikriy va intellektual olamini rivojlantirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlar hayotida u ta’lim jarayonining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, ular orqali inson o‘z ichki dunyosini kashf etadi, voqelikka teran nigoh bilan boqishni o‘rganadi.

Kitobxonlik — bu faqat o‘qish uchun emas, e’zozlash, undagi har bir satrni his qilish, o‘z fikrini go‘zal nutq va yozma matnlarda bayon etish san’atidir. Bu jarayon insonni mustaqil fikrlovchi, so‘z san’atini biluvchi, estetik didga ega, ongli shaxsga aylantiradi. Shu bois, kitob o‘qishning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini hech bir mezon bilan o‘lchab bo‘lmaydi. U insonni ichki ma’naviy olam bilan tanishtiradi, ruhini poklaydi, tafakkurini tarbiyalaydi. Barcha ijtimoiy taraqqiyotning ildizi — kitobxon ongidadir.

Kitobxonlik madaniyati – insonni zamon bilan hamnafas bo‘lishga, global tafakkurga ega bo‘lishga, tarixiy va madaniy merosni qadrlashga, tanqidiy va tahliliy fikrlashga o‘rgatadi. Demak, kitob — bu shunchaki matnlar to‘plami emas, balki hayot maktabi, fikr dunyosining kaliti, ma’naviyat minorasining poydevoridir.

Boshlang‘ich ta’lim sohasida yuz berayotgan zamonaviy o‘zgarishlar va o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish bevosita boshlang‘ich sinf o‘quvchisining

shaxsiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Olimlar va soha mutaxassislarining fikricha, shaxsiy rivojlanish zamonaviy axborot oqimini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lmas ekan, to‘liq amalga oshmaydi. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini, ya’ni kitobga bo‘lgan qiziqishni oshiradigan kompetensiyalarni shakllantirish boshlang‘ich ta’limni modernizatsiyalashning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishdagi asosiy maqsad – kitoblar olamida erkin va mustaqil yo‘l topa olishdir. Afsuski, hozirgi kunda axborot jamiyati talablariga va boshlang‘ich ta’lim dasturlariga qaraganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik kompetensiyasini shakllantirish uchun aniq, tizimli va qonun-qoidalarga asoslangan strategik boshqaruv tizimi mavjud emas. Shu sababli, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi hozirgi ta’lim tizimi uchun juda muhim va dolzarbdir. Bu muammoni hal etish maqsadida soha mutaxassislari va tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy izlanishlar olib borilayotgani esa quvonarli holatdir.

Bolani kitoblar olamida qanday yo‘l tutishni o‘rgatish g‘oyalari esa aslida XIX asrda paydo bo‘lgan. Bolalar uchun dastlabki kitobxonlik ko‘rsatkichlari ham aynan shunday davrda yuzaga kelgan. Masalan, 1853 va 1862-yillarda V.I. Vodovozov hamda F.G. Tollemlar tomonidan olib borilgan izlanishlar aynan shu yo‘nalishning ildizlari hisoblanadi. Keyinchalik, XX asrning 20-30-yillarida maktablarda kutubxona darslari shakllantirilishi boshlandi. Ushbu darslarning eng asosiy maqsadi kichik yoshdagi o‘quvchilarni kutubxona bilan tanishtirish, mustaqil kitob o‘qishning ahamiyati va uning kelajak uchun foydaliligini tushuntirishdan iborat edi. Shu bilan birga, kitobxonlik savodxonligini oshirish borasida ham uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, rus olimi V.A. Flerov tomonidan 1949 yilda kutubxona-bibliografik bilimlarni targ‘ib qilishga qaratilgan birinchi dasturlar yaratilib, turli yoshdagi kitobxonlar uchun kutubxona darslarini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar taqdim etildi.

Kitobxonlik madaniyati – kitobxonning o‘qiyotgan asarini to‘liq anglash, undan badiiy va estetik zavq olish, yozuvchining fikri va asar g‘oyasini chuqur

tushunish hamda baholay olish qobiliyatidir. Bundan tashqari, kitobxonlik madaniyati kitob va kutubxonadan to'g'ri foydalanishni, ma'lumotnoma va bibliografik vositalar yordamida o'zini qiziqtirgan yoki zarur bo'lgan kitoblarni topib olish va undan unumli foydalanishni o'rgatadi. Kitob tanlash, uni tez va samarali o'qish, o'qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya qilish hamda ularni ehtiyotkorlik bilan saqlash kitobxonlik madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi juda keng qamrovli bo'lib, asarni chuqur anglash va tushunish uchun kitobxonning ma'lum tayyorgarligi va saviyasini talab etadi. Bu madaniyat shunchaki varaqlash yoki kitobdan yuzaki foydalanishdan iborat emas, balki ijodiy o'qish — muallif bilan muloqot qilib, asarni tahlil qilgan holda o'rganishdir. Kitob inson hayotida bilim beruvchi, ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi va ayniqsa bolalarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Chunki o'qish va bilim olish inson hayotining ajralmas qismidir.

Bugungi kunda dunyo axborot to'loqinida yashamoqda. Har kuni yuzlab kitoblar, jurnallar, gazetalarning yangi sonlari nashr etiladi. Kino, teatr, radio, televizor kabi ko'plab axborot vositalari ham doimiy ravishda ma'lumot yetkazib turadi. Atrof-muhit ham katta axborot manbai hisoblanadi. Shu sababli inson o'ziga kerakli ma'lumotlarni ajratib olish, ulardan unumli foydalanish madaniyatiga ega bo'lishi zarur. Bu esa aynan mutolaa madaniyatining rivojlanganligiga bog'liqdir.

Mutolaa madaniyati — bu keng va murakkab tushuncha bo'lib, quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Kitobni to'g'ri tanlay olish;

Kitobni qanday o'qishni bilish;

O'qish jarayonida nimalarga e'tibor berish va esda saqlash kerakligini anglash;

Zarur ma'lumotlarni qayerdan va qanday vositalar yordamida topishni bilish;

Olingan bilim yoki xabarni to'g'ri yetkazish;

Kitobni qayta o'qish va kitobxonlik ko'nikmasini doimiy ravishda rivojlantirish;

Kutubxona kartotekalari va boshqa ma'lumotnomalar bilan ishlay bilish;

Kitobni tez yoki sekin o'qishni farqlay olish;

Kitobning betakror, fusunkor olamiga kirib borish;

Mustaqil o'qiy bilish va o'z fikrini shakllantirish.

Shunday qilib, kitobxonlik madaniyati - o'quvchining bilimga bo'lgan ishtiyoqi va qobiliyatini rivojlantirishda, uning o'z-o'zini tarbiyalashida, shuningdek, ma'naviy va intellektual kamolotida muhim o'rin tutadi.

Kitob mutolaasi madaniyatiga nafaqat kitob xarid qilish va kutubxonani muntazam ravishda boyitib borish, balki kitobni saqlash odobi, o'qish jarayoni, shuningdek, o'qilgan bilimlarni hayotga tatbiq eta bilish kabi jihatlar ham kiradi.

Darhaqiqat, kitob o'qish san'ati nihoyatda murakkab, rang-barang, shuningdek, maroqli va lazzatli san'atdir. Shu bois ham har bir kitobxonda o'qish madaniyati shakllangan va rivoj topgan deyish qiyin. Ba'zi masalalarda Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish butun boshlang'ich ta'lim tizimining muhim elementlaridan biri sifatida qaraladi. Shu bois, maktablardagi kutubxonalar faoliyati o'quvchilarning bibliografik apparatlar va kitob fondidan samarali foydalanishini o'rgatishga qaratilgan. Bu tizim o'quvchilarning qiziqishlarini qondirish, ular bilan muloqot qilish, faoliyat motivlarini shakllantirish, o'qitish mazmuni, usullari va shakllarini o'z ichiga olgan holda boshlang'ich sinfdanoq kitobga mehr uyg'otish, uni keyinchalik kitobxonlik madaniyati va ko'nikmasi sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun quyidagi uslubiy shartlarga rioya etilishi zarur:

Maxsus kitobxonlik darslarida yangi bilimlarni kiritish, ularni mustahkamlash va boshqa fan darslarida, mustaqil o'qishda hamda bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;

O'quv va kognitiv faoliyat jarayonida adabiyotlarni izlash vazifalarini tizimli ravishda qo'llash;

Kitob olamida sayohat qilishni o'rgatishda ko'ngilochar, xususan o'yin shakllaridan foydalanish;

O‘yin motivatsiyasidan samarali va protsessual motivlarga, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish motivlariga bosqichma-bosqich o‘tishni ta‘minlash;

Sinfdan tashqari ishlarni umumiy kutubxona tizimiga kiritish, shuningdek, sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘rtasida uzviy aloqani mustahkamlash;

O‘quvchilar, o‘qituvchilar, kutubxonachilar va ota-onalarning hamkorligini kengaytirish va muvofiqlashtirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun turli usullar qo‘llanilishi samarali bo‘ladi. Masalan, uslubiy va psixologik manbalarni nazariy tahlil qilish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish, o‘qitish va nazorat tajribalarini o‘rganish, o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish hamda ularning faoliyatini pedagogik kuzatish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishni uslubiy jihatdan tizimli yondashuv asosida tashkil etish muhimdir. Bu borada o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ularning motivlari va qiziqishlarini chuqur o‘rganish, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini aynan boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirish zarur.

Gyote aytganidek, o‘qishni bir umr o‘rganish zarur. Har bir insonning o‘ziga xos o‘qish uslubi bor. Biroq, umrini kitob o‘qishga bag‘ishlagan donolarning hayotiy tajribasi, mutaxassislar va kitobxonlar bilan bo‘lgan muloqotlar, shuningdek tibbiyot olamining maslahatlaridan kelib chiqib, ayrim mulohazalarni bildirish mumkin.

Avvalo, kitobni tartib bilan, rejali o‘qish muhimdir. Qo‘lga tushgan kitobni shunchaki varaqlab o‘qish hech qanday foyda bermaydi. Kitobni tanlab, aniq maqsad bilan o‘qish talab qilinadi. Bilimingizni oshirish, biror muammoni chuqur o‘rganish, ma‘naviy dunyoingizni boyitish uchun kitob mutolaasini o‘z oldingizga maqsad qilib qo‘ysangiz, unda mutolaa dasturini aniq belgilab, unga qat‘iy amal qilishingiz lozim. Ana shunday qoidalarga amal qilgan kishigina haqiqiy o‘qish madaniyatiga ega bo‘ladi.

Mutolaa madaniyati tarbiyasini avvalo oiladan boshlash kerak. Bolaga kitob bilan muomala qilish, kutubxonadan foydalanish, o‘qish san’ati, kitobxonlik va kitobsevarlik ko‘nikmalarini o‘rgatishda ota-onalarning o‘zi o‘qish madaniyatidan kamida ozmi-ko‘pmi xabardor bo‘lishlari shart. Agar oilada zarur adabiyotlar jamlangan kichik kutubxona mavjud bo‘lsa va ota-ona kutubxonachilik qoidalarini yaxshi bilsa, bunday muhitda o‘sayotgan bola yoshlikdan kitob mutolaasi madaniyatini egallaydi.

Bolalarda kitob o‘qish madaniyatini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ham katta roli bor. Ota-onalarga yaqindan yordam berish, kitobga mehr uyg‘otishda maktabgacha ta’lim muassasalarining faol ishtiroki ayni muddao bo‘ladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim dasturiga kitob o‘qish madaniyati mashg‘ulotlarini kiritish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday mashg‘ulotlarda kitob chop etish mutaxassislari, yirik olimlar, kitobsevarlar, yozuvchi va shoirlarning kitob o‘qish madaniyati haqidagi qiziqarli va mazmunli fikrlarini tinglash, shuningdek axborot-kutubxona faoliyati yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Xalqimizning tilida ham kitob o‘qib bilim olish, munosib ta’lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug‘ullanish va kasb-hunar o‘rganish ahamiyatiga oid ko‘plab maqollar bor. Masalan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Baxt belgisi – bilim”, “Bilim – aql chirog‘i”, “Go‘zallik – ilmu ma’rifatda”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol” kabi so‘zlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Ana shu xalqona hikmatlar ming yillar davomida avlodlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelgan. Ularning asosiy haqiqatlari shuki, insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli, baxtli va davlatli bo‘lishining muhim omili — bu kitobga do‘st bo‘lish, doimiy ravishda kitob o‘qish va umrbod mutolaani tark etmaslikdir.

Ayniqsa, bolalarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o‘rni bor.

4.2 To‘g‘ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma

Bugungi globallashuv va raqamli axborot oqimi davrida inson tafakkurining yuksalishi, ijtimoiy ongning shakllanishi va ma'naviy dunyoning boyishi uchun kitobxonlikning ahamiyati benihoya kattadir. Kitob – bu insoniyat tafakkurining yuksak cho'qqilarini mujassam etgan bebaho manba bo'lib, uni o'qish, anglash va undan saboq olish – har bir ongli shaxsning hayotiy zarurati bo'lishi lozim. Shu bois, to'g'ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish –nafaqat ta'lim tizimining, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun dolzarb vazifadir.

Kitob o'qish – bu shunchaki bilim olish emas, inson qalbini tarbiyalash, fikr dunyosini boyitish, ruhiy olamni sayqallash san'atidir. Har bir o'qilgan sahifa, har bir mushohada qilingan fikrga, qalbgga quyilgan ma'naviy nur, tafakkur ko'zgosida yarq etgan ziyodir. Mutolaa – insonni faqat fikrlashga emas, balki dunyoni chuqur anglashga, jamiyat va o'z mohiyatiga teran nigoh bilan qarashga o'rgatadi.

Shu bois, kitobxonlik – bu tafakkur mezoni, ma'naviyat o'lchovi, yurak va ongning uyg'unligida shakllanadigan muqaddas faoliyatdir. Uni yosh avlod qalbiga singdirish, unga to'g'ri yo'naltirish – millat kelajagini yuksaklik sari yetaklovchi muhim zamin bo'lib xizmat qiladi.

Kitob – shaxsiyatning ko'zgosu, yurak tarbiyasining eng nozik manbaidir. Olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mutolaa — shaxsning nutqiy va aqliy rivojida muhim omil sanaladi. Masalan, mashhur olimlar L.S. Vygotskiy va A.N. Leontevlar ta'kidlaganidek, o'quvchining fikrlash doirasi, nutq madaniyati, dunyoqarashi – u qanday asarlar bilan muloqotda bo'lishiga chambarchas bog'liq.

To'g'ri yo'naltirilgan kitobxonlik faoliyati — bu shunchaki kitob o'qish emas, mazmunni anglash, obrazlarni his etish, g'oyalarga tahliliy yondashish, va o'qilgan har bir satrni hayotiy tajriba bilan bog'lashdir. Kitobxonlik faoliyati ongli fikrning, mas'uliyatli o'quvchining, komil insonning poydevorini yaratadi.

Kitobxonlik – hayotga muhabbatning, bilimga chanqoqlikning timsolidir. U tasodifiy shakllanmaydi. Bu fazilat – izchil, puxta va muhabbatli mehnat evaziga paydo bo'ladi. Uni shakllantirishda esa quyidagi ustun omillar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Oiladagi kitobxonlik. Farzand qalbida kitobga bo'lgan mehrni, eng avvalo, ona bag'rida, ota so'zida his etadi. Oila a'zolari kitob o'qigan muhitda

ulgʻaygan bola uchun mutolaa nafaqat odat, balki ehtiyojga aylanadi. Maktab mutolaaning yoʻlchisi: Yaxshi adabiyot oʻqituvchisi – bu faqat dars oʻtuvchi emas, kitobga oshno qalblar tarbiyachisidir. Dars jarayonida badiiy matn bilan ishlash, obrazli tahlillar, muhokamalar – bularning barchasi kitobxonlik madaniyatini tomir otkazadi. Zamon bilan hamnafas texnologiyalar. Bugungi kunda elektron kutubxonalar, audiokitoblar, interaktiv ilovalar – bular kitobga olib boruvchi yangi koʻpriklardir. Ularni toʻgʻri yoʻnaltirish orqali yoshlar orasida kitobga boʻlgan qiziqishni uygʻotish mumkin.

Kitob oʻqigan insonning soʻzi jilali, mazmunli va taʼsirli boʻladi. Adabiy nutq tilning eng goʻzal qiyofasi, fikrning ziynati, qalbning ovozi. Kitobxonlik jarayoni nafaqat ongni oʻstiradi, balki nutqni sayqallaydi, soʻz tanlash madaniyatini shakllantiradi. Har bir asar qalb bilan suhbat, ruh bilan muloqot. Mutolaa orqali inson soʻzlar ortidagi ruhni koʻradi, his qiladi, ularni oʻz fikrida aks ettiradi. Adabiy nutq esa shu his va fikrlarning badiiy ifodasi sifatida shakllanadi.

Kitob inson tafakkurining mevasi, maʼnaviyatining zaminidir. Uni sevish oʻzligingni anglash, uni oʻqish hayotga chuqur nazar tashlashdir. Bugungi zamon talabi shuki, nafaqat koʻp oʻqish, balki toʻgʻri va ongli kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarur. Bu madaniyat esa nafaqat individual kamolot, balki butun jamiyat taraqqiyotining asosi sanaladi.

Kitob oʻqigan inson fikrlashga moyilligi ortadi. Mutolaa jarayonida insonning tafakkuri sayqal topadi, dunyoqarashi kengayadi, soʻz boyligi ortadi. Ayniqsa yoshlar uchun kitobxonlik ichki dunyoni boyituvchi, shaxsiy kamolotga yetaklovchi eng ishonchli yoʻldir. Ular oʻqigan har bir sahifa mustaqil fikrlashga, muammolarga oʻz yechimini topishga chorlovchi zamin boʻladi. Kitob insonni oʻz fikri bilan doʻst boʻlishga oʻrgatadi, qalbini uygʻotadi, ongini charogʻon qiladi.

Kitob nafaqat bilim ombori, balki ruhiy yuksalish, axloqiy tarbiyaning bebaho manbaidir. Badiiy asarlar, falsafiy oʻgitlar, klassik adabiyotlar inson qalbiga ezgulik urugʻini sochadi. Mutolaa orqali yoshlar doʻstlik va sadoqat, adolat va halollik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlar bilan tanishadi. Kitob axloq maktabi, qalb

tarbiyachisi. U nafaqat ongni, balki ruhni ham tarbiyalaydi, go‘zallikni anglashga, hayotga estetik nigoh bilan qarashga o‘rgatadi.

Ta‘lim jarayonida kitob o‘qituvchining do‘sti, o‘quvchining yo‘lboshchisidir. Har bir darsda, har bir mashg‘ulotda kitob bilimning, fikrning, izlanishning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda esa ustoz o‘rnak bo‘lishi zarur. U o‘quvchiga faqat kitob tanlab bermaydi, balki o‘qishni sevdira oladi, mazmunini anglatadi, hayot bilan bog‘laydi. Shu boisdan ham, har bir ustoz kitobga oshno qalblar tarbiyachisi bo‘lishi kerak.

Kitob faqat yolg‘iz o‘qish emas, balki birgalikda o‘rganish, fikr almashish, yurakdan suhbat qurish vositasidir. Kitobxonlik madaniyati jamoaviy tafakkurning, intellektual muloqotning poydevoridir. Fikr almashilgan, asarlar muhokama qilingan, o‘qiganlar o‘zaro baham ko‘rilgan muhitda insonlar o‘rtasida hurmat, do‘stlik va tushunish kuchayadi. Kitoblarni birga o‘qish, ularni muhokama qilish, asarlar haqida bahs yuritish, jamiyat madaniyatining yuksak belgilaridandir.

Zamon o‘zgardi o‘qish shakllari ham yangilandi. Endilikda yoshlarni mutolaaga jalb etish uchun raqamli texnologiyalar, elektron kitoblar, audio asarlar, hatto ijtimoiy tarmoqlardagi kitob klublaridan foydalanish mumkin. Bu imkoniyatlar orqali o‘qish jarayoni yanada jozibador, interaktiv va hayotiy bo‘ladi. Yoshlar o‘z tengdoshlari bilan birga o‘qiydi, fikr almashadi, o‘qish ular uchun trendga aylanadi. Bu esa kitobxonlikni zamonaviy sharoitda ommaviylashishiga xizmat qiladi.

Demak, kitobxonlik madaniyati nafaqat ma‘naviy boylik, balki ijtimoiy taraqqiyotning kalitidir. Intellektual rivoj, axloqiy kamol, jamoaviy fikrlash, o‘zini anglash va boshqalarni tushunish barchasi kitob bilan boshlanadi. Har bir kitob o‘qilganida inson o‘zini topadi, jamiyat esa yuksaladi. Kitob yurak ko‘zgusi, tafakkur charog‘i, insoniylik darajasidir. Uning madaniyatini shakllantirish esa har birimizning ijtimoiy va pedagogik burchimizdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mustaqil kitobxonlik nima va u boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qanday ahamiyatga ega?

2. O‘quvchilarda mustaqil kitobxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining vazifasi nimalardan iborat?
3. Kitobxonlik madaniyatining asosiy qoidalari nimalardan iborat?
4. O‘quvchilarga mos keladigan 3 ta badiiy asar nomini yozing va ularni nega tanlaganingizni izohlang.
5. Bir kitob o‘qiganingizdan keyin uning mazmunini qisqa reja asosida yozib bering.
6. “Kitob – bilim manbai” mavzusida kichik og‘zaki nutq tayyorlang.
7. Sevimli qahramoningiz haqida kichik hikoya yozib bering.
8. Sinfdoashingizga o‘qigan kitobingizni tavsiya qiling va sababini tushuntiring.

Testlar.

1. Mustaqil kitobxonlik deganda nima tushuniladi?
 - A) Faqat o‘qituvchi rahbarligida kitob o‘qish
 - B) O‘quvchining o‘z qiziqishi asosida mustaqil kitob o‘qishi
 - C) Televizor ko‘rish
 - D) Faqat darsliklarni o‘qish
2. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishda eng muhim omil qaysi?
 - A) Qiziqarli kitoblar tanlash
 - B) Telefon o‘yinlari
 - C) Mashg‘ulotlarni qisqartirish
 - D) Yozma topshiriqlarni kamaytirish
3. Kitobxonlik madaniyati nimalarni o‘z ichiga oladi?
 - A) Kitobni to‘g‘ri saqlash va undan oqilona foydalanish
 - B) Kitobni yodlash
 - C) Faqat rasmlarga qarash
 - D) Kitobni tezda tugatish
4. Mustaqil kitobxonlikning bolaga foydasi nimada?
 - A) Bilim doirasini kengaytiradi, nutqini o‘stiradi
 - B) Vaqtni behuda o‘tkazadi

- C) Kitob o‘rniga telefon ishlatishga undaydi
 - D) O‘qishni yoqtirmaslikka sabab bo‘ladi
5. O‘qituvchi mustaqil kitobxonlikni shakllantirishda nimalarga e‘tibor qaratishi kerak?
- A) O‘quvchilarga yoshiga mos, qiziqarli asarlar tanlash
 - B) Faqat qalin kitoblarni berish
 - C) Telefon orqali o‘qitish
 - D) Hech qanday yordam bermaslik

V-BOB. MUSTAQIL KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISH UCHUN KITOB TANLASH TAMOYILLARI.

Tayanch so‘zlar: Kitob, kitobxonlik, madaniyat, ta’lim, ertak, ma’naviyat, shaxs, dunyoqarash, ilmiy salohiyat, mutolaa madaniyati.

5.1 Boshlang‘ich maktabda kitobxon o‘quvchilarni shakllantirish bosqichlari.

Bugungi kunda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, ularni hayotga tayyorlash yo‘lida ta’lim-tarbiya tizimiga ulkan mas’uliyat yuklanmoqda. Shu yo‘lda eng asosiy qadriyatlardan biri kitobga muhabbat, o‘qishga mehr uyg‘otishdir. Ayniqsa, bu muqaddas jarayon bolaning hayotida ilk qadamlari qo‘yilayotgan davrda boshlang‘ich maktab bosqichida boshlanishi nihoyatda muhimdir. Chunki ana shu bosqichda tomir otgan kitobxonlik odati, o‘qishga bo‘lgan qiziqish, matnni tushunib, his etib o‘qish ko‘nikmalari keyinchalik inson shaxsining intellektual o‘sishi, tafakkuri va ma’naviy dunyosini shakllantiradi.

Avvalo, "yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash"⁴ muhim ahamiyatga ega.

Milliy va jahon adabiyotining eng sara asarlarini tarjima qilish, aholida mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlari hamda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish, kitob savdosini tashkil etish jarayonlarini soddalashtirish, yangi chop etilgan nashrlarni tezkor yetkazish va axborot manbalarini samarali tarqatish tizimini takomillashtirishni talab etmoqda.

Shunday islohotlar kitob tarqatish infratuzilmasini zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda rivojlantirish, axborot-kutubxona markazlarini bosma nashrlar va ularning elektron shakllari bilan muntazam to'ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, mavjud adabiyotlarni raqamlashtirish va elektron kataloglarni shakllantirib, doimiy yangilashni taqozo etadi.

Aholining kitobxonlik darajasi va kitobga bo'lgan qiziqishini muntazam tahlil qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni amalga oshirish, kutubxona xodimlarining kasbiy salohiyatini oshirish talabalar uchun qulayliklar yaratish zarurligini belgilaydi.

Xorijiy adabiyotlarga onlayn buyurtma berish imkoniyatlarini kengaytirish, ularni mamlakat hududiga olib kirish va tarqatish tizimini rivojlantirish, shuningdek kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish talabalar dunoyo qarashini yuksaltiradi.

Kitobxonlik madaniyati – faqatgina kitob o'qish yoki undan bilim olish jarayoni emas, balki insonning ma'naviy-axloqiy, estetik, intellektual va fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi muhim omildir. Hozirgi davr jamiyatida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu masala ta'lim jarayoni va yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganish zarur.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 781-son "2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" qarori, 14.12.2020 yil.

Kitobxonlik madaniyati kitobni to‘g‘ri tanlay bilish, uni ongli ravishda o‘qish, undan olingan bilimlarni hayotda qo‘llash va shu orqali o‘z bilim hamda madaniyat darajasini yuksaltirish jarayonidir. U yosh avlodning ta‘lim jarayonida beqiyos ahamiyat kasb etib, ularning dunyoqarashi, tafakkuri va shaxsiy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bunday madaniyat nafaqat o‘qish ko‘nikmalarini, balki kitobni qadrlash, undan to‘laqonli foydalanish, o‘z fikrini aniq va ravon bayon qilish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Kitob o‘qishning jamiyat hayotidagi o‘rni beqiyosdir. U insonning ma‘naviy dunyosini boyitish bilan birga, butun jamiyatning ilmiy, madaniy va axloqiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Kitobxonlik madaniyati shaxsni faqat bilim olishga emas, balki zamon o‘zgarishlariga moslashishga, tanqidiy fikrlashga, tarixiy va madaniy merosni qadrlashga ham o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflardan oq kitob bilan tanishgan bola o‘z tafakkuri, tasavvuri, nutqi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor qo‘yadi. Kitob uning do‘stiga aylanib, so‘z boyligini kengaytiradi, hayotga yangicha nigoh bilan qarashga undaydi. Har bir o‘qigan asari orqali u yaxshilik va yomonlikni farqlashni, ezgulik, adolat va insoniylik kabi qadriyatlarni anglab boradi. Demak, kitobxonlik madaniyati bola nafaqat bilimini, balki qalbini ham tarbiyalaydi.

O‘zbekiston Respublikasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Xususan, 2006-yil 20-iyuldagi Prezidentning “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta‘minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori, 2011-yil 13-apreldagi “Axborot-kutubxona to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 12-yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi Farmoyishi hamda 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha Kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori sohaga yangi bosqichda turtki bo‘ldi.

Mazkur qonun va qarorlarning amaliy ijrosi sifatida hududlarda axborot-resurs markazlari zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etildi, kitob savdosini yo'lga qo'yuvchi yangi do'konlar ochildi hamda aholiga ko'rsatilayotgan xizmat sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Kitobsevarlar o'rtasida muntazam o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlar respublika miqyosida keng ommalashdi, davlat rahbari tomonidan rag'batlantiruvchi mukofotlar belgilandi. Natijada yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi ortdi, nashriyotlarda badiiy asarlarni ko'p nusxada chop etish va ularni hududlarga yetkazish ishlari jadallashdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi vazifalarning asosiy qismi o'qish darsida amalga oshiriladi. Bolalar o'qish darslarida to'g'ri, tez, ongli o'qishga o'rgatiladi. Endi, badiiy asar o'qitish bosqichlariga to'xtalib o'taylik.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga mos keladigan ibratli hikoya yoki ertak tanlab olinadi. O'quvchilar bilan birgalikda badiiy asar to'g'ri, tez va ongli o'ib chiqiladi.

2. Asarning g'oyaviy asosi, mazmuni o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

3. Badiiy asar o'quvchilarning hayotiy tajribasi bilan umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi.

4. Sinfda o'qish o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi. Bolalar bu kabi jarayonda o'qish bilan birgalikda kitobdan to'g'ri foydalanish kerakligini ham o'rganib boradilar.

O'qituvchi bolalarga kitobni toza, ozoda tutish kerakligini, kitobni o'tirgan holatda yorug' xonalarda o'qish kerakligini ham tushuntirib boriladi. Bundan tashqari bolalarda kitobxonlikni tarkib toptirish uchun bolalarda mustaqil kitob mutolaa qilish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Sinfda o'qituvchi birorta badiiy kitobni belgilangan muddat ichida o'quvchilar o'qishi lozimligini aytib o'tadi. Kitobni o'qib tugatgan o'quvchini rag'batlantirishi aytib o'tiladi. Bunda bola kitobni uyda o'zi mustaqil ravishda o'qiydi, fikrlash doirasi kengayib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil uyda o'qishlari uchun kitob tanlayotganda, albatta, bolaning yoshini va qiziqishlarini hisobga olgan holda kitob tanlash lozim. Bola

o'ziga yoqqan asarni butun vujudi biulan o'qiydi, nafaqat o'qiydi, balki o'qigan badiiy asari haqida mustaqil fikr ham yurita boshlaydi.

5.2 Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish yuzasidan 1-4- sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Ma'lumki, kitobxonlik o'quvchilarning aql-zakovatini, yuksak ma'naviyatini, ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda, kitobga mehr-muhabbat hamda uni zaruriyatga aylantirishning ma'lum tizimdir. Bu tizim boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy, ma'naviy, axloqiy rivojlanishini ham ta'minlaydi, kitob o'qish ishtiyoqini hosil qiladi.

Har bir inson dastlabki tarbiyani, ya'ni ma'naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o'zini qanday tutishni o'rganadi. Ma'naviy ozuqa olishning, chin inson bo'lib yetishishning birdan-bir yo'li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog'liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma'naviy sarchashma arzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stirib, xotirasini mustahkamlaydi.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamrox, eng yaqin do'st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o'rni muhim. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish ko'nikma, malakalarini shakllantirish, uning metodik, pedagogik talablarini ishlab chiqish hozirgi kunning muhim talabdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi (2017- yil, 13- sentabr) Qarori, "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish

to'g'risida"gi Farmoyishi kitobxonlikni boshlang'ich sinfdanoq boshlash zaruratini yana bir bor isbotladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish – tegishli yosh davri o'quvchilari tomonidan kitob o'qish (to'g'ri, tezkor, ifodali va tushunib o'qish) hamda kitobxonlik (o'qish qoidalaridan xabardorligi, kitob (badiiy asar)ni tanlashi, kitob o'qishga odatlanishi va bu yo'lda harakatlarni izchil, doimiy tashkil etishi, kitob o'qishdan zavqlanishi, asar mazmunini tushunishi, kitob o'qishdan olgan taassurotlarini atrofdagilar bilan o'rtoqlashish ko'nikmalarining malakaga aylanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat jarayonidir. Bunday ishlarni amalga oshirishda boshlang'ich sinflarda tashkil qilinadigan kitobxonlar burchagining tashkil qilishning ahamiyati katta.

Bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini va undan foydalanishning eng oddiy malakalarini tarbiyalash maqsadida boshlang'ich sinflarda har bir sinfdada kitobxonlar burchagi tashkil etish mumkin. Kitobxonlar burchagi o'zining tashqi ko'rinishi bilan bolalarni o'ziga jalb qilishi kerak. Kitobxonlar burchagiga bolalar hayotidan, ertaklardan olingan rasmlardan osib qo'yish ham mumkin. Shoir va yozuvchilarning, masalan, Q.Muhammadiy, P.Mo'min, E.Vohidov, A.Oripov va boshqalarning portretlarini osib qo'yish mumkin. Bu adiblar bilan ularning yozgan asarlari haqida ularning kitoblarini bolalarga o'qib berayotgan vaqtda tanishtirib boradi. Har bir sinf uchun alohida kitoblar tanlanadi. Qo'shimcha adabiyotlar ham o'qituvchi tomonidan tanlanib, kitob javonida saqlanadi. 1-,2- sinfnig kitobxonlar burchagida 3-,4- sinf bolalari uchun mo'ljallangan kitoblar ham bo'lishi mumkin, xuddi shunday yuqori sinfnig kitob burchagida ham 1-,2- uchun mo'ljallangan kitoblar bo'lishi kerak. Kitobxonlar burchagida tashkil etilgan (javn) kitob mavzular bo'yicha qo'yilib, ular bir-biridan ko'rsatkich taxtacha bilan ajratib qo'yiladi, ya'ni ko'rsatkich taxtachaga kitob mavzusiga taalluqli rasm yopishtiriladi. Masalan, tabiat to'g'risidagi kitobni yoki ertak kitobni bola osonlik bilan topib olishi uchun tabiat manzarasi tasvirlangan yoki ertak mazmuniga taalluqli rasm yopishtirilgan taxtacha bilan bir-biridan ajratib qo'yiladi.

Kitobxonlar burchagida bir nomdagi kitobdan bir necha nusxadan (ikki, uchta) qo'yiladi, chunki bolalarining bir qanchasi bir vaqtda ko'rishni istaydi. Kitobxonlar burchagidagi kitoblarni vaqtivaqti bilan almashtirib turish kerak. Agar o'qituvchi kitobxonlar burchagidan qaysidir kitob onda-sonda olinayotganini ko'rsa, bu kitobni vaqtincha olib qo'yib, bir qancha vaqt o'tgach, yana kitob burchagiga qo'yishi kerak. Kitob uzoq saqlanishi, yirtilmasligi uchun bolalar kitob betini yaxshilab ko'rib bo'lishgach, u muqovalanib qo'yiladi. Kitobni shunday muqovalash kerakki, uning yuza qismi, undagi rasmlar ko'rinib tursin.

Kitobxonlar burchagida kitoblardan tashqari bolalarning o'zlari mustaqil ko'rishlari uchun albomlar ham bo'lishi kerak. Undagi rasmlarni o'quvchilar o'zlari asar qahramonlari asosida chizgan bo'lishi ham mumkin.

Hamma sinflardagi kitobxonlar burchaklarida har qaysisida 8-10ta rasm yoki fotosuratlar solingan bir necha papka (har bir guruhda 8- 10tadan) hamda bolalar chizgan rasmlar solingan bir necha papka bo'lishi kerak. Papkalarga undagi materiallarga tegishli illyustratsiyalar yoki manzaralar tasviri solib qo'yilgan bo'ladi. Bolalar rasmlarni ko'zdan kechirib bo'lganlaridan keyin ularni kerakli papkalarga joylashtiradilar. «Bizning O'zbekiston», «Toshkent – O'zbekistonning poytaxti», «Onalarimiz mehnati» «Bizning bayramlar», «Ertaklar olamida» va boshqa nomlardagi albom va papkalar bo'lishi mumkin.

O'qituvchi bolalar bilan birgalikda kitob yoki rasmni ko'radi va ularni qanday asrash kerakligini ko'rsatadi. Yirtilgan kitoblarni yamash kitob burchagining zaruriy ish shakllaridan bo'lib, dastlab o'qituvchining o'zi bolalar oldida kitobni yamaydi, keyinchalik o'quvchilarning o'zlari bu ishni mustaqil bajaradilar. O'qituvchi bolalarning kitob burchagida o'zlarini qanday tutishlarini, kitobga qanday munosabatda bo'layotganliklarini, bolalarning kitobdagi rasmlarni ko'rishga qanchalik e'tibor berayotganliklarini nazorat qilib, bolalar bilan yakka tarzda shug'ullanadi.

O'qituvchi darsdan tashqari qulay vaqtda bolalarni kitobxonlar burchagidagi kitoblar haqda suhbat o'tkazadi, asarlarni o'qib yoki hikoya qilib beradi, mualliflar bilan tanishtiradi, bolalarga oldingi mashg'ulotlardan tanish bo'lgan, shuningdek

dasturga kiritilmagan asarlarni takror o‘qib berish mumkin. Darsdan tashqari vaqtda tabiat haqidagi asarlarni, lirik she‘rlarni, matal va kochirimlar, topishmoqlar va hokazolarni aytib berish bolalarning his-tuyg‘ulariga katta ta’sir etadi. Darsdan tashqari vaqtda o‘qib berilgan kitob haqida, yozuvchi va shoirlar haqida suhbatlar o‘tkaziladi. Bu bolalarda badiiy asar namunalarini aytib berishga, kitobga qiziqishga yordam beradi.

Kitobxonlar burchagidagi kitoblarni o‘quvchilar o‘qib bo‘lganlaridan so‘ng olgan taassurotlari yuzasidan tadbirlar o‘tkazishlari mumkin. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmasini samarali shakllantirishda dastlab bu jarayonni tashkil etishda nimalarga e’tibor qaratish zarur, degan savolga javob topish talab etiladi. Bu jarayonda quyidagilarga e’tibor qaratish pedagogik faoliyatning metodik jihatdan to‘g‘ri, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlaydi:

1. O‘qituvchi, ota-onalar, oila a’zolarining kitobxonlik borasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga namuna ko‘rsata olishlari.

2. Maktabgacha hamda boshlang‘ich ta’lim yoshi bolalari qiziquvchan bo‘lishadi, ularning qiziquvchanligi sersavol bo‘lishida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning xuddi shu xislatlariga tayangan holda ularning e’tiborlarini qiziqarli badiiy kitoblarga tortish asosida bu xislatni yanada boyitish mumkin.

3. Kitob mutolaasi vaqtida faqatgina bolalar tomonidan savollar berilishiga erishib qolmay, shu bilan birga, vaqti-vaqti bilan ularga savollar asosida murojaat qilib, asarda bayon etilayotgan voqyelik, qahramonlarning xatti- harakatlariga nisbatan munosabatlarini aniqlashtirib borish fikrlash qobiliyatini shakllantirishga, o‘z munosabatini mantiqiy bayon qilishga o‘rgatib boradi.

4. Asar voqeligida tilga olinayotgan qahramonlar o‘quvchilarning tasa vvurinishakllantirishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

5. O‘qituvchi, ota-onalar yoki kutubxonachi tomonidan asar voqyeligining muayyan o‘rinlarida qisqa-qisqa to‘xtalishlar qilish orqali o‘quvchilarga shu jarayonning qanday kechishini to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga oid topshiriqni berish

ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, ularda mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Tegishli yosh davri o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining maqsadli, izchil, tizimli hamda samarali tashkil etilishida boshlang'ich sinflarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchi muhim o'rin tutib, asosiy vazifani bajaradi.

O'rganilayotgan jarayon tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi zarur. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faoliyatni olib borishda quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur:

1) boshlang'ich sinflar bosqichiga bog'liq ravishda o'quvchilar uchun ularning yoshi, psixologik xususiyatlari hamda jismoniy imkoniyatlariga muvofiq ravishda badiiy asarlarni tanlash;

2) o'quvchilar bilan guruh yoki jamoa asosida badiiy asarlarni mutolaa qilishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarni tanlash;

3) o'z sinfida o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida oila, maktab axborot-resurs markazi, shuningdek, o'rta hamda yuqori sinf o'quvchilaridan iborat volontyorlar guruhi bilan hamkorlikka erishish;

4) ota-onalar, maktab kutubxonachisi va volontyorlar guruhi a'zolari bilan hamkorlikda badiiy asarlarni mutolaa qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat ish rejasini ishlab chiqish;

5) ota-onalar, maktab kutubxonachisi va volontyorlar guruhi a'zolariga boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan samarali ishlash yuzasidan metodik maslahatlarni tashkil etish yoki metodik yordam ko'rsatish. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ota-onalar, maktab kutubxonachisi va volontyorlar guruhi a'zolari bilan o'zaro hamkorlikda o'zi rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida kasbiy sifatlarga egaligini namoyon eta olishi zarur. Shuningdek, u "yuqori kasbiy mahoratli, nutqi ravon, mavzularni optimal yo'llar bilan tushuntira oluvchi, ijodkor va tashabbuskor, o'quvchilar bilan ta'limiy hamkorlikda ishlay oladigan, ularni mustaqil va mantiqiy fikrlashga yo'naltiruvchi bo'lishi kerak" .

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladigan pedagogik-psixologik jarayon ma'lum talablar asosida tashkil etilishi zarur. Xususan:

- o'quvchilarda badiiy adabiyotni idrok qilish va anglash qobiliyatini shakllantirishga erishish; bu jarayonda o'quvchilarning intellektual, bilish va hissiy faoliyati yotishini nazarda tutish;

- mazkur jarayonning muayyan bosqichlardan iboratligini inobatga olish asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish;

- boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonining ovoz chiqarib o'qishga asoslanishi samarali ekanligini inobatga olish;

- yorqin ranglar, e'tiborni tortadigan obrazlar bilan boyitilgan bolalarga mo'ljallangan, yuqori sifatli poligrafiya mahsuloti bo'lgan badiiy asarlarni tanlash;

- badiiy asarlarni mutolaa qilish jarayonida o'quvchilarning tasavvur dunyosini boyitish, orzularini erkin bayon qilishlari uchun zarur imkoniyatni yaratish;

- o'quvchilarni turli janrdagi adabiyotlar bilan yaqindan tanishtirib borish;

- bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan o'quvchilarga badiiy asarlarning janrlari – proza (hikoya, qissa, ertak-roman), poeziya (she'r, ballada, qasida), dramaturgiya (spektakl, novella, miniatyura, radio inssenirovka) kabilar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi;

- o'qituvchi o'quvchilarni folklor asarlar (xalq og'zaki ijodi namunalari) va ular (xalq ertaklari, topishmoq, maqol, masal, hisobga o'rgatuvchi va hazil she'rlar)dan ham tanishtirib borishi ularni badiiy adabiyotlarni mutolaa qilishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini kuchaytirishga yordam beradi;

- manbalarda bolalarni badiiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishishda zamonaviy axborot texnologiyalarning texnik va funksional imkoniyatlari-dan samarali foydalangan holda bolalarga mo'ljallangan badiiy adabiyot-larning audio va video mahsulotlarini yaratish "bolaning kitob bilan muloqotini yaxshilash va rang-barang bo'lishi" ga erishish imkoniyatini yaratishi aytiladi. Har qanday ish-harakat, faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirishda uni tashkil etishga qanchalik ko'p

kuch sarflash emas, balki jarayonning davomli, izchil, uzluksiz bo'lishi samarali sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda ham ana shu maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning davomli, izchil bo'lishi muhimdir. Tegishli yosh davri o'quvchilari bilan badiiy asarni mutolaa qilishda uning kichik teatr tomoshasiga aylantirish, o'quvchilarning o'zlarini ham unda ishtirok etishga jalb qilish kutilgan natijaga olib keladi.

Pedagogik va psixologik jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda bir necha samarali usullardan foydalanish mumkin:

1-usul – o'qituvchi yoki kutubxonachi ishtirokida sinf o'quvchilari bilan jamoa bo'lib kitob mutolaa qilish.

2-usul – o'qituvchi yoki kutubxonachining kitobni ifodali, ohang bilan o'qitilishiga e'tiborni qaratishi (asar voqyeligidan kelib chiqqan holda personaj va obrazlarni ularning "tili"dan, mimika (yuz ifodasi), pantomimika (gavda harakati), turli jest (qo'l va oyoqlarning harakati) yordamida bayon etish, o'qish jarayonida ovoz ohangini turli holatlarda o'zgartirish) o'quvchilarda kitobga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

3-usul – o'qituvchi yoki kutubxonachi tomonidan o'qilayotgan kitob imkon qadar kulgili voqeliklarga asoslangan, aksincha, fojiali hodisalarning bayoniga asoslanmagan bo'lishi zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishda kitob tanlashning ahamiyati nimada?
2. Kitob tanlashda o'quvchining yoshi va psixologik xususiyatlari nima uchun muhim?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kitob tanlashda asosiy tamoyillarni sanab bering.
4. Kitob tanlashda ota-ona va o'qituvchining mas'uliyati nimalardan iborat?
5. Bir boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun 3 ta mos kitob tavsiya qiling va nima uchun mos kelishini izohlang.

6. “Eng yaxshi tanlagan kitobim” mavzusida kichik og‘zaki hikoya tuzing.
7. O‘zingiz yoqtirgan kitobingizni tanlash sabablari haqida 5–6 gap yozing.
8. “Yaxshi kitobni qanday tanlash mumkin?” mavzusida kichik suhbat tashkil qiling.

Testlar.

1. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish uchun kitob tanlashda eng muhim omil qaysi?
 - A) O‘quvchining yoshi va qiziqishi
 - B) Kitobning qalinligi
 - C) Kitobning narxi
 - D) Do‘stlarning tanlovi
2. Kitob tanlashda o‘quvchining yoshiga mos kelmaslik qanday oqibatlarga olib keladi?
 - A) Kitobni tushunmaslik va kitobxonlikka qiziqmaslikka
 - B) Yaxshi tushunib, ko‘p o‘qishga
 - C) Tez o‘qib tugatishga
 - D) O‘qishni yanada sevimli mashg‘ulot qilishga
3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kitob tanlashda qanday asarlar ustuvor bo‘ladi?
 - A) Qiziqarli va tarbiyaviy ertaklar, hikoyalar, she‘rlar
 - B) Faqat ilmiy maqolalar
 - C) Juda murakkab romanlar
 - D) Faqat lug‘atlar
4. Kitob tanlashda ota-ona va o‘qituvchining vazifasi nimalardan iborat?
 - A) Yoshga va qiziqishga mos kitoblarni tavsiya qilish
 - B) Faqat o‘zlariga yoqqan kitobni majburlab o‘qitish
 - C) Kitob bermaslik
 - D) Telefon o‘yinlariga ruxsat berish
5. “Yaxshi kitob” deganda nimalar tushuniladi?
 - A) Qiziqarli, ma‘naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega, yoshga mos asarlar

- B) Faqat qalin va chiroyli kitoblar
- C) Juda arzon kitoblar
- D) Rasmsiz kitoblar

VI-BOB. KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH YO‘LLARI VA VAZIFALARI

Tayanch so‘zlar: nutq, metodika, nutq aspektlari, hayotiy ko‘nikmalar, inson kamoloti, buyuk allomalar, ma’naviy meros, sharqona ta’lim va tarbiya, adabiy til normalari, tafakkur va notiqlik san’ati, ta’lim sifati. yarim tillilik, ijtimoiy kutish, kommunikativ yo‘naltirilganlik, ijtimoiy vaziyat, emotsional kechinmalar, ermak o‘yinlar, diksiya, emotsional ekspressiya, empatiya.

6.1 Nutq va uni o‘stirish tushunchasi.

Nutq – inson faoliyatining muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, til vositalari (so‘z, so‘z birikmalari, gap) yordamida tafakkurni ishga soladi. U muloqot qilish,

xabar berish, fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir ko'rsatish vazifalarini bajaradi.

Rivojlangan nutq jamiyatda inson faoliyatining eng asosiy vositalaridan hisoblanadi. Maktab o'quvchisi uchun esa nutq – bilim olish va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? O'quvchi nuqtayi nazaridan nutq o'stirish – tilni barcha jihatlari (talaffuz, lug'at boyligi, sintaktik qurilish, bog'lanishli nutq) bo'yicha faol o'zlashtirish demakdir. O'qituvchi nuqtayi nazaridan esa nutq o'stirish – o'quvchilarga tilning talaffuzi, lug'ati, grammatik qurilishi va bog'lanishli nutqni ongli egallashlariga yordam beruvchi metod va usullarni qo'llashdir.

Shu bois ona tili dasturi turli bo'limlardan iborat: "Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish", "O'qish va nutq o'stirish", "Grammatika, imlo va nutq o'stirish".

O'quvchilar nutqini o'stirish shartlari

1. Nutq ehtiyoji mavjud bo'lishi kerak. O'quvchi o'z fikrini og'zaki yoki yozma tarzda ifoda etishga ehtiyoj sezadigan vaziyat yaratilishi lozim.

2. Nutqning mazmuni boy bo'lishi zarur. Har qanday nutqning asosida muayyan mazmun bo'ladi. O'quvchi nutqi qanchalik qimmatli va boy materialga asoslangan bo'lsa, shunchalik mazmunli bo'ladi. Shuning uchun mashqlarda tanlanadigan material nutqiy rivojlanishga xizmat qilishi zarur.

3. Nutq til vositalari bilan qurollantirilishi kerak. Fikr faqat tinglovchiga tushunarli so'zlar, iboralar va gaplar yordamida ifodalanganda samarali bo'ladi. Shu bois o'quvchilarga to'g'ri til namunalarini ko'rsatish, yaxshi nutqiy sharoit yaratish va ularni amaliy mashqlarda qo'llash zarur. Natijada bolalarda nutqiy sezgirlik va "tilni sezish" qobiliyati shakllanadi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda inson faoliyatining eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktab yoshidagi o'quvchilar uchun nutq – muvaffaqiyatli ta'lim olishning eng muhim quroli hisoblanadi.

Nutqni rivojlantirish, ya'ni nutq o'stirish nima degani? Agar o'quvchi nuqtai nazaridan qaralsa, nutq o'stirish deganda tilni to'liq, har tomonlama – talaffuzi, lug'ati, sintaktik tuzilishi va bog'lanishli nutqini faol o'zlashtirish tushuniladi. Agar

o‘qituvchi nazaridan qaralsa, bu o‘quvchilarning tilni to‘g‘ri talaffuz etishi, lug‘atini boyitishi, gap qurilishini tushunishi va bog‘lanishli nutqni shakllantirishlariga yordam beruvchi metod va usullarni qo‘llash demakdir.

Shu sababli, grammatika va imlo dasturlari tilning asosiy bo‘laklari — tovushlar va harflar, so‘z, gap, bog‘lanishli nutqni o‘z ichiga oladi. Ona tili dasturi “Xat-savod o‘rgatish va nutq o‘stirish”, “O‘qish va nutq o‘stirish”, “Grammatika, imlo va nutq o‘stirish” kabi bo‘limlardan tashkil topgan.

Nutqni rivojlantirishda izchillik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u to‘rt asosiy shartga asoslanadi: mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi va turli mashq turlarini umumiy maqsadga yo‘naltirish.

Nutq turlari haqida: Insonlar tildan fikrlarini ifoda etish vositasi sifatida foydalanadilar. Fikrni ovoz bilan bayon qilishdan avval ular uni ich-ichidan o‘ylab ko‘radilar — bu ichki nutqdir. Ichki nutq eshittirilmagan, yozilmagan, balki o‘ylangan, fikrlangan nutqdir. Tashqi nutq esa tovushlar yoki grafik belgilar yordamida boshqalarga qaratilgan bo‘lib, eshittiriladi yoki yoziladi.

Ichki nutq materialni tushunishga va yodda saqlashga yordam beradi. Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq ikki turga bo‘linadi: og‘zaki va yozma. Og‘zaki nutq odatda dialog tarzida kechadi, yozma nutq esa ko‘proq monolog shaklida bo‘ladi.

O‘quvchilarning nutqiga qo‘yilgan talablar:

Nutq mazmundor bo‘lishi kerak.

Nutqda mantiqiylik saqlanishi zarur.

Nutq aniq ifodalanishi lozim.

Til vositalariga boy bo‘lishi muhim.

Nutq tushunarli bo‘lishi shart.

Nutq ifodali bo‘lishi zarur.

Nutq to‘g‘ri shakllantirilgan bo‘lishi lozim.

Nutq o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib, nafaqat fikrlarni bayon qilish, balki ularni shakllantirish qurolidir. Fikr nutqning psixologik asosidir, uni rivojlantirish esa fikrni boyitishga bog‘liq. Aqliy faoliyatni egallash orqali nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Shu bois, o'quvchilar nutqini rivojlantirishda materialni puxta tayyorlash, uni takomillashtirish, mavzuga mos tanlash, joylashtirish va mantiqiy operatsiyalarni bajarishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutq shakllantirilsa va bayon etilsa, nutq samarali rivojlanadi. Tushunchalar so'zlar yoki so'z birikmalari orqali ifodalanadi. Shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim axborot almashinuvi materiali hisoblanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z yoki so'z birikmasini bilsa, o'sha tushunchaga asoslangan holda tashqi nutqda fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nutqda fikr shakllanadi, shu bilan birga fikr nutqni yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langan; nutq bo'lmasa, tafakkur ham mavjud bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab bo'lmaydi." Fikrni nutq orqali shakllantirishda uning aniq, tushunarli, sof, izchil va mantiqiy bo'lishi ta'minlanadi.

Tilni egallash, uning fonetikasi, lug'at boyligi, grammatik tuzilishini o'rganish – fikrni takomillashtirish va tafakkur rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitdir. Bilimlar, faktlar, turli axborotlar tafakkur va nutqning asosiy materiali hisoblanadi. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, nutq o'quvchining fikriy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qabul qilinadi.

O'quvchilarning barcha fanlardan o'zlashtirgan materiallari va umumiy aqliy rivojlanishi baholanayotganda, ularning ma'lum mavzuni o'z nutqida (yozgan inshosida, axborot berishda, hikoya qaytarishda, savollarga javob berishda) qanday ifodalay olishlari e'tiborga olinadi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, u tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Boshqa tomondan, nutqning o'sishi fikr shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi, uni yanada takomillashtiradi.

O'quvchilar nutqini rivojlantirish boshqa fanlardan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va odamlar hayoti haqida bilim oladilar, kuzatish, fikrlash

ko'nikmalarini shakllantirib, ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri va ravon gapirishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali ko'mak beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darslari, shuningdek, kuzatish va ekskursiyalar o'quvchilarga tabiat hodisalari, odamlar hayoti va mehnati, axloq qoidalari hamda ijtimoiy muomala normalari haqida chuqurroq tushuncha beradi. Bu darslarda bolalar nutqini shakllantirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni chuqur o'rganish orqali bolalar alohida tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va gaplarni eshitishni va aniq aytishni o'rganadilar. Shuningdek, ular predmet, harakat va belgini bildiruvchi ko'plab so'zlarni, tovush, harf, bo'g'in, o'zak, so'z yasovchi va forma yasovchi qo'shimchalar, so'z turkumlari (ot, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi), gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap va boshqalar kabi murakkab til tushunchalari bilan tanishadilar.

Nutq faoliyatini rivojlantirish va o'quvchilarning nutqini o'stirish uchun esa bir qancha muhim shartlarga rioya qilish lozim. Zero, faqat shunday shartlar bajarilganda, o'quvchilar nutqi to'liq va samarali shakllanadi.

Birinchi, kishi nutq qilishi uchun unda bu ehtiyoj, bu talab paydo bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin va ravon bayon qilishga, og'zaki yoki yozma nutq orqali o'z his-tuyg'ularini ifoda etishga undovchi vaziyatlarni yaratishi lozim. Zero, faqat shunday sharoitda o'quvchi nutqini rivojlantira oladi.

Ikkinchi, har qanday nutqning mazmuni bo'lishi zarur. Mazmun qanchalik boy va to'liq bo'lsa, nutq shunchalik mazmunli va chuqur bo'ladi. Shuning uchun nutq mashqlari uchun tanlangan materiallar diqqat bilan tanlab olinishi, o'quvchining fikrlarini boyitadigan, ularni o'ylashga undaydigan bo'lishi kerak.

Uchinchi, fikr tushunarli bo'lishi uchun uni so'zlar, so'z birikmalari va gaplar yordamida ifodalash lozim. Bu esa nutqni til vositalari bilan boyitishni talab qiladi. O'quvchilarga adabiy til namunalarini ko'rsatish, ularni yaxshi nutqiy muhitda shug'ullantirish juda muhim. Nutqni eshitish va undan o'z nutqida foydalanish orqali bola tilni ongli ravishda o'zlashtiradi.

Nutqni egallash – faqat soʻzlarni yodlash emas, balki adabiy til meʼyorlarini oʻrganish, sheva va jargondan farqlash, adabiy tilning badiiy, ilmiy va soʻzlashuv uslublari bilan tanishishdir. Shu bilan birga, oʻquvchilar oʻqish va yozish malakalarini egallash orqali ogʻzaki va yozma nutq oʻrtasidagi farqni anglay boshlaydi.

Nutq madaniyati ham oʻquvchilarning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Til – jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasi ekanligi bois, maktabda nutq madaniyatini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratiladi. Oʻqituvchi bu yoʻnalishda rejalashtirilgan, tizimli ish olib borishi lozim.

Nutqni rivojlantirishda uch yoʻnalish alohida ajratiladi: soʻz ustida ishlash, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash, hamda bogʻlanishli nutq ustida ishlash. Bu jarayon lingvistik bilimlarga, yaʼni leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi fanlarga asoslanadi. Soʻz va gap ustida ishlash bogʻlanishli nutqga tayyorlovchi bosqich boʻlib, oʻz navbatida, bogʻlanishli nutq – mantiq, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunliklarni oʻz ichiga oladi.

Nutq oʻstirishda izchillik muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlar oʻzaro bogʻliq boʻlib, biri ikkinchisiga tayyorlovchi boʻlishi, shuningdek, har bir yangi mashq oldingisini takomillashtirishi kerak. Xilma-xil mashqlar orqali oʻquvchilar koʻnikmalarini kengaytiradi va umumiy maqsadga yetadi.

Maktabda oʻquvchilar nutqini rivojlantirish ona tili darslarining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, nutqni oʻstirishga doir barcha ishlar aniq maqsad va metodik asos bilan olib borilishi zarur.

Oʻquvchilarning hikoya yoki insholari ularga yaxshi maʼlum boʻlgan, yaʼni oʻz kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblar, rasmlar, radioeshittirishlar yoki telekoʻrsatuvlar orqali olingan maʼlumotlarga asoslangan boʻlsa, nutq yanada mazmunli va jonli boʻladi. Bolalar bilmagan yoki koʻrmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz gapirganda, nutq mazmunsiz va noaniq boʻlib qoladi. Shu bois, nutqni rivojlantirish metodikasi doirasida, hikoya va insho uchun zarur materialni toʻplash, muhokama qilish, toʻldirish, asosiy fikrlarni ajratish hamda

tartib bilan joylashtirish katta ahamiyatga ega. Albatta, bu jarayonda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

O'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikrlar izchil va asosli bayon etilishi talab etiladi. Asosiy fikrlar tushirib qoldirilmasligi, mavzuga aloqasiz takror va ortiqcha gaplarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Nutqning mantiqiyligi o'quvchining mavzuni yaxshi anglashi va voqea-hodisalarni puxta bilishiga bog'liq. Aks holda, mavzuni noaniq tushunish yoki noto'g'ri tanlash natijasida mantiqiy xatolar yuzaga keladi. Ushbu ikki talab – nutq mazmuni va uning qurilishiga tegishlidir.

Nutq aniq va ravshan bo'lsin.

O'quvchi o'z dalillari, kuzatishlari va taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy va tushunarli tarzda ifodalash bilan birga, eng munosib til vositalaridan — so'z, so'z birikmalari, gaplardan foydalanishni o'rganishi kerak. Shuningdek, nutqda maxsus tasviriy ifodalarga ham o'rin berilishi zarur.

Nutq til vositalariga boy bo'lishi kerak. Mazmuni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqini til boyligi bilan boyitishi, har qanday vaziyatda kerakli sinonimlar va xilma-xil gap qurilishlari ichidan eng to'g'ri va mos variantni tanlash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan til boyligi bo'yicha yuqori talablar qo'yish o'rinli emas, ammo o'qituvchi har doim o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga e'tibor qaratishi zarur.

Og'zaki nutq tinglovchiga, yozma nutq esa o'quvchiga tushunarli bo'lishi shart. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqini tinglovchining imkoniyati va qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma muammosiz tushunadi.

Agar nutq jonli, ta'sirli va ishontiruvchi bo'lsa, tinglovchi yoki o'quvchida chuqur ta'sir qoldiradi. Og'zaki nutqda bu intonatsiya orqali amalga oshsa, yozma nutqda so'z tanlovi, emotsionallik, jumla va iboralar yordamida ifodalanadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo'lishi undan sheva, jargon va keraksiz so'zlarni chiqarib tashlashni talab qiladi.

Maktab yoshidagi o'quvchilar uchun nutqning adabiy til me'yorlariga mos bo'lishi juda muhim. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya qoidalariga,

ogʻzaki nutq esa orfoepiya qoidalariga muvofiq boʻlishi shart. Nutqning toʻgʻri boʻlishi soʻz tanlash va nutqning mantiqiy tizimiga katta bogʻliqdir.

Nutq oʻstirishning metodik shartlari nutqiy faoliyat uchun keng imkoniyat yaratishni talab qiladi. Bunda, birinchidan, oʻquvchilar yaxshi nutq namunalarini idrok etishi, ikkinchidan, oʻrgangan til vositalaridan foydalanib, oʻz fikrini mustaqil bayon etishi uchun sharoit boʻlishi zarur.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida oʻzlashtiradi, ammo bu jarayon yuzaki boʻlib qolmasligi uchun nutqni egallashning bir necha asosiy jihatlari mavjud:

1. Adabiy til meʼyorlarini oʻzlashtirish. Oʻquvchilar adabiy tilni soʻzlashuv tili, sheva va jargonlardan farqlashga oʻrgatiladi hamda adabiy tilning badiiy, ilmiy va soʻzlashuv shakllari bilan tanishtiriladi.

2. Asosiy nutq malakalarini egallash. Oʻqish va yozish koʻnikmalarini shakllantirish orqali oʻquvchilar yozma nutqning xususiyatlari va uning ogʻzaki nutqdan farqini bilib oladilar.

3. Nutq madaniyatini rivojlantirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasi boʻlgani uchun maktabda oʻquvchilarning nutq madaniyatiga alohida eʼtibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarishda oʻqituvchi rejali ishlashga masʼul boʻladi. Shu bois, nutqni oʻstirish jarayonida quyidagi uch yoʻnalish muhim hisoblanadi:

1. soʻz ustida ishlash;
2. soʻz birikmasi va gap ustida ishlash;
3. bogʻlanishli nutq ustida ishlash.

Soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik asos sifatida leksikologiya, morfologiya, sintaksis xizmat qiladi. Bogʻlanishli nutq esa mantiq, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Ushbu yoʻnalishlar oʻzaro bogʻliq holda olib boriladi: lugʻat ishi gap qurishga yordam beradi, gap ustida ishlash esa bogʻlanishli nutqni shakllantiradi. Oʻz navbatida, hikoya va insholar oʻquvchilarning lugʻatini boyitadi.

Nutqni oʻstirish maxsus metodik vositalar va mashqlarga tayanadi. Eng samarali usullardan biri — bogʻlanishli nutq mashqlaridir. Nutqni rivojlantirishda

mashqlarni izchil, xilma-xil va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil qilish zarur. Har bir yangi mashq avvalgisiga tayanib, keyingisiga tayyorlaydi va umumiy maqsadga xizmat qiladi.

Maktabda o'quvchilar nutqini rivojlantirish ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, nutqni o'stirish faqat ona tili va o'qish darslari bilangina chegaralanmaydi. Bu jarayonda boshqa fanlar – tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, musiqa darslari hamda turli sinfdan tashqari tadbirlar ham muhim rol o'ynaydi.

Kishilar tilni fikrni ifodalash quroli sifatida ishlatadilar. Har bir inson gapirishdan avval ichida o'ylab oladi. Bu jarayon ichki nutq deb ataladi. Ichki nutq – bu ovoz chiqarilmagan yoki yozilmagan, faqat o'ylangan nutq bo'lib, u asosan fikrlovchining o'ziga qaratilgan bo'ladi. Tashqi nutq esa ovoz orqali aytiladi yoki yozuv orqali ifodalanadi hamda boshqalarga yo'naltiriladi.

Ichki va tashqi nutqning tabiati bir xil, farqi shundaki: tashqi nutqda nutq a'zolari harakati bilan tovush chiqariladi yoki yoziladi, ichki nutqda esa tovushsiz jarayon kechadi. Ichki nutq o'quvchilar uchun materialni tushunish, yodda saqlash va tashqi nutqni rivojlantirishda muhim vositadir. U fikrlash jarayonida asosiy rol o'ynaydi va o'quvchilarni tashqi nutqda o'z fikrini mas'uliyat bilan ifodalashga tayyorlaydi.

Maktabda faqat tashqi nutq emas, balki ichki nutq ham rivojlantiriladi. Bolalar ichida o'qishga o'rganadi, materialni ichki nutq orqali o'zlashtiradi, masalalarni hal qiladi hamda og'zaki va yozma fikrlarini oldindan tayyorlab oladi.

Nutq ifoda usuliga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- a) Og'zaki nutq – tovush orqali amalga oshadi, eshitishga asoslanadi;
- b) Yozma nutq – grafik belgilarda ifodalanadi, ko'rish va qo'l harakati sezgilari asosida shakllanadi.

Og'zaki nutq odatda dialog shaklida, yozma nutq esa monolog shaklida bo'ladi. Yozma nutqda izchillikka qat'iy rioya qilish, ortiqcha takrorlardan qochish va til vositalarini to'liq qo'llash talab qilinadi. Shu bois yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan murakkabroq hisoblanadi.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablar

O'quvchilar nutqini rivojlantirishda bir qator talablar mavjud:

1. Mazmundorlik. O'quvchi nutqi hayotiy tajriba, kitob, rasm, radio yoki televideniya dan olgan ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa, u mazmunli bo'ladi. Bilmagan mavzu haqida so'zlash esa mazmunsiz chiqadi.

2. Mantiqlik. Nutq izchil, asosli va ortiqcha takrorlarsiz bo'lishi kerak. Mantiqiy xato mavzuni yaxshi bilmaslik yoki noto'g'ri tanlash natijasida yuzaga keladi.

3. Aniqlik. Fikr dalillar, kuzatishlar asosida aniq ifodalanishi, eng mos til vositalari bilan bayon qilinishi lozim.

4. Til boyligi. O'quvchi kerakli sinonimlardan, turli jumla tuzilmalaridan foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi esa o'quvchilarning lug'atini boyitishga doimiy e'tibor berishi zarur.

5. Tushunarlik. Nutq tinglovchi yoki o'quvchiga qiyinchiliksiz tushunarli bo'lishi lozim. Buning uchun nutq auditoriyaning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos bo'lishi kerak.

6. Ifodalilik. Nutq jonli, ta'sirchan va chiroyli bo'lishi, intonatsiya hamda emotsional so'zlar orqali eshituvchiga ta'sir etishi kerak.

7. To'g'rilik. Nutq adabiy til me'yorlariga mos bo'lishi zarur: yozma nutq imlo va punktuatsiya, og'zaki nutq esa talaffuz qoidalariga to'liq rioya qilishi lozim.

Bu talablar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quv jarayonida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

6.2 Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita.

Nutq – fikrni ifodalash vositasi bo'lish bilan birga, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi hisoblanadi, nutqni rivojlantirishning muhim sharti esa fikrni boyitishdir. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni puxta tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga mosini tanlash, uni mantiqiy izchillikda joylashtirish kabi ish turlariga alohida e'tibor beriladi.

Tafakkur til vositalari yordamida shakllantirilgandagina nutq muvaffaqiyatli rivojlanadi. Har bir tushuncha soʻz yoki soʻz birikmalari orqali ifodalanadi, shu bois tilning asosiy birliklari – soʻz va birikmalar muhim aloqa vositasiga aylanadi. Inson tushunchani ifodalovchi soʻzni bilganidagina uni tashqi nutqda toʻliq bayon etish imkoniyatiga ega boʻladi.

Nutq va tafakkur chambarchas bogʻliq: nutqsiz tafakkur, til materiali boʻlmasa esa fikrni ifodalash mumkin emas. Fikrni nutqiy shakllantirish uni aniq, tushunarli, izchil va mantiqli qiladi. Tilni egallash jarayoni uning tovush tizimini, lugʻatini va grammatik qurilishini oʻzlashtirish bilan birga, fikrni takomillashtirish va tafakkurni rivojlantirish uchun ham sharoit yaratadi.

Bilimlar, dalillar va turli maʼlumotlar – tafakkur va nutqning asosiy materiali hisoblanadi. Nutq esa tafakkur jarayonini anglash va oʻlchashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Oʻquvchining umumiy aqliy rivojlanishi haqida gap ketganda, u oʻz bilimlarini nutqda – insho, hikoya, axborot yoki savollarga javob shaklida qanday ifodalay olishi muhim mezon boʻlib xizmat qiladi.

Demak, nutqni tafakkurdan ajratib boʻlmaydi: nutq tafakkur asosida shakllanadi, fikr esa nutq yordamida pishib yetadi va tashqi ifodasini topadi. Shu bilan birga, nutqning oʻsishi fikrni yanada boyitib, takomillashtiradi.

Oʻquvchilar nutqini rivojlantirish boshqa oʻquv predmetlari bilan ham uzviy bogʻliqdir. Ona tili darslarida bolalar til vositasida tabiat va inson hayoti haqida bilim oladilar, kuzatish, oʻylash hamda koʻrgan, eshitgan va oʻqiganlarini toʻgʻri bayon qilish koʻnikmasini egallaydilar. Bu darslar ularning lugʻatini boyitishga, nutqni toʻgʻri tuzishga va fikrni izchil ifodalashga yordam beradi.

Oʻqish darslari va ular bilan bogʻliq kuzatish hamda ekskursiyalar oʻquvchilarda tabiat hodisalari, inson mehnati va hayoti, axloqiy qoidalar hamda muloqot madaniyati haqida bilimlar hosil qiladi. Sheʼr va maqollarni oʻqish, oʻqilganlarni qayta hikoyalash, kuzatish va ekskursiyalar jarayonida koʻrganlarini ifodalash bolalarning ogʻzaki nutqini rivojlantirsa, ona tili darslari yozma nutqni oʻstirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida o'quvchilar tilning tovush, bo'g'in, so'z va gap kabi birliklarini o'rganadilar. Shuningdek, tovush, harf, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, darak, so'roq va undov gap kabi ko'plab yangi tushunchalarni o'zlashtiradilar.

Boshqa fan darslari ham nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, matematika darslarida bolalar yangi tushuncha va atamalarni o'zlashtiradilar, sodda va qo'shma gap tuzishni o'rganadilar: *“5 soni 3 sonidan katta”* ($5 > 3$), *“uch soni besh sonidan kichik”* ($3 < 5$) kabi misollar orqali ular o'z nutqlarini boyitadilar. Masala yechish jarayonida esa *“hosil bo'ladi”*, *“teng”*, *“ma'lum”* kabi iboralarni to'g'ri ishlatishga o'rgatiladilar.

Matematika darslarida masala tuzish mashqlari ayniqsa muhimdir. Bu jarayon bolalarning izchil va mantiqiy fikrlashini shakllantirib, kichik hikoya yaratish imkoniyatini beradi. Masala tuzish jarayonida o'quvchilar muhokama yuritadi, savollarga aniq javob beradi va fikrini matematik til vositasida ifodalashni o'rganadi. Masalan, rasm asosida tuzilgan *“Daraxtda 3 ta chumchuq bor edi, yana 2 tasi uchib keldi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?”* kabi masalalar bolalarni fikrni to'liq va izchil bayon etishga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, turli fan darslari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap tuzish, bog'lanishli nutq, bayon va muhokama elementlari mavjud bo'lgan kichik hikoya yaratishga alohida e'tibor qaratadi. O'quvchilar matematika tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirish jarayonida nafaqat bilim oladilar, balki tafakkur va nutqlarini ham rivojlantiradilar. Agar o'qituvchi matematikaning mazmunini tushuntirish bilan birga, uni o'quvchilar nutqida to'g'ri shakllantirishga ham e'tibor bersa, bunday mashg'ulotlar haqiqiy bilim olish vositasiga aylanadi va o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga katta yordam beradi. *Fikrni aniq ifodalashni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masala yechish yo'lini tushuntirish ko'nikmalarini*

shakllantirish esa o‘quvchilarda qayta hikoyalash, insho yozish va muhokama qilish madaniyatini rivojlantiradi.

Tabiatshunoslik darslari va ekskursiyalar o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun yana bir muhim manbadir. Bolalar o‘qituvchi rahbarligida ko‘rgan narsalarini guruhlaydilar, ularni taqqoslab, o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlaydilar. Bu jarayon tabiatga oid tushunchalarni aniqroq anglashga yordam beradi va tafakkurni rivojlantiradi. Predmet va hodisalarni idrok etish natijasida o‘quvchilarda tabiatshunoslik tushunchalari shakllanadi. Masalan, ular narsalarni (*daraxt, olma, shaftoli, o‘rik, gul, o‘t*), ularning belgilarini (*mevali, mevasiz; shirin, nordon, qizil, oq*) yoki harakatini (*daraxt o‘sadi, qush uchadi, bulbul sayraydi*) bildiruvchi so‘zlar bilan bog‘lashni o‘rganadilar.

Mehnat, rasm, jismoniy tarbiya, ashula darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg‘ulotlar ham o‘quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining nutq madaniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi barcha darslarda, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ifodali, ta’sirli va adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda nutq so‘zlashi kerak. U orfoepik talaffuz qoidalariga qat’iy amal qilishi, o‘quvchi daftarlarida va barcha hujjatlarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilishi lozim. Bu orqali bolalarda ifodali so‘zlash, xatosiz va chiroyli yozish malakalari shakllanadi, tilga sezgirlik rivojlanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Nutqning o‘quvchi tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni haqida izoh bering.
2. Nutq o‘stirishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
3. O‘quvchi lug‘atini boyitishda o‘qituvchi qanday metodlardan foydalanishi mumkin? Misollar keltiring.
4. Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish uchun qanday mashq turlari qo‘llaniladi?
5. Ona tili darslari nutq o‘stirishda qanday imkoniyatlar yaratadi?
6. Nutq madaniyati va adabiy til me’yorlariga rioya qilishning ahamiyati haqida fikr yuriting.

7. Amaliy topshiriq: Berilgan soʻzlar yordamida 2 ta gap tuzing va ularni bogʻlanishli nutq shaklida kichik hikoya qilib yozing: (*oʻqituvchi, dars, kitob, oʻquvchi*).

Testlar.

- Oʻquvchilar nutqini oʻstirishning asosiy shartlari qaysilar?
 - Mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi
 - Faqat kitob koʻp oʻqish
 - Doimiy diktant yozish
 - Faqat grammatik qoidalarni oʻrganish
- Nutq oʻstirishda asosiy yoʻnalishlardan biri qaysi?
 - Faqat sheʼr yodlash
 - Soʻz ustida ishlash
 - Faqat insho yozish
 - Matematika darsini oʻqish
- Oʻquvchilarning lugʻatini boyitishda eng samarali vosita qaysi?
 - Qoʻshiq kuylash
 - Kuzatish, hikoya qilish, oʻqilgan matnlarni qayta bayon qilish
 - Faqat grammatik mashqlar
 - Rasm chizish
- Bogʻlanishli nutqni shakllantirishda nimalar muhim?
 - Qisqa gaplarni oʻqish
 - Soʻz va gap ustida ishlash, qayta hikoyalash, insho yozish
 - Faqat yozma mashqlar
 - Faqat diktant
- Oʻquvchi nutqini oʻstirishda qaysi fanlar hamkorlik qiladi?
 - Faqat ona tili
 - Ona tili va oʻqish, matematika, tabiatshunoslik, mehnat, tasviriy sanʼat
 - Faqat matematika
 - Faqat musiqa

6. O'qituvchining nutq madaniyati nimalarni o'z ichiga oladi?
- A) Husnixat, imlo, ifodali va adabiy til me'yorlariga rioya qilish
 - B) Faqat baland ovozda gapirish
 - C) Doim yangi so'z ishlatish
 - D) Faqat diktant o'qish
7. "Nutq – fikrni ifodalash va shakllantirish vositasi" jumlasini nima anglatadi?
- A) Nutq faqat gapirish uchun kerak
 - B) Nutq fikrni shakllantiradi, fikr esa nutqni rivojlantiradi
 - C) Nutq faqat yozma shaklda mavjud
 - D) Nutq faqat ilmiy matnlarda qo'llanadi

7-BOB. O'QUVCHILAR NUTQIGA QO'YILGAN TALABLAR

Tayanch so'zlar: nutq, ona tili, o'qish, dars, bog'liqlik, hikoya, yozuv, kuzatish, matematika, o'quvchi, fikr, o'qituvchi, lug'at

7.1 Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita.

Nutqni rivojlantirish tilni o'qitishning muhim vazifasidir. Nutq har qanday aqliy faoliyatning asosi, aloqa vositasidir. O'quvchilarning taqqoslash, tasniflash, tizimlashtirish, umumlashtirish qobiliyati, o'zlashtirish jarayonida, nutq orqali shakllanadi, nutq faoliyatida ham namoyon bo'ladi. O'quvchining mantiqiy aniq, dalillarga asoslangan, majoziy og'zaki va yozma nutqi uning aqliy rivojlanishining ko'rsatkichidir.

O'quvchilarning izchil nutqdagi yutuqlari barcha fanlar bo'yicha o'quv ishlarida muvaffaqiyatni ta'minlaydi va aniqlaydi, xususan, to'liq o'qish qobiliyatini shakllantirishga va imlo savodxonligini oshirishga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirish tarkibning zarur tarkibiy qismi, tilning boshlang'ich kursining barcha qismlarini organik ravishda bog'laydigan va ularni o'quv faniga – ona tiliga birlashtiradigan bo'g'in. Ushbu bog'lovchi bo'g'inning mavjudligi fanlararo aloqalarni amalga oshirish va grammatika va imlo darslari uchun yagona bo'lgan nutqni rivojlantirish uchun darslar tizimini yaratishning haqiqiy usullarini ochib beradi.

Dunyoni hissiy idrok etish, inson tafakkuri va nutqi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. So'z-bu fikrning moddiy qobig'i, bilish ob'ekti g'oyasini mustahkamlaydi. Nutq ob'ektni uning ko'plab xususiyatlaridan ajratishga yordam beradi. So'z orqali biron bir ob'ekt yoki hodisaga ta'rif berib, biz bu haqda bilimlarni boshqa odamlarga etkazishimiz mumkin.

Biror kishining boshida fikr paydo bo'lganda, u har doim odam muloqot qilishga odatlangan til orqali ifodalanadi. Uzoq vaqt davomida boshqa til madaniyatiga kirib, vaqt o'tishi bilan odam nafaqat gapira boshlaydi, balki muloqot qilish uchun foydalanadigan tilda ham o'ylaydi.

Fikr qanchalik chuqur va puxta o'ylangan bo'lsa, u so'zlar orqali shunchalik tushunarli ifodani topadi va suhbatdoshini idrok etish uchun shunchalik qulay bo'ladi. Fikrlarni boshqa odamlarga aniq etkazish uchun tushunmovchilik yoki uning asl ma'nosini buzmaslik uchun fikrning mohiyatini to'liq aks ettiradigan so'zlarni diqqat bilan tanlash kerak. So'zlar bilan ifodalangan fikrni keyinchalik chuqurlashtirish va ma'lum bir odamda ham, boshqa subyektlarda ham paydo bo'ladigan boshqa fikrlar bilan taqqoslash mumkin.

Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni olimlar tomonidan ko'p yillar davomida o'rganib kelingan. Bu tushunchalar ayniqsa psixologlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Til va tafakkur tushunchalarining tarixiga nazar solsak, ular avvallari ayri holatda rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichida fikrlash va nutq funksiyalari juda boshqacha edi. Nutq aloqa vositasi

bo'lib, ularning jamoaviy mehnatini boshqarish jarayonida ibtidoiy odamlar o'rtasidagi kommunikativ aloqalar uchun xizmat qilgan. Buni fikrlash jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan vositalar (yuz ifodalari, imo-ishoralar, ekspressiv harakatlar) yordamida hayvonlar yoki yosh bolalar o'rtasidagi aloqa misolida tushuntirish mumkin. Ushbu vositalar hayvon yoki bolaning ichki holatini yetkazishga qodir, ammo og'zaki ifodadan farqli o'laroq, ular umumlashtiruvchi tushuncha, belgi emas. Shunday ekan nutq va tafakkurni bir-biridan mutlaqo ajratib bo'lmaydi. Ular har doim bir-birini to'ldiruvchi, bir-biri bilan birgalikda rivojlanuvchi qobiliyatlar hisoblanadi.

O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar

O'quvchilar nutqini o'stirish jarayonida e'tibor berilishi muhim bo'lgan jihatlardan biri bu – nutqqa qo'yilgan talablardir. O'quvchilarning nutqi quyidagi ma'lum talablarga javob bera oladigan darajada rivojlantirilishi lozim:

1) Nutq mazmunli bo'lishi kerak. O'quvchining nutqi ma'no mazmunga ega bo'lishi kerak. Bu o'quvchi tomonidan yozilayotgan insho, bayon, hikoyalarda mazmunan bir-biriga bog'langan gaplardan foydalanishi, o'z nutqida tushunarsiz va mazmunsiz gaplardan foydalanmasligi uchun zarur hisoblanadi.

2) Nutq aniq bo'lishi kerak. O'quvchi o'z fikrlarini boshqalarga aniq, o'rni qo'llangan so'zlar va til vositalari bilan birgalikda yetkaza olishi kerak.

3) Nutq til vositalari bilan boyitilgan bo'lishi zarur. O'quvchi nutqida vaziyat va holatdan kelib chiqib sinonimlar, yaqin ma'noli so'zlar turli badiiy uslublarni anglagan holatda qo'llay bilishi zarurdir.

4) Nutq tushunarli bo'lishi kerak. Nutq tinglayotgan auditoriya yoki o'qiyotgan kishi uchun mos holda tushunarli tuzilgan bo'lsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda tinglovchi yoki o'quvchining barcha xususiyatlari hisobga olinishi muhimdir.

5) Nutq ifodali bo'lishi zarur. Nutq so'zlash paytida ohang, to'xtam va umuman talaffuz me'yorlariga va tinish belgilariga rioya qilinishi uning ifodali tarzda bo'lishini taminlaydi.

6) Nutqning ekspressivligi bu tushuncha his-tuyg‘ular bilan bog‘liq. Ya’ni so‘zlovchi gapirayotgan paytda o‘zi yetkazib berayotgan nutq bilan bog‘liq his-tuyg‘ularni ham ifoda etishi zarurdir. Bu tinglovchiga ijobiy ta’sir qiladi va nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

7) Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi. Nutq ifodalash jarayonida og‘zaki yoki yozma ekanligidan qat’iy nazar albatta orfografik va orfoepik qoidalarga amal qilinishi zarurdir.

8) Nutqning toza bo‘lishi ya’ni nutqda jargon va argo so‘zlardan foydalanmaslik. Bu talab ayniqsa hozirgi kunda amal qilinishi shart bo‘lgan talab hisoblanadi. Chunki ko‘pchilik yoshlar tilning sofliqiga ahamiyat bermagan holatda nutq so‘zlashadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishning boshqa predmetlar bilan bog‘liqligi

O‘quvchilarning nutqi faqatgina ona tili darslarida emas, balki boshqa fanlarni o‘rganish jarayonida ham rivojlanib boyib boradi. Chunki, har bir fanda o‘ziga xos atamalar, mavzuga va fanga oid so‘zlar o‘zlashtirib boriladi. Buni fanlar misolida ko‘rib chiqamiz.

O‘qish savodxonligi darslari ona tili darslari kabi o‘quvchilar nutqini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki o‘qish savodxonligida yangi hikoya, ertak, she’r va boshqa janrdagi asarlardan yangi so‘zlar, murakkab gaplar, turli atama va joy nomlarini o‘rganishadi. Hozirgi amaldagi darsliklarda har bir mavzudan keyin lug‘at ishi keltirilgan bo‘lib, bu o‘quvchiga notanish bo‘lgan so‘zlarning tushunarli, soda tilda, eslab qolishga oson shaklda berilgan. Bundan tashqari o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llanadigan o‘qish turlari, topshiriq va savol-javob, suhbatlar o‘tkazilishi o‘quvchilar o‘zlari erkin nutq so‘zlash ko‘nikmasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari o‘qish savodxonligi darslari orqali o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ham berilganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘qish savodxonligi darslarida ko‘proq erkin fikrlashga oid topshiriqlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 2-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining ikkinchi qismida “Ustozlar” she’ridan so‘ng shunday topshiriq berilgan:

Fikrni davom ettiring:

Dunyoda o'qituvchilar bo'lgani uchun...

Bu topshiriqni bajarish orqali o'quvchilarda tasavvur va mustaqil fikrlash hamda o'z fikrini nutq orqali yetkazib berish kabi ko'nikmalar rivojlanadi.

Matematika darslari ham o'quvchilar nutqini turli-tuman atamalar bilan boyishi hamda ularning bog'lanishli nutqi rivojlanishiga xizmat qiladi. Bolalar matematika darslarida ko'pincha masala tuzish topshirig'iga duch kelishdai. Masala tuzish va uni yechish jarayonida o'quvchilar qo'shma gaplarni tuzishadi, avval nutqida qo'llab keladigan so'zlarni ilmiy termin asosida ishlatadilar. Masalan, "Agar... bo'lsa, ... qancha bo'ladi?" kabi. Masala tuzish topshirig'i o'quvchilarning tafakkurini va tasavvurini va nutqini rivojlantiruvchi eng muhim topshiriqlardan biri deyishimiz mumkin.

Tabiiy fan darslarida ham o'quvchilar uchun yangilik hisoblangan ko'plab ilmiy terminlar ishlatiladi. Bunda o'quvchilar tabiat hodisalari, hayvon va o'simliklar nomlari, ularga oid tabiiy hodisalarni farqlaydilar va o'z utqida qo'llay boshlashadi. Hozirgi kunda fanlarni bir-biriga bog'lab o'rgatish, fanlararo aloqadorlik asosida ta'lim jarayonini tashkil etish rivojlanib bormoqda. Chunki, o'quvchidan barcha fanlarni barobar o'zlashtirib borish talabi qo'yiladi. O'quvchilarda ko'nikmalar aynan birgina fan orqali shakllantirilmaydi, balki barcha fanlar birgalikda ushu jarayonda qatnashadi. Fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish, uni amalga oshirish uchun esa o'qituvchidan yuksak mahurat talab qiladi. Ayniqsa bunda chet tili fanlari hamda ona tili darslarini misol qilib olishimiz mumkin. Hozir amaldagi darsliklarda o'zaro mutanosiblikni ta'minlash muhim ahmiyat kab etadi. Ma'lumki, o'quvchi har qanday chet tilini o'z ona tilisiga qiyoslab o'rganadi. Shunday ekan u biror bir so'zni chet tilida o'rganib, uni o'z nutqida ishlatishidan oldin ona tilida bu so'zni bilishi va tushunishi lozim. Hozir amaldagi adrsliklarda esa mutanosiblik to'liq ta'minlanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda chet tili fanlaridagi tushunchalar va mavzular ona tilidagiga qaraganda birmuncha murakkabroq berilgan. Bunday nomutanosiblikni oldini olish va o'quvchilarga

qulaylik yaratish maqsadida ona tili fanini maktablarda chuqurlashtirilgan holatda o'rgatilishi kerak deb hisoblaymiz.

7.2 O'quvchilar nutqini o'stirishning boshqa fanlar bilan bog'liqligi

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish faqat ona tili darslarida emas, balki boshqa o'quv mashg'ulotlari orqali ham samarali amalga oshiriladi. Ayniqsa, ona tili darslari bolalarning so'z boyligini oshirish, nutqni to'g'ri va izchil tuzishni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu darslarda o'quvchilar til vositasida tabiat va jamiyatdagi voqealarni, insonlar hayoti haqida bilimlar oladilar. Ular ko'rgan, eshitgan va o'qigan voqealarni to'g'ri bayon qilish, kuzatish va mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Shuningdek, o'qish darslari va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan kuzatuvlar, ekskursiyalar orqali o'quvchilar tabiat hodisalari, insonlarning mehnati, kundalik hayoti, axloq qoidalari, boshqalar bilan muloqot madaniyati haqida zarur bilimlarga ega bo'ladilar. Bunday mashg'ulotlar bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishida keng imkoniyatlar yaratadi.

O'qilgan she'r va maqollarni yod olish, ularni qayta hikoya qilish, shuningdek, ekskursiyalar vaqtida ko'rilgan predmet va tabiat hodisalari haqida hikoya tuzish bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishning samarali vositalaridandir. Ona tili darslari esa yozma nutqni shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Grammatika, bayon va inshoga oid turli xil mashqlar bolalarga so'z birikmalari tuzish, gap yasash, fikrni mantiqiy tartibda ifodalashni o'rgatadi va bu orqali ularning nutqiy malakasi mustahkamlanadi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida o'quvchilar tilning tuzilishi bilan yaqindan tanishadilar. Ular tovushlar, bo'g'inlar, harflar, so'zlar va gaplarni to'g'ri eshitish va talaffuz qilishni, ularning ma'no va vazifasini tushunishni o'rganadilar. Shu bilan birga, narsa, harakat va belgi bildiruvchi so'zlarni anglaydilar hamda tilshunoslikka oid quyidagi muhim atamalarni o'zlashtiradilar: tovush, harf, bo'g'in,

o‘zak, qo‘shimcha, so‘z turkumi, ot, sifat, fe‘l, son, olmosh, bog‘lovchi, gap, gap bo‘lagi, darak gap, so‘roq gap, undov gap va boshqalar.

Bularning barchasi o‘quvchilarning nutqiy tafakkurini rivojlantirib, ularni fikrni aniq, ravon va mantiqiy bayon etishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda faqat ona tili emas, boshqa barcha fan darslarida ham o‘quvchilarning nutqi boyitiladi, ularning fikrlashi va ifoda qilish malakalari tobora rivojlanib boradi. Kuzatishlar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanish, tushunchalarni shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, matematika darslari orqali o‘quvchilar ko‘plab yangi tushuncha, so‘z va atamalar bilan tanishadilar, bu esa ularning og‘zaki va yozma nutqini sezilarli darajada boyitadi.

Bu darslarda bolalar oddiy va qo‘shma gaplarni tuzishga o‘rganadilar. Masalan: "Besh soni uch sonidan katta", yoki "Uch soni besh sonidan kichik"; "Bir o‘nlikka ikki o‘nlik va besh birlikni qo‘shsak, uch o‘nlik besh birlik hosil bo‘ladi" kabi gaplar yordamida ular matematik fikrni aniq, izchil va mantiqiy ifodalashga odatlanadilar.

Masala yechish jarayonida o‘quvchilar "bo‘ladi", "qoladi", "hosil bo‘ladi", "teng" kabi so‘zlarning mazmunini teranroq anglay boshlaydilar. Shu bilan birga, "bizga ma‘lum", "masalada so‘rallyapti" kabi ifodalarni o‘z nutqlarida qo‘llashga o‘rganadilar. Bu esa ularning bog‘lanishli nutqini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masala tuzishga o‘rgatish – kichik hajmli, lekin aniq mazmunli hikoya tuzishga o‘xshash mashqdir. Unda o‘quvchi noma‘lum bir sonni aniqlash uchun kerakli savolni shakllantirishni va unga javob topish yo‘llarini tushunadi. Masalan, o‘qituvchi rasm asosida quyidagi kabi masalani tuzishni so‘raydi: "Daraxtga uchta chumchuq qo‘ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo‘ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo‘ldi?"

Bunday topshiriqlar bolalarda nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki aniq, izchil va tushunarli bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘quvchilar masala yechish jarayonida savollarga to‘liq, mazmunli javob berishni, matematik atamalardan o‘rinli foydalanishni, qoidalarni o‘z bilim

darajasiga mos tarzda ifodalashni o'rganadilar. Ayniqsa, masala tuzishga doir mashqlar ularning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi, mantiqiy mushohada yuritishga, kichik hajmli bayon tuzishga o'rgatadi.

Shunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni shakllantirish, gap tuzish, fikrni aniq ifodalash ustida izchil ishlaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarning tafakkurini, fikrlash jarayonini va tilga bo'lgan e'tiborini rivojlantiradi.

O'qituvchi matematikaning mazmuniy tomonigagina emas, balki bu mazmuni o'quvchilar o'z nutqlarida qanday ifodalashi, uni qay darajada tushunib yetgani va ifoda qilgani ustida ham ish olib boradi. Aynan shunday yondashuv natijasida o'quvchilar olgan bilimlar nafaqat matematik kompetensiyani rivojlantiradi, balki ularning nutqini o'stirishda ham asosiy vositaga aylanadi.

"Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida uning yechimini tushuntirish – bularning barchasi o'quvchilarda qayta hikoya qilish, insho yozish va muhokama yuritish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi."

O'quvchilar nutqini shakllantirish va rivojlantirish boshqa o'quv fanlari bilan olib boriladigan mashg'ulotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, ona tili darslarida o'quvchilar til vositasida tabiat va jamiyat hayoti haqida zarur bilimlarga ega bo'ladilar. Ular kuzatish, o'ylash, ko'rgan, eshitgan va o'qiganlarini aniq va mantiqiy tarzda ifoda etishni o'rganadilar. Bu darslar bolalar lug'atini boyitish, fikrni izchil bayon etish, grammatik jihatdan to'g'ri nutq tuzish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'qish darslari esa tabiat hodisalari, inson hayoti, mehnati, axloqiy qadriyatlar va jamiyatdagi muloqot madaniyati haqida bilimlar berish bilan birga, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Badiiy asarlarni o'qish, o'qilgan matnni qayta hikoyalash, ekskursiyalar davomida kuzatilgan holatlarni bayon qilish, real voqealarga asoslangan kichik hikoyalar tuzish bolalarning nutqiy faolligini oshiradi.

Shuningdek, ona tili darslari o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Grammatika va o'qish darslarida bajariladigan mashqlar — so'z birikmalari tuzish, gap tuzish, bayon yozish, insho yozish kabi faoliyatlar orqali bolalar nutqiy malaka va ko'nikmalarni egallab boradilar. Grammatika va to'g'ri yozuv darslari esa tilni chuqurroq o'rganishga zamin yaratadi. Bu darslarda bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni to'g'ri eshitish, talaffuz qilish, yozish malakalarini egallaydilar.

Ular, shuningdek, ko'plab yangi so'zlar va til birliklari — narsa, harakat, belgi bildiruvchi so'zlar, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumlari (ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi), gap turlari (darak gap, so'roq gap, undov gap), gap bo'laklari kabi ko'plab atamalarni o'zlashtiradilar. Bu bilimlar esa ularning tahliliy fikrlashi va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa fanlarda ham o'quvchilarning nutqi turli xil so'zlar bilan boyitilib boriladi. Kuzatishlar va ko'rgazmali vositalardan foydalanish orqali bilim olish, tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish jarayoni samarali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiiy fan darslarida hamda ekskursiyalar vaqtida o'zlari ko'rgan, kuzatgan hodisa va predmetlarni o'qituvchi rahbarligida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslaydilar, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlab ifodalaydilar. Bunday mashg'ulotlar, bir tomondan, tabiatga oid tushunchalarni aniq va to'g'ri shakllantirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.

Tabiat hodisalarini idrok etish natijasida bolalar ongida atrof-muhitga oid ilmiy tushunchalar shakllanadi. Bu tushunchalar o'z navbatida turli xil so'zlar bilan bog'lanadi. Masalan, daraxt, olma, shaftoli, o'rik, olxo'ri, gul, o't kabi predmetlarni; mevali, mevasiz, shirin, nordon, qizil, oq kabi belgilarni; daraxt o'sadi, qush uchadi, bulbul sayraydi kabi harakatni ifodalovchi so'zlar orqali bolalar bilimlarini mustahkamlaydilar.

Mehnat, rasm, jismoniy tarbiya va musiqa darslarida ham o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki tafakkur

til vositalari orqali nutqiy shaklga keltirilsagina muvaffaqiyatli rivojlanadi. Tushunchalar soʻzlar yoki soʻz birikmalari bilan ifodalangandagina aloqa vositasi sifatida faoliyat koʻrsata oladi. Inson tushunchani ifodalovchi soʻzni bilsagina, uni nutqiy shaklda ifodalab, fikr yurita oladi.

Shu jihatdan qaraganda, nutq va tafakkur oʻzaro uzviy bogʻliq hodisalardir. Nutq fikrni shakllantiradi, fikr esa nutqni yaratadi. “Nutq tafakkur bilan chambarchas bogʻlangandir. Nutq boʻlmasa – tafakkur boʻlmaydi, til materiali boʻlmasa – fikrni ifodalab boʻlmaydi,” degan fikr ayni haqiqatdir.

Fikrni nutqiy shakllantirish – uni aniq, mantiqiy, izchil, tushunarli va sof ifodalash imkonini beradi. Tilni mukammal egallash esa uning fonetikasi, lugʻat boyligi va grammatik tuzilishini chuqur oʻzlashtirish orqali amalga oshadi. Bu esa, oʻz navbatida, oʻquvchining tafakkurini boyitish va fikrini aniq ifoda etishiga zamin yaratadi.

Bilimlar, faktlar va har xil axborotlar – bu tafakkur va nutqning asosiy materialidir. Nutq tafakkur jarayonini anglash va oʻrganishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, nutq oʻquvchining fikriy rivojlanish darajasini baholashda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Oʻquvchi fanlardan olgan bilimlarini qanday oʻzlashtirganini aniqlashda, uning inshosi, axboroti, qayta hikoyalashi yoki savollarga bergan javobi orqali fikrini qanday bayon etayotgani muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib boʻlmaydi – ular bir-birini toʻldiruvchi, oʻzaro bogʻliq jarayonlardir. Fikr nutq vositasida pishib yetiladi, shakllanadi va ifoda etiladi. Shu bilan birga, nutqning rivoji fikrni ham shakllantiradi, uni boyitadi va takomillashtiradi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirishda oʻqituvchining nutq madaniyati alohida oʻrin tutadi. Oʻqituvchi har bir darsda, sinfdan va maktabdan tashqari mashgʻulotlarda adabiy til meʼyorlariga qatʼiy rioya qilgan holda, ifodali va taʼsirchan tarzda soʻzlashi lozim. Shuningdek, oʻquvchi daftarlariga yozgan yozuvlarida husnixatga, imlo qoidalariga, tinish belgilarining toʻgʻri qoʻllanishiga eʼtibor berishi zarur.

Bunday talabchanlik bolalarni to'g'ri, xatosiz, ifodali yozishga va gapirishga o'rgatadi, ularning tilga bo'lgan sezgirligini oshiradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita nima?
2. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar qanday?
3. O'quvchilar nutqini o'stirishning boshqa predmetlar bilan bog'liqligini tushuntiring?
4. O'quvchilarning nutqini aniq va to'g'ri shakllantirish uchun qanday ko'nikmalar zarur?
5. Nutqni boyitish va rivojlantirishda o'qituvchining qanday yondashuvi muhim hisoblanadi?
6. Nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'lanish qanday ifodalanadi va bu bog'lanish o'quvchilar nutqini rivojlantirishda qanday rol o'ynaydi?
7. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lishi uchun qanday shartlarga rioya qilish lozim?
8. Nutqning mantiqiy bo'lishi nimani anglatadi? Misollar keltiring.
9. O'quvchi nutqining aniqligi qanday mashqlar orqali ta'minlanadi?
10. Nutqda til vositalariga boylikni shakllantirish uchun qanday topshiriqlar berish mumkin?
11. Nutqning tushunarligi va ifodaliligini ta'minlashda o'qituvchining roli haqida fikr yuriting.
12. Nutqning to'g'riligini ta'minlash uchun qaysi darslar bilan uzviy bog'liqlik zarur?
13. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar o'zaro qanday bog'liq?

Testlar.

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lishi uchun qanday materiallardan foydalanilishi kerak?
 - A) Faqat darslik matnlari
 - B) Kuzatishlar, hayotiy tajriba, kitoblar, ommaviy axborot vositalari

- C) Faqat adabiy asarlar
 - D) O‘qituvchi hikoyalari
2. Nutqda mantiqiylik nimani anglatadi?
- A) Fikrni qisqa bayon qilishni
 - B) Fikrning izchil, asosli va ortiqcha takrorsiz bo‘lishini
 - C) Fikrni qisqa gaplarda ifodalashni
 - D) Fikrni eshituvchiga yoqimli qilishni
3. Nutqning aniqligi qanday ta’riflanadi?
- A) Dalillarni haqiqatga mos ravishda ifodalash va mos til vositalaridan foydalanish
 - B) Faqat qisqa gaplardan foydalanish
 - C) Fikrni she’riy tarzda ifodalash
 - D) Nutqni oddiy qilib tushuntirish
4. O‘quvchilar nutqi til vositalariga boy bo‘lishi uchun nima zarur?
- A) So‘z boyligini oshirish, sinonim va xilma-xil gaplardan foydalanish
 - B) Faqat adabiy asarlarni o‘qish
 - C) Faqat grammatik mashqlar bajarish
 - D) Yodlash mashqlarini ko‘paytirish
5. Nutqning tushunarli bo‘lishi qanday omilga bog‘liq?
- A) O‘qituvchining nutqiga
 - B) Nutqni eshituvchi va o‘quvchining imkoniyati va qiziqishini hisobga olishga
 - C) Nutqni qisqa qilishga
 - D) Nutqni yozma shaklda ifodalashga
6. Nutqning ifodaliligi qanday ta’minlanadi?
- A) Intonatsiya, emotsional so‘zlar, obrazli ifodalar orqali
 - B) Faqat grammatik qoidalarga rioya qilish orqali
 - C) Fikrni qisqa qilish orqali
 - D) Faqat yozma nutq orqali

7. Nutqning to'g'riligini ta'minlashda nimalar muhim?

- A) Adabiy til me'yorlariga rioya qilish, grammatik va imlo qoidalarini bilish
- B) Faqat orfoepik talaffuzni o'rganish
- C) Sheva va so'zlashuv tilidan foydalanish
- D) Nutqni qisqartirish

8-BOB. BOG'LANISHLI NUTQ VA UNI O'STIRISH VAZIFALARI.

Tayanch so'zlar: nutq, idrok, ichki nutq, analiz, sintez, o'quvchi, o'qituvchi, rivojlanish, nutq turlari, nutqning mantiqiyligi, bog'lanishli nutq.

8.1. Bog'lanishli nutq haqida umumiy tushuncha.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq bog'lanishli nutq deyiladi.

Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o'qituvchi bergan savolga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin.

Boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) o'qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o'rganish; o'quvchilar lug'atini faollashtirish bilan bog'liq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam o'tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;
- 4) o'qilgan matnni turli variantda og'zaki qayta hikoyalash;
- 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoyasi;

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog'lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo'lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

Bog'lanishli nutq – fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, grammatik va mantiqiy qoidalarga asoslangan, mustaqil va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutqdir. Bog'lanishli nutq shakllari sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabi asarlar namuna bo'la oladi. Maktab sharoitida esa o'qituvchi bergan savolga o'quvchilarning keng va mukammal og'zaki javoblari, shuningdek, yozma bayon va insho shaklidagi ishlari bog'lanishli nutqga misol bo'ladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqni o'stirishdan quyidagi ko'nikmalarni bilib oladilar:

1. Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to'liq yoritish ko'nikmasi. Masalan, «Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?» mavzusi berilsa, o'quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular

mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

2. *Inshoni asosiy fikrga bo'ysundirish ko'nikmasi.* Bolalar ishi ma'lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o'zlarining baxtli hayotidan g'ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

3. *Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish.* Bu bayonga ham taalluqli bo'lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to'g'ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

O'qituvchidan o'quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o'quvchilarni nimaga o'rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirish talab etiladi. SHuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

Metodik an'anaga ko'ra matnli mashqlar *tasvirlash, hikoya qilish* va *muhokamaga* bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda bular, asosan, *tasvir* yoki *muhokama* elementlari bo'lgan hikoya tarzida uchraydi.

Har uchala janr uchun foydalaniladigan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o'qituvchi (yoki o'quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi.

Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo'shqin, jonli, ta'sirchan bo'ladi. «O'qish kitobi»da bunday hikoyalar ko'plab berilgan.

Tasvirda syujet, qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar «O'qish kitobi»da berilgan ko'pgina tasviriy matnlarni o'qiydilar, ularni qayta hikoya qiladilar, bayon, ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlab insho ham yozadilar. Masalan, «Bizning sinfimiz», «Bahor keldi» kabi. Tasvirga xos xususiyatlar shundan iboratki, unda sifatlash, taqqoslash, metaforalar ko'p bo'ladi. Tasvir o'quvchilar uchun hikoyaga nisbatan qiyin janr

hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflarda ko'proq tasvir elementlari bo'lgan hikoya tarzidagi bayon va insho yozdiriladi.

Muhokama bog'lanishli matnning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o'quvchilar inshoda muhokama elementlaridagina foydalanadilar. Masalan, «Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas», «Paxta – bizning milliy boyligimiz» mavzularida og'zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elementi, albatta, bo'ladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko'zda tutadi va o'quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o'rgata boradi. Bunda ko'proq hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamiyat beradi. Bolalarning bog'lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi.

Boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqni rivojlantirish uchun quyidagi mashq turlari tavsiya etiladi:

Berilgan savolga keng va to'liq javob berish;

O'qilgan matnlarni tahlil qilish, grammatik materialni o'rganish hamda o'quvchilar lug'atini boyitish maqsadida turli matn mashqlari bajarish;

Muntazam kuzatishlar asosida yozuv yuritish, masalan, ob-havo kundaligini tutish;

O'qilgan matnni turli usullarda og'zaki qayta hikoya qilish;

Berilgan mavzu, rasm yoki kuzatishga oid, boshi yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoya tuzishlari;

Badiiy matnlarni yodlash va ularni hikoya qilish;

Ertakni tayyorlanmasdan so'zlab berish, kichik she'r yoki hikoya tuzish;

Namunasi berilgan badiiy yoki ilmiy-ommabop matn asosida bayon yozish;

O'qituvchi bergan matnni og'zaki va yozma qayta tuzish, jumladan tanlab qayta hikoya qilish, ijodiy qayta hikoyalash va sahnalashtirish;

Har xil turdagi yozma insho yozish.

Mazkur mashqlar nazariy bilimlardan ko‘ra, amaliy tarzda bajarilishi lozim. Shuningdek, bu mashqlarni takroran ishlatmaslik yoki muhimlarini tashlab qo‘ymaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejalari tuzilib boriladi. Bog‘lanishli nutq mashqlarining turli xil bo‘lishi asosan material manbaiga, mavzu va janrga, shuningdek til xususiyatlari va mashq turiga bog‘liq holda belgilanadi.

Shunday qilib, bog‘lanishli nutqni shakllantirish va rivojlantirish uchun tizimli, mazmunli va o‘quvchilarning saviyasiga mos mashqlarni muntazam va rejalashtirilgan tarzda o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

8.2 Bog‘lanishli nutqdan mashq turlari.

Bog‘lanishli nutq mashqlarining xilma-xilligi, avvalo, material manbasi, tematikasi, janri, til xususiyatlari hamda mashq turiga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilarning nutqini rivojlantirish ularga aniq ko‘nikmalarni singdirishni anglatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mustaqil mashq sifatida bog‘lanishli nutqni rivojlantirish jarayonida quyidagi ko‘nikmalarni egallaydilar:

Mavzuni tushunish va chegarasini aniqlash, uni nisbatan to‘liq yoritish ko‘nikmasi. Masalan, “Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?” mavzusi berilganda, o‘quvchilar o‘zlari bajargan ishlar haqida hikoya qiladilar. Mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qilinadi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashqi bajariladi.

Inshoni asosiy fikrga bo‘ysundirish ko‘nikmasi. Bolalar o‘z ishlarida ma’lum bir fikrni ifodalaydilar – masalan, tabiatning go‘zalligini idrok etish, baxtli hayotdan g‘ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni yoritish.

Hikoya yoki insho uchun mavzuga mos, uni yoritishga zarur materialni yig‘ish ko‘nikmasi. Bu bayon uchun ham muhim bo‘lib, o‘quvchilar namunaviy matnlarni tahlil qilib, ularning mazmunini to‘g‘ri tushunish va asosiy mazmunni ajratishni o‘rganadilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarni keyingi inshoga tayyorlash jarayonida mashqning pedagogik maqsadini, o‘quvchilarni nimaga o‘rgatishni, ularning tafakkuri va

nutqini qanday boyitishni aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, mashqlar izchilligida har bir inshoning o'rnini va ahamiyati yodda tutilishi kerak. Shu sababli, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishga oid mashqlar uchun bir yillik reja tuzish tavsiya etiladi. Ushbu rejada o'quvchilarning yoshiga mos bayon va insho turlarining barchasi hisobga olinadi.

Metodik an'anaga ko'ra, matnli mashqlar tasvirlash, hikoya qilish va muhokama qilish kabi uch asosiy turga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda bu mashqlar ko'pincha tasvir yoki muhokama elementlari bilan boyitilgan hikoya shaklida olib boriladi. Har uchala janr uchun foydalaniladigan materiallar, ularning qurilishi va til vositalarini tanlash o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Insho yoki bayonga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi (yoki o'quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayniqsa mos keladigan janr hisoblanadi, chunki u jonli, ta'sirchan va jo'shqin bo'ladi. "O'qish savodxonligi kitobi"da bunday hikoyalar ko'p uchraydi.

Tasvir janrida esa syujet yoki qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; unda ko'proq tabiat, ayrim predmetlar va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar "O'qish kitobi savodxonligi" da berilgan ko'plab tasviriy matnlarni o'qib, ularni qayta hikoya qilish, bayon qilish hamda ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlab insho yozishni o'rganadilar. Masalan, "Bizning sinfimiz", "Bahor keldi" kabi mavzular.

Tasvirga xos xususiyatlar sifatlash, taqqoslash va metaforalar ko'pligida namoyon bo'ladi. Shu bois tasvir janri boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun hikoyaga nisbatan murakkabroq hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda ko'proq tasvir elementlari bilan boyitilgan hikoya uslubidagi bayon va insholar yozdiriladi.

Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabi yozma va og'zaki asarlarni keltirish mumkin. Maktab sharoitida esa o'qituvchi tomonidan berilgan savolga o'quvchilarning keng va mukammal og'zaki javoblari, shuningdek yozma bayon va insho shaklida ifodalar olinadi.

Boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqni rivojlantirish uchun quyidagi mashq turlari qo'llaniladi:

Berilgan savolga keng va to'liq javob berish;

O'qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materiallarni o'rganish hamda o'quvchilarning lug'atini boyitishga qaratilgan turli matnli mashqlar;

Muntazam ravishda kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;

O'qilgan matnni turli variantlarda og'zaki qayta hikoya qilish;

Berilgan mavzu, rasm yoki kuzatishlarga oid boshlang'ich yoki yakuniy qismlari berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoya qilishlari.

Ushbu mashqlar nazariy ma'lumotlarga bog'lanmasdan, amaliy tarzda bajariladi. Mashqlarni takroriy ravishda ishlatmaslik va muhimlarini o'tkazib yubormaslik maqsadida nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib chiqiladi. Bog'lanishli nutq mashqlarining turli xil bo'lishida, avvalo, material manbasi, tematikasi, janri, til xususiyatlari va mashq turiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar nutqini rivojlantirish deganda ularga aniq ko'nikmalarni singdirish tushuniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqni shakllantirish orqali quyidagi muhim ko'nikmalarni egallaydilar:

Birinchiidan, mavzuni to'liq tushunish, uning chegarasini aniqlash va uni nisbatan keng yoritish qobiliyati rivojlanadi. Masalan, «Biz uy ishlarida otanamizga qanday yordamlashamiz?» mavzusi berilganda, o'quvchilar o'z bajargan ishlarini aniq bayon qiladilar. Mavzuni chuqurroq anglash uchun bayon matni qayta hikoya qilinadi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil ravishda hikoya qilish mashq qilinadi.

Ikkinchiidan, inshoni asosiy fikrga bog'lash ko'nikmasi shakllanadi. Bolalar o'z ishlarida muayyan fikrni ifodalashadi — masalan, tabiatning go'zalligini anglash, baxtli hayotlaridan g'ururlanish yoki mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni yoritish kabi.

Uchinchiidan, hikoya va insho uchun mavzuga tegishli, uni to'liq yoritishga yordam beradigan materiallarni to'plash ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bu jarayonda

namunaviy matn tahlil qilinib, mazmuni to'g'ri tushunishga va asosiy g'oyani ajratib olishga alohida e'tibor qaratiladi.

O'qituvchi navbatdagi inshoga o'quvchini tayyorlashda mashqning pedagogik maqsadini, o'quvchilarga beriladigan bilim va ko'nikmalarni, tafakkur va nutqini qanday boyitishni hamda mashqlar izchilligida inshoning o'rnini aniq belgilab olishi kerak. Shu sababli, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish uchun bir yillik mashq rejasini tuzish tavsiya etiladi. Bu reja yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda bayon va inshoning barcha turlarini o'z ichiga olishi zarur.

Metodik an'anaga ko'ra, matnli mashqlar tasvirlash, hikoya qilish va muhokama qilish bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda esa bu elementlar asosan tasvir yoki muhokama qo'shilgan hikoya shaklida namoyon bo'ladi. Har bir janr o'ziga xos material, qurilish va til vositalarini talab qiladi. Insho yoki bayon tayyorlash jarayonida o'qituvchi yoki o'quvchi matnning janr xususiyatlarini inobatga oladi.

Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng mos janr hisoblanadi, chunki u jonli, ta'sirchan va jo'shqin bo'ladi. «O'qish kitoblarida» bunday hikoyalar keng berilgan. Tasvir janrida esa syujet va qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; bunda ko'proq tabiat, predmet va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar «O'qish kitobi»dagi ko'pgina tasviriy matnlarni o'qib, ularni qayta hikoya qiladi, bayon va inshoda ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlaydilar. Masalan, «Bizning sinfimiz», «Bahor keldi» kabi mavzular shular jumlasidandir. Tasvir janrining o'ziga xosligi shundaki, unda sifatlash, taqqoslash, metaforalarga ko'p murojaat qilinadi. Shu sababdan, tasvir janri boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun hikoyaga nisbatan murakkabroq hisoblanadi va ko'proq tasvir elementlari qo'shilgan hikoya tarzidagi bayon va insholar yozdiriladi.

Muhokama esa bog'lanishli nutqning eng murakkab shakli bo'lib, boshlang'ich sinflar dasturida muhokama janrida insho yozdirish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar inshoda faqat muhokama elementlaridan foydalanadilar. Masalan, "Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas?" yoki "Paxta — bizning milliy boyligimiz" mavzularida og'zaki yoki yozma hikoya tuzdirilganda muhokama elementi albatta mavjud bo'ladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda turli janrlarda mashqlar berishni ko'zlaydi va o'quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini asta-sekin o'rgatadi. Asosan, ko'proq hikoya uslubidagi matnlarni tuzdirishga e'tibor qaratadi. Bolalarning bog'lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnlarga tasvir va muhokama elementlari qo'shib boriladi.

8.3 Bog'lanishli nutqqa oid aniq ko'nikmalar

Til – fikrni ifodalash, ma'lumot uzatish, muloqot qilish vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Nutq esa til vositalarining real qo'llanilishidir. Bog'lanishli nutq esa mantiqan, grammatik jihatdan va mazmunan tartiblangan, izchil, yaxlit nutqdir. Bu nutq turi muloqot jarayonida fikrni aniq, tushunarli, izchil yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Bog'lanishli nutq – bu fikrlarning izchil, mantiqan asoslangan, grammatik jihatdan to'g'ri va mazmunan yaxlit ifoda etilgan shaklidir. U inson tafakkurining tiniq oynasi, so'zning tartibli oqimidir. Bunday nutqda fikrlar nafaqat bir-biriga bog'liq, balki o'zaro uyg'un, mazmunga xizmat qiluvchi holda ifodalanadi.

Bog'lanishli nutqning zamini – izchillik va mantiqiy bog'liqlikdir. Har bir jumla o'zidan oldingi fikrga tayanadi va keyingisini tayyorlaydi. Tuzilmaviy yaxlitlik esa nutqning boshidan oxirigacha bir butun, mustahkam asosga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Uslubiy aniqlik – bu fikrni joyida, o'ziga xos ohangda ifodalash san'atidir. Axborotning tushunarliliigi esa nutqning bosh maqsadini – eshituvchiga yoki o'quvchiga to'g'ri va tiniq axborot yetkazishni kafolatlaydi.

Bog'lanishli nutq ikki shaklda – og'zaki va yozma holda namoyon bo'ladi. Og'zaki nutqda ohang, pauza, imo-ishoralar yordamida fikr boyitilsa, yozma nutqda mazmun, izchillik va uslub ustuvorlik kasb etadi. Har ikkala holatda ham mazmunli, tushunarli va ta'sirchan fikr bildirish uchun alohida ko'nikmalar zarur bo'ladi.

Bog'lanishli nutqning asosiy turlari (adabiy shakli)

Inson tafakkurining soʻzga koʻchgani – nutq boʻlsa, uni ravon, chiroyli va izchil ifodalash sanʼati bogʻlanishli nutq deb ataladi. Bu nutqning koʻrinishlari ham xilma-xil boʻlib, har biri oʻziga xos maqsad, mazmun va shaklga ega. Ular orqali inson dunyoni tasvirlaydi, voqealarni hikoya qiladi, tushunchalarni sharhlaydi va fikrlarini himoya qiladi. Bogʻlanishli nutqning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Hikoya qilish (narrativ)

Bu nutq turida voqea-hodisa vaqt ketma-ketligiga amal qilgan holda bayon etiladi. Voqealar xuddi tasvirga tushayotgandek birin-ketin koʻz oldimizdan oʻtadi. Hikoya orqali biz nafaqat hodisani, balki undagi kechinma, harakat, ruhiy holatlarni ham ilgʻaymiz. U goh ertakdek shirin, goh esa hayotiy haqiqatdek ogʻriqli boʻlishi mumkin.

2. Tavsiflash (deskriptiv)

Tavsiflashda soʻz rassomga aylanadi: u har bir narsa, shaxs yoki hodisaning tashqi va ichki xususiyatlarini ohangdorlik bilan tasvirlaydi. Rang, shakl, holat, kayfiyat — barchasi tasvir tilida jonlanadi. Bu turdagi nutqda har bir detal ahamiyat kasb etadi, chunki u orqali tasvir toʻla maʼno kasb etadi.

3. Izohlash (ekspozitiv)

Izohlovchi nutqda aql, tafakkur va aniqlik ustuvor boʻladi. Bu turdagi nutq orqali inson tushunchalarni sharhlaydi, sabab-oqibat bogʻliqliklarini ochib beradi, fikrlar orasidagi munosabatni yoritadi. Ilmiy, rasmiy yoki tushuntiruvchi matnlar aynan shu nutq turiga mansub boʻladi.

4. Bahslashish (argumentativ)

Bu nutq turida fikrlar toʻqnashadi, dalillar kurashadi, haqiqat yuzaga chiqadi. Bahslashuvchi nutq – bu faqat qarama-qarshi fikrlar emas, balki oʻz fikrini asoslab berish, isbotlash, eʼtiroz bildirish va ularni rad etish sanʼatidir. U inson tafakkurining mustahkamligi va mulohaza yuritish salohiyatini namoyon etadi.

Mantiqiy izchillikni saqlash — fikrlarning yoʻl xaritasi

Nutq mantiqiy zanjirday bogʻlangan boʻlishi kerak: har bir fikr oʻzidan avvalgisini davom ettiradi va keyingisini tayyorlaydi. Bu izchillik sabab va oqibatni, vaqt va joyning almashinuvini, hodisalarning rivojlanishini aniq ifodalash orqali

namoyon bo‘ladi. Talaba yoki o‘quvchi so‘zlayotganida yoki yozayotganda xuddi bir daryoning oqimi singari, fikrlarini tartib bilan bayon qila olishi zarur.

2. Bog‘lovchi vositalardan foydalana olish — nutqni bog‘lab turuvchi ko‘priklar

Nutqning uzviyligini ta‘minlovchi eng kuchli vositalardan biri – bog‘lovchilardir. Ular fikrlar orasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi, jummalarni bir-biriga bog‘laydi, matnni yaxlit holga keltiradi. Masalan:

Ko‘makchilar: “bilan”, “uchun”, “tufayli” kabi so‘zlar ma‘no zanjirini mustahkamlaydi.

Bog‘lovchilar: “ammo”, “lekin”, “shuningdek” kabi birliklar esa qarama-qarshi yoki qo‘shimcha fikrlarni ifodalaydi.

Ko‘rsatkichlar: “bu”, “shu”, “ana”, “ular” kabi ishora vositalari matn ichidagi fikrlar orasida aloqa yaratadi.

Bog‘lovchi vositalar – bu nutqning ichki mexanizmi, yuragini urdiruvchi ritmdir.

3. Nutqiy birliklarni izchil qo‘llay olish — fikr qurilishining asoslari

So‘zlar gapga, gaplar esa paragrafqa, paragraflar esa butun matnga aylanishi kerak. Har bir birlik o‘z joyida, o‘z vazifasida bo‘lishi zarur. Nutqiy birliklarni izchil qo‘llash – bu fikr ifodasining me‘moriy binosini barpo etish demakdir. Har bir g‘isht o‘z o‘rnida bo‘lmasa, bino qulaydi – nutq ham xuddi shunday.

Matn tuzilmasini tushunish va yaratish – mazmunni ramkaga solish

Har qanday yaxlit nutq aniq tuzilishga ega bo‘lishi kerak. Kirish – tinglovchini tayyorlaydi, asosiy qism – mazmunni ochadi, xulosa esa fikrga yakun yasaydi. Bu qismlarning har biri bir-birini to‘ldiradi, birgalikda esa butun matnning ma‘nosini anglatadi. Matn yaratishda bu tuzilmani ongli ravishda idrok qilish va unga rioya etish – muhim ko‘nikmadir.

Nutq uslubiga mos til birliklarini tanlay olish – ohangdor so‘zlar sehgargarligi

Nutq maqsadga va vaziyatga mos bo‘lishi kerak. Ilmiy mavzuda badiiy obrazlarga to‘la so‘zlash noqulay bo‘lgani kabi, badiiy asarda quruq rasmiy uslub ham yot tuyuladi. Shu bois, o‘quvchi yoki talaba rasmiy, ilmiy, og‘zaki va badiiy

uslublarning farqini bilishi, ularga mos soʻz va iboralarni tanlay olishi lozim. Bu – soʻzning nafisligini anglash, uni joyida ishlata bilish mahoratidir.

Soʻz – inson tafakkurining aks-sadosi, nutq esa bu soʻzlarning muvofiq va izchil uygʻunligidir. Har bir inson oʻz fikrini tiniq, ravon va taʼsirchan ifoda etishni istaydi. Biroq bu isteʼdod emas, balki shakllantiriladigan, sayqallanadigan koʻnikmadir. Bogʻlanishli nutqni oʻstirish uchun esa muntazam mashq, ongli yondashuv va ijodiy yondashuv zarur. Quyida bu yoʻlda samarali boʻlgan usullar bayon etiladi.

Yaxshi nutq yaratish, avvalo, yaxshi matnni tushunishdan boshlanadi. Oʻquvchi yoki talaba matnni oʻqibgina qolmasligi, balki uni tahlil qilishi, undagi asosiy gʻoya va yordamchi fikrlarni ajrata olishi lozim. Matnni mazmuniy qismlarga boʻlish — bu fikr arxitekturasini anglash, uni ichki tuzilmasi bilan his etish demakdir. Har bir paragraf, har bir ibora oʻz vazifasini bajaradi – buni koʻra olish esa nutq mahoratini oʻstiradi.

Berilgan matn asosida fikrni davom ettirish – bu ijodkorlik mashqi, fikrning mustaqil yoʻl topishiga imkon yaratishdir. Qahramon taqdirining qanday rivojlanishini tasavvur qilish, tugallanmagan fikrni toʻldirish yoki ochiq qoldirilgan muammoni hal etishga urinish – bularning barchasi bogʻlanishli nutqni shakllantirishda bebaho maktabdir.

Reja tuzish va unga asoslangan matn yaratish – fikrni tizimlashtirish sanʼati

Fikr chalkash boʻlmasligi uchun unga yoʻl koʻrsatuvchi reja kerak.

Reja –matnning skeleti, uning ichki tuzilmasi. Har bir boʻlim, har bir band – fikrning bir boʻlagi. Rejaga asoslangan holda matn yozish oʻquvchini tartibli fikrlash, bosqichma-bosqich bayon qilishga oʻrgatadi. Bu esa nafaqat yozma, balki ogʻzaki nutqda ham aniqlik va izchillikni taʼminlaydi.

Bahsli savollarga javob yozish yoki ogʻzaki nutq shaklida ifodalash — fikr bilan kurashish maktabi

Bahsli savol – fikrni mudofaa qilish, dalil keltirish, mulohaza yuritish mashqi. Oʻquvchi oʻz fikrini ifodalabgina qolmay, uni isbotlashga, eʼtirozlarga javob qaytarishga, murosasiz emas, mantiqli tarzda fikrini ilgari surishga oʻrganadi. Bu

ko‘nikma og‘zaki va yozma nutqda muloqot madaniyatini, fikrni to‘g‘ri yetkazish malakasini shakllantiradi.

Rolli o‘yinlar va dialoglar tuzish – muloqot muhiti yaratish

Nutqni faqat o‘qish yoki yozish orqali emas, balki jonli muloqotda shakllantirish ham zarur. Rolli o‘yinlar – bu o‘quvchini real vaziyatga qo‘yish, u orqali so‘zlashishga, savol-javob qilishga, fikr bildirishga undashdir. Dialoglar esa muloqot madaniyatining o‘chog‘i. Ular orqali o‘quvchi har bir so‘zning vaznini, har bir ohangning ta‘sirini his eta boshlaydi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

Matn haqida tushuncha bering.

Bog‘lanishli nutq nima?

Bog‘lanishli nutq birliklariga nimalar kiradi?

Bog‘lanishli nutq uchun qaysi mashq turlaridan foydalaniladi?

Bog‘lanishli nutqqa oid ko‘nikmalarni sanab o‘ting.

9-BOB. BOG‘LANISHLI NUTQ. OG‘ZAKI QAYTA HIKOYA QILISH VA YOZMA BAYON

Tayanch so‘zlar: bayon, matn, tur, savol, og‘zaki, yozma, qayta hikoyalash, yozish, mashq, til, tanlab, qisqartirib, ijodiy.

9.1 Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo‘yilgan talablar.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladigan asosiy mashqlardan biri – bayondir. Bayon – o‘qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma‘lum tayyorgarlikdan so‘ng qayta hikoya qilishdir. Qayta hikoyalash jarayonida o‘quvchi eshitgan matnni xotirasida tiklaydi, eslab qolgan jumlalarni o‘zaro bog‘lab, tizimli tarzda ifoda etadi. Natijada

o'quvchining bog'lanishli, mantiqiy nutqi yanada rivojlanadi. Matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og'zaki qayta hikoyalash kabi mashqlar o'quvchilarni bayon yozishga tayyorlaydi.

Qayta hikoyalashning turlari xilma-xil bo'lib, har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin. Biroq, bayon yozish og'zaki qayta hikoyalashga qaraganda murakkabroq va ko'proq mehnat talab qiluvchi faoliyatdir. Chunki bayon yozish jarayonida o'quvchi so'zlarning to'g'ri talaffuzi (orfoepiya)dan chekinib, ularning to'g'ri yozilishiga (orfografiya) asoslanishi kerak. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish sur'ati sekinligi tufayli, bir fikrni to'liq yozib bo'lgach, keyingi fikrni unutib qo'yish yoki fikrlarning tarqalib ketishi mumkin. Shu sababli boshlang'ich sinflarda hajmi kichik, kompozitsiyasi sodda bo'lgan matnlar tanlanadi. Bu esa o'quvchilarga bayon yozishda osonlik yaratadi va ularning yozma nutqini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflarda bayon yozish jarayoni o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik tayyorgarligiga mos tarzda bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Bayon yozish amaliyoti 2-sinfdan boshlanadi. Chunki 1-sinfdan o'quvchilar hali yozuv elementlarini yangi o'zlashtirayotgan bo'ladi; ularning harfshunoslik ko'nikmalari shakllanayotgan, biroq to'liq malakaga aylanish darajasiga yetmagan bo'ladi.

1-sinf o'quvchilari eshitgan matndagi so'zlarni tovush tarkibi asosida yozishga urinarkan, gapni xayolida tuzib ulgurguncha, uni yozishga kirishguncha eslab qolgan fikrini unutib qo'yishi mumkin. Bu esa ularning mustaqil yozma bayon tuzishiga jiddiy to'siq bo'ladi. Shu sababli 1-sinfdan bayon yozdirilmasligi ilmiy-metodik nuqtai nazardan to'g'ri qarordir.

2-sinfdan boshlab esa bayon yozish uchun hajman kichik, mazmunan sodda, hikoya tarzidagi lavhali matnlar tanlanadi. Bayon matni o'qituvchi tomonidan berilgan savollar asosida yoziladi. Bu savollar reja vazifasini bajaradi. O'quvchilar esa ushbu savollarga suyangan holda matnni mazmunli va izchil ifodalab yozadilar.

Bu bosqichda bayon uchun alohida reja tuzilmaydi, reja funksiyasini o'qituvchi bergan yo'naltiruvchi savollar bajaradi.

3-sinfga kelib esa bayon matnining tarkibi murakkablashtirila boshlanadi. Endilikda o'quvchilar faqat bitta lavhani emas, balki bir-biriga bog'langan bir nechta lavhalarni ifodalovchi matnlar bilan ishlashadi. Bu matnlarga tabiat tasviri, shaxslar harakati, muhokama elementlari kabi tasviriy vositalar kiritiladi. Qahramonlar soni ortadi, voqealar rivoji kengayadi. Bayon yozish esa jamoaviy tarzda tuzilgan 3–5 bandli reja asosida amalga oshiriladi. Bu esa o'quvchilarda mantiqiy izchillik, mazmuniy yaxlitlik va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

4-sinfda bayon yozish jarayoni yanada takomillashadi. Taqdim etilayotgan matnlar hajm jihatdan kattaroq, voqea rivojiga ega, ko'p lavhali va murakkab kompozitsiyaga ega bo'ladi. Ularning tarkibiga shaxsiy fikr, mulohaza va muhokama elementlari ham kiritiladi. O'quvchilardan matnni nafaqat to'liq qayta hikoyalash, balki shaxsini o'zgartirib — ya'ni birinchi shaxs o'rniga uchinchi shaxs tilida yoki aksincha — qayta bayon qilish ham talab qilinadi. 4-sinfda yoziladigan bayonlar albatta o'quvchilarning o'zlari tuzgan mustaqil reja asosida yoziladi.

Boshlang'ich sinflarda tanlanadigan bayon matnlari o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirishga, ularning dunyoqarashini boyitishga xizmat qilishi zarur. Shu bois bayon uchun tanlangan matnlar odatda insonlarning fidokorona mehnati, hayoti, ona tabiat go'zalliklari, fan-texnika taraqqiyoti, madaniyat va ma'naviyat yutuqlarini o'zida aks ettirgan bo'lishi lozim. Bu orqali o'quvchilarda nafaqat yozma nutq, balki estetik did, vatanparvarlik va tafakkur ko'lami ham rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini shakllantirishda qayta hikoyalash mashqlari muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayon ko'pincha maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Qayta hikoya qilish samarali kechishi uchun esa bir qancha didaktik shart-sharoitlarga rioya etish lozim.

Avvalo, o'quvchilarga qaysi turdagi qayta hikoyalash bajarilishi oldindan tushuntiriladi:

To'liq qayta hikoyalash – matnning barcha tafsilotlari, tasviriy vositalari saqlangan holda iloji boricha asl matnga yaqin shaklda hikoya qilish;

Tanlab qayta hikoyalash – matndagi muayyan lavhani, ya’ni biror voqea, qahramon yoki manzaraning tasvirini qayta bayon qilish;

Qisqartirib qayta hikoyalash – matnning asosiy mazmunini saqlagan holda, ikkinchi darajali tafsilotlarni chiqarib tashlab, ixcham shaklda ifodalash.

Shuningdek, matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning matnni to‘g‘ri tushinishi va u yodda yaxshiroq saqlanishi uchun suhbatlar tashkil etiladi, matn tahlil qilinadi, muhim fikr va gaplar ajratiladi. Ifodali o‘qish ustida ishlash esa ularning nutqida hissiylik va ta’sirchanlikni kuchaytiradi, bu esa qayta hikoyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Qayta hikoyalash turlaridan to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash boshlang‘ich sinflarda eng ko‘p qo‘llaniladigan mashq turi sanaladi. Bu turdagi bayon o‘quvchidan voqealarning izchilligini, tasviriy ifodalarni, matnga xos til vositalarini eslab qolishni talab qiladi. Bu esa bolalarning xotirasini mustahkamlab, ularni so‘z boyligini kengaytirishga, ifoda vositalarini o‘z nutqida qo‘llashga o‘rgatadi.

To‘liq qayta hikoyalash mashqlari odatda quyidagi tartibda tashkil etiladi:

Matnni o‘qish: bayon uchun tanlangan matn o‘quvchilar tomonidan ikki-uch marta o‘qiladi. Zarur bo‘lsa, o‘qituvchi uni ifodali tarzda o‘qib eshittiradi.

Suhbat: matnning g‘oyaviy mazmuni, voqealar ketma-ketligi, personajlar harakati haqida suhbat tashkil etilib, o‘quvchilarning matnni to‘g‘ri anglaganliklari aniqlanadi.

Reja tuzish: suhbat davomida yoki undan keyin matnning qismlari aniqlanib, reja tuziladi. Bu o‘quvchiga matn mazmunini izchil va mantiqan bayon etishda ko‘mak beradi.

Lug‘at ustida ishlash: matnda uchraydigan notanish so‘zlar izohlab beriladi, ularning yozilishi va ma’nosi o‘rganiladi. Matndagi muhim gap tuzilmalari va tasviriy vositalarga e’tibor qaratiladi.

Matn tuzish: o‘quvchilarga bayon yozish uchun vaqt beriladi. Bu jarayonda o‘qituvchi umumiy nazorat olib boradi, qiyinchilikka duch kelgan o‘quvchilarga esa shaxsiy yordam ko‘rsatadi.

Tuzilgan bayonni tahlil qilish: o'quvchilar yozgan bayonlarini o'zlari tekshiradilar, kerak bo'lsa, uni takomillashtiradilar. So'ngra daftarda yozilgan bayon o'qituvchiga topshiriladi.

Muhokama: yozilgan bayonlar ustida umumiy tahlil o'tkaziladi. O'quvchilarning matni o'qituvchi o'qib bergan yoki o'qilgan namunaviy matn bilan taqqoslanadi. Bu usul o'quvchilarga o'z ishlari ustida mustaqil fikr yuritish, kamchiliklarini anglash va tuzatish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida bayon yozish va matnni qayta hikoya qilish o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirish va rivojlantirishda g'oyat muhim o'rin tutadi. Har bir o'quvchining fikrlash qobiliyatini, mantiqiy tafakkurini va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda bayon mashqlari beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois, turli mavzulardagi bayon matnlarini tanlashda o'qituvchi alohida e'tiborli bo'lishi zarur. Bu jarayonda zamonaviy davr talablari va darsliklar mazmuni o'rtasidagi uyg'unlik muhim omillardan biri sanaladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlovchi, mustaqil yozma nutq sohibi sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir. Ayniqsa, ularda qayta hikoya qilish va bayon qilishga oid bog'lanishli nutq komponentlarini to'g'ri rivojlantirish boshlang'ich ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, bu bosqichda beriladigan topshiriqlar, mashqlar va bayon turlari orqali o'quvchilar nutqiy faoliyatga keng jalb qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun hikoyalash va bayon mashg'ulotlari nafaqat yozma nutqni rivojlantirish, balki ularni har tomonlama kamol toptirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali bolalarning tafakkuri, tasavvuri, ijtimoiy munosabatlari, shuningdek, tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari bosqichma-bosqich shakllanadi. Ayniqsa, bu mashg'ulotlar o'quvchilarning g'oya qurish, muhokama olib borish, fikr bildirish hamda atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hikoyalash va bayon qilishning boshlang'ich ta'lim bosqichidagi asosiy maqsadlarini quyidagicha izohlash mumkin:

Hikoyalash va bayon o'quvchilarga til boyligini oshirish, so'zlarni to'g'ri va aniq qo'llash, og'zaki va yozma nutqda erkin ifoda qilish malakalarini shakllantirishda samarali vositadir. Bu jarayon orqali bolalar eshitish, tushunish, o'qish va yozish kabi asosiy til ko'nikmalarini puxta egallaydilar.

O'qishga qiziqishni oshirish:

Hikoya va bayon orqali o'quvchilarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Ular o'qish jarayonini maroqli va qiziqarli mashg'ulot sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu esa o'z navbatida darsliklardagi materiallarni chuqurroq o'zlashtirish va bilimga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tushunchalarni kengaytirish:

Hikoyalash va bayon mashqlari o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ular orqali bolalar voqealar, qahramonlar va ularni o'rab turgan muhit haqida chuqurroq tasavvur hosil qiladilar. Bu esa ularning o'z fikrini mustaqil shakllantira olishiga, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni anglashiga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda qayta hikoyalash va bayonning turlari juda ko'p bo'lib, har bir turi o'quvchilarning tajriba, qobiliyatlari hamda maqsadlariga mos ravishda qo'llaniladi. Ushbu turli metodlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan qayta hikoyalash va bayonning eng keng tarqalgan turlari keltirilgan:

Muntazam muzokaralar orqali hikoyalash va bayon qilish:

Ushbu usulda o'quvchilar o'rtasida muntazam ravishda fikr almashish va munozaralar tashkil etiladi. Bu jarayon o'quvchilarning o'z fikrlarini ravon va aniq ifodalashiga, fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning qiziqishlarini oshirib, har bir bola uchun faol ishtirok muhitini yaratadi.

O'quvchilar o'zlarining kichik hikoyalarini yaratishni o'rganadilar. Bu jarayonda ularga so'z boyligini kengaytirish, mantiqiy izchillikni saqlash va mavzuga mos uslubni tanlash bo'yicha ko'mak beriladi. O'z ijodlarini sinfda taqdim

etish esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va yozma nutqini yanada rivojlantiradi.

O'quvchilar hikoyalar qahramonlarini batafsil tavsiflashga o'rgatiladi. Ularning xarakter xususiyatlarini, hissiyotlarini va munosabatlarini aniqlash orqali bolalar analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu usul nafaqat til ko'nikmalarini, balki ijtimoiy va axloqiy tushunchalarni ham chuqurlashtirishga yordam beradi.

Umuman olganda, qayta hikoyalash va bayonning ushbu turlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirishda, ularni ijodiy fikrlashga rag'batlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Boshlang'ich sinfda hikoyalash va bayon mashg'ulotlari o'quvchilarning o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etishi, ularni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish hamda ijodkorlik darajasini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayon orqali bolalar o'z tushunchalari, g'oyalari va dunyoqarashlarini kengaytirib, yanada boyitish imkoniga ega bo'ladilar.

Hikoyalash va bayon mashg'ulotlari o'quvchilarga bir-birining fikrlariga e'tibor berishni, mulohazalarini tinglashni va kelajakda samarali muloqot o'rnatishni o'rgatadi. Shuningdek, bolalar o'z fikrlarini boshqalarga ravon va aniq tushuntirish, izohlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Analitik fikrlash qobiliyatlari

Ushbu faoliyat o'quvchilarda dunyoqarashni kengaytirish bilan birga, voqealar, qahramonlar, muhit va mavzularni chuqur tahlil qilishga o'rgatadi. Bolalar hikoya qahramonlarining xatti-harakatlarini va ularning atrofidagi vaziyatlarni analiz qilish orqali fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashadi.

Ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi

Hikoyalash va bayon jarayonlari o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rish, hamkorlikda ishlash va jamoada fikr almashish ko'nikmalarini egallaydilar.

Bayon – o'qib eshitilgan matnning ma'lum tayyorgarlik asosida yozma shaklda qayta hikoya qilinishidir. O'quvchilarda bayon yozish ko'nikmasini shakllantirish

uchun, avvalo, o‘qish darslarida matn ustida tizimli ish olib boriladi: o‘qilgan matn mazmuni bo‘yicha savollarga javob beriladi, rejasi tuziladi va shu reja asosida og‘zaki hikoyalash mashq qilinadi. Aynan shu jarayonlar bolalarni yozma bayon yozishga bosqichma-bosqich tayyorlaydi.

Dars jarayonida berilgan namunaviy matnlar avval og‘zaki, so‘ng yozma shaklda qayta hikoya qilinadi. Odatda, o‘qish darslarida ko‘proq og‘zaki qayta hikoyalashga e‘tibor qaratilsa, ona tili darslarida bu ish yozma tarzda amalga oshiriladi. Bu ikki yondashuv bir-birini to‘ldiradi va o‘quvchilarning fikrni izchil bayon qilish malakasini rivojlantiradi.

9.2 Qayta hikoyalash va bayonning turlari.

Qayta hikoyalash turlari xilma-xildir. Har qanday qayta hikoyalangan matndan bayon yozish mumkin. Biroq bayon yozish – og‘zaki hikoyalashga qaraganda ancha murakkab va mas‘uliyatli ijodiy faoliyat sanaladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish tezligi sekin bo‘lganligi bois, ularga bayon uchun kichik hajmli, tuzilishi oddiy, tili soddaligi bilan ajralib turadigan matnlar tanlab beriladi.

Bayon matni asta-sekinlik bilan murakkablashtiriladi: dastlab, birgina lavhani ifodalovchi hikoya tanlansa, keyingi bosqichlarda matnga qo‘shimcha lavhalar, tasviriy elementlar, yangi obrazlar kiritiladi, muhokama yoki bahs unsurlari ham joy oladi. So‘ngra esa, shaxslar nuqtayi nazarini o‘zgartirib bayon qilish topshiriqlari beriladi. Natijada bayon oddiy qayta hikoyalashdan chiqib, asta-sekin ijodiy tus ola boshlaydi.

Bayon mashqlarining ahamiyati beqiyosdir. U bolalarda adabiy nutqni to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qiladi, ularning nutq madaniyatini oshiradi, badiiy ifoda vositalarini o‘zlashtirishga yordam beradi va til sezgirligini rivojlantiradi. Shu tariqa, bayon mashqlari bolalarni mustaqil fikrlashga, aniq va izchil ifoda qilishga, adabiy nutqda so‘zlasha olishga o‘rgatadi.

Qayta hikoyalash va bayon – bolalar tilini boyituvchi, ularning tafakkurini teranlashtiruvchi, nutqini shiradorlashtiruvchi mashqlar sirasidandir. Ammo bu

jarayon chinakam samarali bo‘lishi uchun bolalar faqat eslab qolish yoki yodlash bilan cheklanib qolmasligi, balki matni to‘liq anglab, uni o‘z tili, o‘z so‘zlari, o‘z ohangida qayta hikoya qila olishi zarur. Shu bois, bolaning tabiiy nutqi, ya’ni o‘zlashtirgan til boyligini qo‘llab, mustaqil ifoda etishi jarayonning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Matni o‘qish, suhbatlashish, tahlil qilish davomida bolalar nafaqat mazmuni, balki til vositalarini – so‘zlar, iboralar, gap qurilishini – o‘zlashtirib boradilar. Bu jarayon o‘z-o‘zidan, bosqichma-bosqich sodir bo‘ladi. O‘quvchi matndagi ba’zi gaplarni yodga tushiradi, eslab qolgan fikrni o‘z nutqida ifodalashga intiladi. Bu esa uning mustaqilligini oshiradi, bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va ijodiy yondashuvga yo‘l ochadi.

Qayta hikoyalash jarayonida matnning izchil, bog‘liq bo‘lishi, asosiy voqealar, g‘oyalar to‘liq ifoda etilishi lozim. Ayniqsa, ilmiy matnlar bilan ishlaganda, har bir muhim jihat yodda saqlanishi va bayon etilishi talab etiladi. Ba’zida ilgari eshitilgan – o‘qituvchi o‘qib bergan yoki televizor, radio orqali tinglangan matnlar asosida ham qayta hikoyalash topshiriqlari berilishi mumkin. Bu usullar nafaqat mashg‘ulotlarni jonlantiradi, balki turli uslublarni qo‘llash imkonini ham yaratadi.

Qayta hikoyalashga alohida tayyorgarlik ko‘riladi. Bu jarayonda bir necha muhim bosqichlarga e’tibor qaratiladi:

Avvalo, bolalarga qanday turdagi qayta hikoyalash bo‘lishi haqida ma’lumot beriladi. Masalan, to‘liq hikoyalash, ya’ni matnga iloji boricha yaqin, barcha tafsilotlari bilan hikoya qilish; tanlab hikoyalash, ya’ni biror qahramonga oid voqealarni ajratib bayon etish; yoki qisqartirib hikoya qilish, ya’ni asosiy mazmuni qisqacha, lekin ravon ifodalash.

Matn ustida suhbatlashish, asosiy mazmuni tahlil qilish, matndagi muhim so‘zlar va iboralarni ajratish – qayta hikoyalash uchun zarur tayyorgarlik ishlaridir.

Ifodali o‘qishga e’tibor qaratiladi. Chunki bayonning ifodali bo‘lishi o‘quvchining fikrini yorqin, ta’sirli yetkazishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘pincha to‘liq va matnga yaqin hikoya qilish ustida ishlanadi. Bu metod bolalarning eshitganini yaxshiroq eslab qolishiga, matn

mazmuni va tilini chuqurroq o‘zlashtirishiga ko‘mak beradi. Biroq she‘rlar bilan ishlaganda ehtiyot bo‘lish lozim – ayniqsa, poetik obrazlarni o‘z ichiga olgan lirik she‘rlarni yodlash yoki qayta hikoya qilish, ularning badiiy go‘zalligini buzishi mumkin.

Dastlab, aniq syujetga ega hikoyaviy matnlar tanlanadi. So‘ngra bolalar asta-sekin tasviriy vositalardan – tabiat manzarasi, odamlar yoki buyumlarning tashqi ko‘rinishi, muhokama elementlaridan foydalanishga o‘rgatiladi. Ularni quyidagi savolga javob izlashga undash maqsadga muvofiq: “Bu fikr yozuvchi matnida qanday ifodalangan?” Eng muhimi, bola hikoya qilish jarayoniga qiziqsin. Agar hikoyani faqat o‘qituvchi emas, butun sinf tinglasa, bu jarayon yanada jonli va samimiy kechadi. Bolaning nutqi o‘z ifodasini topa boshlaganda, uning har bir so‘zi, har bir jumlasini o‘ziga xos dunyoni ochib beradi. Matnga yaqin hikoya qilishda ham o‘quvchining o‘z fikrini mustaqil bayon etishi, matnni anglagan holda so‘z yuritishi ayni muddaodir. Shu bois, beriladigan savollar faqatgina matn mazmunini eslatish, uni takrorlatishga emas, balki bolani o‘ylashga, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga undashi kerak. Dastlab aniq, yo‘naltiruvchi savollar yordam bersa-da, vaqt o‘tgan sayin bu savollar umumiyroq, kengroq mazmunga ega bo‘lib borishi lozim. Zero, bu o‘quvchini erkin fikrlashga, mustaqil mulohaza yuritishga o‘rgatadi. Ba’zida to‘liq hikoya qilish jarayonida bolalar hikoyani qanday boshlashni bilmay qoladilar, fikrni davom ettirishda qiynaladilar yoki bayon tilida xatolarga yo‘l qo‘ladilar. Bu holatlarda matn ustida puxta ishlash, uni qismlarga bo‘lish, asosiy mazmunni ajratib olish, har bir qismga sarlavha topish, reja tuzish kabi ishlar yordamga keladi. Bunday usullar nafaqat hikoyaning mantiqiy tuzilishini tushunishga, balki uni aniq va izchil bayon qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, tilning kambag‘alligi – o‘quvchilarning boy ifodaviy vositalardan foydalana olmasligi – jiddiy muammo sanaladi. Buni bartaraf etish uchun doimiy lug‘at ustida ishlash, matndagi tasviriy ifoda vositalarini tahlil qilish, gap qurilmalari bilan tanishtirish va ularni amalda qo‘llatish zarur. To‘liq va matnga yaqin bayon yozish mashqlari savod o‘rgatish bosqichidan boshlab bosqichma-bosqich rivojlantirilib boriladi va barcha sinflarda davom ettiriladi.

Bolaning o‘z fikrini yozma tarzda ifodalashga o‘rgatish erta boshlanishi lozim. Bu jarayon oddiy so‘zlardan boshlanib, so‘ngra jumla, keyin esa butun matn tuzishga olib keladi. Masalan, 2-sinfdan boshlab bolalarga maxsus tanlangan kichik matnlar asosida bayon yozdirish tavsiya etiladi. Ish jarayoni esa quyidagicha tashkil etiladi: o‘quvchilar matnni ikki-uch marta o‘qiydilar yoki uni o‘qituvchi ifodali tarzda o‘qib beradi; so‘ng bolalar matn mazmunini tushunganlik darajasini aniqlash uchun suhbat tashkil etiladi. Ushbu suhbatda matn g‘oyasi, qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, asosiy fikrlar ochib beriladi.

Matn rejasi tuziladi – bu suhbat davomida ham amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, lug‘at ustida ishlanadi: so‘zlarning ma‘nosi va imlosi izohlanadi, muhim sintaktik tuzilmalar, tasviriy ifoda vositalari alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Ayrim gaplar, hatto matn qismlari o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan tuziladi. So‘ng, o‘quvchilar bayonni mustaqil tarzda yozadilar, o‘qituvchi esa ular ishiga aralashmasdan, faqat zarur bo‘lganda, shaxsiy yordam ko‘rsatadi. Ish yakunlangach, o‘quvchilar o‘z yozgan bayonlarini o‘zlari tekshiradilar, tuzatadilar va daftarda rasmiylashtirib, o‘qituvchiga topshiradilar.

Bayon matni muhokama qilinayotganda, o‘quvchilarning yozganlari bilan asl matn taqqoslanadi. Bu jarayon orqali bolalar matn mazmuni yoki tili bo‘yicha yo‘l qo‘ygan xatolarini ko‘rishadi, tahlil qilishadi va kelgusi ishlar uchun xulosa chiqaradilar. Bunday yondashuv, shubhasiz, ularning til sezgirligini oshiradi, badiiy fikrlash salohiyatini yuksaltiradi va yozma nutqni boyitadi. Bu kabi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tilga mehrini oshiradi, ularni so‘z sehriga oshno etadi.

Tanlab hikoya qilish — bu o‘qilgan matndan tor mavzuga oid, kichik bir qismni tanlab, uni qayta bayon etish san‘atidir. Masalan, matndan faqatgina qahramonlarning tashqi ko‘rinishini tasvirlovchi lavhani, ikki qahramonning uchrashuvi manzarasini yoki atrof-muhit, tabiat tasvirlarini ajratib olib, aynan shularni qayta hikoya qilish mumkin.

Tanlab qayta hikoyalashning bir nechta turi mavjud. Ulardan biri — o‘qilgan matnning bir qismini yoki voqeani unga chizilgan rasm asosida so‘zlab berishdir. Yana bir turi — o‘qituvchining topshirig‘i yoki berilgan savolga binoan alohida

lavhani bayon qilishdir. Tanlab hikoya qilish uchun o'quvchi matnni boshidan oxirigacha diqqat bilan o'qib chiqishi yoki yoddan tushirishga harakat qilishi lozim. Shu maqsadda o'quvchilarga matnni ichidan o'qish yoki ovoz bilan tanlab o'qish topshiriladi. Ba'zan bunday tanlab qayta hikoyalash yozma bayon sifatida ham amalga oshiriladi.

Matn mazmunini qisqartirib qayta hikoyalash va bayon yozish esa murakkabroq mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Shuning uchun u to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va bayonga nisbatan ko'proq e'tibor va tayyorgarlikni talab etadi. Bu jarayonda matndan ikkinchi darajali, kamroq muhim joylar chiqarib tashlanadi, faqat asosiy va muhim ma'lumotlar tanlab olinadi va shu asosda hikoya qilinadi. Shu bois, o'quvchi matnning asosiy mazmunini aniqlash, uni bog'lanishli, izchil tarzda qayta bayon etish, hamda o'z so'zlari bilan yetkazish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Qisqartirib qayta hikoyalashga o'rgatishda, hikoya tarzidagi matnlar tanlanadi, chunki ular mazmun jihatidan sodda va qisqartirish uchun qulaydir. Ushbu ko'nikma 1-sinfdan boshlab asta-sekin shakllantiriladi. Matnni tahlil qilish vaqtida o'quvchilardan uning kichik qismini bir gap bilan ifodalash so'raladi. Keyinchalik ikki qismni, nihoyat, butun matnni qisqartirish mashqlari amalga oshiriladi.

O'quvchilar to'liq qayta hikoya qilishni o'rganganidan so'ng, matnni qisqartirib qayta hikoyalashga o'tish tavsiya etiladi. Bu jarayon matn rejasini tuzish bilan chambarchas bog'liqdir. Matnning asosiy mazmunini qisqa va aniq ifodalash esa uning tahlil va sintez qilinishidan dalolat beradi. Ba'zan o'quvchilar asosiy g'oyani bir jumla bilan bayon etib o'rgatilgach, keyin rejani tuzish, qisqartirib qayta hikoyalash va nihoyat matnni to'liq qayta hikoya qilish bosqichlariga o'tish mumkin.

Qayta hikoyalash — bog'lanishli nutqni shakllantirish uchun zarur bosqichdir. Boshlang'ich sinflar ona tili dasturida matn mazmunini qisqartirib bayon qilish 3-sinfda o'rgatilishi ko'zda tutilgan. Tayyorlov bosqichi sifatida 2-sinfda matn qismlariga sarlavha topish va jamoaviy ravishda matn rejasi tuzish ishlari amalga oshiriladi.

Qisqartirib bayon yozish uchun o'qituvchi yoki o'quvchilar matnni bir necha marta o'qib chiqadi, so'ng mazmun yuzasidan suhbat o'tkaziladi, yozilishi lozim bo'lgan asosiy fikr va tushirib qoldiriladigan joylar ajratib olinadi. Og'zaki qisqa qayta hikoyalashdan boshlanib, asta-sekin matnni qisqartirib bayon qilishga o'tiladi. Shu bilan birga, og'zaki tayyorgarlik mashqlari ham sekin-asta kamaytiriladi.

Metodikada ijodiy qayta hikoyalashning bir nechta turlari ajratiladi. Boshlang'ich sinflarda ayniqsa quyidagi ijodiy qayta hikoyalash usullaridan keng foydalaniladi:

Shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash va bayon qilish. Boshlang'ich sinflarda ko'proq I shaxs tilida berilgan hikoyani III shaxs tilida qayta hikoya qilishga e'tibor qaratiladi. Bu ijodiy qayta hikoyalash turi o'quvchilarga hikoyadagi gaplarni o'zgartirish va yangicha tuzishni o'rgatadi. Masalan, I shaxs tilidan yozilgan matnni III shaxs tilida qayta bayon qilish uchun o'qituvchi rahbarligida gap tarkibi o'zgartiriladi va unga mos ravishda yangi gaplar tuziladi. Hikoyachi shaxsning nomi yoki "u", "ular" kabi so'zlardan foydalaniladi. Shaxsini o'zgartirib qayta hikoyalash va bayon yozish o'qish darslarida olib borilgan og'zaki tayyorgarlik ishlarining davomi sifatida amalga oshiriladi.

Hikoyada ishtirok etuvchi boshqa personaj tilidan qayta hikoya qilish. Bu usulda o'quvchilar voqeani voqeaga guvoh bo'lgan yoki hikoyada qatnashgan boshqa qahramonlar nigohidan qayta so'zlab beradi. Bu esa ular ijodiy fikrlash va tasavvur doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Matnni ijodiy to'ldirib qayta hikoya qilish. O'quvchilar hikoya mazmunini, sharoitlarini puxta tushunganidan so'ng, o'z fikrlari, qo'shimchalari bilan matnni boyitib, ijodiy yondashuv bilan qayta hikoyalashadi. Ushbu usul ko'pincha og'zaki shaklda amalga oshiriladi va o'quvchilarning nutq qobiliyatini, tasviriy va badiiy ifoda kuchini rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Bog'lanishli nutq nima va u qanday shakllarda ifodalanadi?
2. Og'zaki qayta hikoya qilishning asosiy usullari qaysilar? Misollar keltiring.

3. Yozma bayon bilan og‘zaki qayta hikoya qilishning farqli va o‘xshash jihatlarini taqqoslang.
4. O‘quvchilarda og‘zaki qayta hikoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish uchun qanday mashqlar berish mumkin?
5. Bayon turlarini sanab bering va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang.
6. Yozma bayon jarayonida o‘quvchilarda qanday ko‘nikmalar rivojlanadi?
7. Bog‘lanishli nutqni rivojlantirishda adabiy matnlar qanday ahamiyatga ega?

Testlar.

1. Bog‘lanishli nutqning asosiy belgisi nima?
 - A) So‘zlarni yod olish
 - B) Fikrlarning izchil, mantiqiy bog‘langan holda ifodalanishi
 - C) Gaplarning grammatik to‘g‘riligi
 - D) Qisqa gaplardan foydalanish
2. Og‘zaki qayta hikoya qilish qanday faoliyatni talab qiladi?
 - A) Matnni yodlab olishni
 - B) Matn mazmunini tushunib, o‘z so‘zlari bilan qayta bayon etishni
 - C) Faqat yozma shaklda ifodalashni
 - D) So‘zlarni lug‘atdan izlashni
3. Yozma bayonning og‘zaki qayta hikoyadan farqi nimada?
 - A) Fikrni og‘zaki ifodalash talab etiladi
 - B) Nutq ko‘proq emotsional bo‘ladi
 - C) Fikr yozma shaklda, adabiy til me‘yorlariga qat‘iy rioya qilgan holda ifodalanadi
 - D) Matn qisqartirib aytiladi
4. Qayta hikoya qilishning asosiy turlari qaysilar?
 - A) To‘liq, qisqartirib, ijodiy qayta hikoya qilish
 - B) Faqat ijodiy qayta hikoya qilish
 - C) Faqat matnga yaqin qayta hikoya qilish
 - D) Faqat o‘qituvchi rahbarligida hikoya qilish
5. Bayon mashqlari o‘quvchilarda qanday ko‘nikmalarni shakllantiradi?

- A) Faqat yozuv malakasini
- B) Fikrni mustaqil va izchil ifodalash ko‘nikmasini
- C) Faqat orfoepik talaffuzni
- D) Yodlash ko‘nikmasini

6. Og‘zaki qayta hikoya qilishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘quvchi avvalo nima qilishi kerak?

- A) Matnni yoddan bilishi
- B) Matn mazmunini to‘liq tushunib olishi
- C) Matnni qisqartirib yozib chiqishi
- D) Qiziqarli gaplar qo‘shishi

7. Yozma bayon mashqlarining asosiy vazifasi nima?

- A) Matnni yoddan bilishga o‘rgatish
- B) O‘quvchining savodxonligini, yozma nutqini, tafakkurini rivojlantirish
- C) Faqat yozuv chiroyini yaxshilash
- D) Matnni qisqartirishga o‘rgatish

X-BOB. NUTQIY XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI.

Tayanch so‘zlar: nutq, nutqiy xato, gap, lug‘aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy, og‘zaki nutq, yozma nutq, pedagogik mahorat.

10.1 O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to‘g‘rilash va oldini olish yo‘llari.

Nutqda uchraydigan xatolar – noto‘g‘ri ishlatilgan so‘zlar, noo‘rin tuzilgan gaplar va grammatik shakllarning noto‘g‘ri qo‘llanilishidir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash murakkab bo‘lishi mumkin. Chunki ona tili

darsliklarida berilgan nazariy bilimlar bu xatolarni to'liq bartaraf etish uchun yetarli emas. Shuning uchun bolalar nutqini rivojlantirishda muntazam va rejalashtirilgan ish olib borish zarur.

Buning uchun esa eng avvalo nutqiy xatolarni to'g'ri aniqlash, ularning turlarini bilish va kelib chiqish sabablarini o'rganish lozim. Bu esa xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash uchun zamin yaratadi.

Nutqiy xatolar odatda quyidagi uch turga bo'linadi:

Lug'aviy-uslubiy xatolar

Morfologik-uslubiy xatolar

Sintaktik-uslubiy xatolar

Boshlang'ich sinflarda asosan lug'aviy-uslubiy xatolar ko'proq uchraydi. Bunday xatolarga, masalan, bir so'zni qayta-qayta ishlatish kiradi. Bu holatning yuzaga kelish sababi shundaki, o'quvchi so'z boyligiga yetarli e'tibor bermaydi va shu bois faol lug'atidagi bir necha so'zlardan ortig'ini ishlatmaydi.

Shu sababli bolalarda adabiy nutqni shakllantirish uchun ular bilan muntazam mashg'ulotlar olib borish, so'z boyligini oshirish va to'g'ri nutq me'yorlariga amal qilish juda muhim hisoblanadi.

Agar o'qituvchi bir so'zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun o'quvchiga o'sha so'zning ma'nodoshlarini yoki mos olmoshlarni ishlatish kerakligini yaxshi tushuntirib bersa, kichik yoshdagi o'quvchi matnni diqqat bilan o'qib, bunday takrorlarni tezda aniqlab, tuzata oladi.

Ba'zan o'quvchi so'zning ma'nosini yoki uning nozik ma'no qirralarini tushunmagani sababli uni o'rinli qo'llay olmaydi. Bunday leksik xatolar odatda bolaning nutq rivoji yetarli emasligi, so'z boyligining kamligi bilan bog'liq bo'ladi.

Leksik xatolar turli xil bo'lganligi sababli ularni to'g'rilash usullari ham har xil bo'lishi mumkin. Biroq, bunday xatolarning oldini olishning umumiy va samarali yo'li mavjud: bu – o'quvchilar uchun yaxshi nutqiy muhit yaratish, o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnlarni til jihatidan tahlil qilish, matndagi so'zlarning ma'no qirralarini tushuntirishdan iboratdir.

Morfologik-uslubiy xatolar – soʻz shaklini, soʻz oʻzgaruvchi va yasovchi qoʻshimchalarni notoʻgʻri qoʻllash natijasida yuzaga keladigan xatolardir. Sintaktik-uslubiy xatolar esa soʻz birikmalari va gap qurilishiga oid xatolardan iborat boʻlib, ular ham juda xilma-xil boʻladi.

Oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqida uchraydigan xatolarni oʻz vaqtida toʻgʻrilab borish muhimdir. Oʻquvchi nafaqat xatosining toʻgʻri shaklini eslab qolsin, balki imkon qadar bu xatoni oʻzi aniqlab, mustaqil tuzatishga harakat qilsin. Agar u bunga qodir boʻlmasa, oʻqituvchi yordamga keladi.

Shuningdek, oʻqituvchi darsda bilimlari sustroq boʻlgan oʻquvchilar uchun alohida mashgʻulotlar tashkil qilishi, ulardagi boʻshliqlarni aniqlab, sabr bilan bartaraf etishga intilishi zarur.

Biroq, oʻqituvchi oʻquvchining xatolarini sinfdoshlar oldida tanqid qilish, uni uyaltirish orqali emas, balki ruhlantirish yoʻli bilan tuzatishga harakat qilishi kerak. Aks holda, bola oʻziga boʻlgan ishonchini yoʻqotishi, qoʻrquv hissi paydo boʻlishi, fikrini erkin bayon eta olmasligi mumkin. Bu esa uning savol berishdan ham choʻchishiga, ruhan tushkunlikka tushishiga olib keladi.

Shu bois, bejizga “Pedagog – kuchli psixolog boʻlishi kerak” deyilmaydi. Har bir oʻqituvchi oʻquvchisining ichki dunyosini his eta olishi, unga qanday muomala qilishni yaxshi bilishi lozim. Xatolarning sabablari aniqlanib, ular ustida jamoaviy ishlash samaradorlikni oshiradi.

Fikrni ifodalash usuliga koʻra nutq ogʻzaki va yozma turlarga boʻlinadi.

Ogʻzaki nutq – tovushli nutq boʻlib, real aloqa jarayonida, bevosita hayotiy sharoitda yuzaga keladi. Unda asosan eshitish sezgisi asosiy rol oʻynaydi. Koʻpincha dialog tarzida kechadi.

Yozma nutq esa grafik shaklda ifodalanadi. Unda koʻrish va harakat sezgilari muhim ahamiyatga ega. Yozma nutq odatda monolog tarzida boʻladi va undan aniq sharoitdan ajratilgan holda ham foydalanish mumkin.

Yozma nutq mantiqiy izchillikni, ortiqcha takrorlardan saqlanishni, grammatik shakllarni toʻliq va toʻgʻri qoʻllashni talab etadi. Shu sababli u ogʻzaki nutqqa nisbatan murakkab va mavhum hisoblanadi.

Shuning uchun o‘quvchilarga og‘zaki va yozma nutq turlarini birgalikda o‘rgatish zarur. Chunki nutqda fikr shakllanadi, ayni paytda fikr nutqni vujudga keltiradi.

Donishmandlar bejizga ta’kidlamaydilar:

“Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi. Til materiali bo‘lmasa, fikrni ifodalashning imkoni yo‘q.”

O‘quvchilar nutqini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun quyidagi uchta asosiy shartga rioya qilish zarur:

1. Nutqqa ehtiyoj (talab) yuzaga kelishi kerak

O‘quvchida o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma shaklda bayon qilishga ehtiyoj bo‘lmasa, u nutq faoliyatini rivojlantira olmaydi. Shu bois o‘qituvchi dars jarayonida shunday vaziyatlar yaratishi kerakki, bu vaziyatlar o‘quvchini fikrlashga va fikrini ifodalashga undasin. Bunday ehtiyoj – nutq o‘stirishning metodik talabidir.

2. Nutqning boy va mazmunli materiali bo‘lishi kerak

Har qanday nutq mazmunli bo‘lishi uchun uning asosida boy, qiziqarli va ahamiyatli ma’lumot bo‘lishi zarur. O‘quvchining nutqi qanchalik mazmunli material asosida shakllansa, shunchalik boy va ifodali bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi mashqlarda ishlatiladigan matn va mavzularning mazmuniga alohida e’tibor qaratishi lozim.

3. Til vositalari bilan qurollantirish

Fikr faqatgina tushunarli so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar orqali ifoda etilsa, tinglovchi uni to‘g‘ri anglay oladi. Shuning uchun nutqni o‘stirishda o‘quvchilarni til vositalari bilan qurollantirish — ya’ni ularni to‘g‘ri va boy til elementlari bilan tanishtirish, so‘z boyligini kengaytirish va ifoda vositalarini o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarga sifatli til namunalarini taqdim etish, boy nutqiy muhit yaratish orqali ularda “tilni sezish” qobiliyati shakllanadi. Bu qobiliyat o‘quvchining nutqiy malakasini ongli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Agar o'qituvchi yuqorida qayd etilgan shart va usullarni amalda qo'llay olsa, o'quvchilar nafaqat yaxshi nutqiy malakaga ega bo'ladilar, balki kelajakda fikrini ravon va ishonchli bayon qila oladigan yetuk shaxslar bo'lib voyaga yetishadilar.

Nutqni insonning tashqi go'zalligi deb atash — aslo mubolag'a emas. Sababi, nutqi ravon, so'zlari chiroyli inson boshqalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Bunday inson bilan suhbatda bo'lgan kishi ruhiy oziqa oladi, ilhomlanadi. Shu boisdan ham qadimgi yunon madaniyatida mashhur faylasuflarning barchasi notiq bo'lishgan. Ular o'zining ta'sirli nutqlari orqali xalqni ortidan ergashtirgan, jamiyatda muhim o'ringa ega bo'lishgan.

Ammo bu darajaga inson tasodifan erishmaydi. Uning ortida katta mehnat, izchil o'qish, adadi yoddan chiqqan kitoblar va mashq-mashg'ulotlar yotadi. Aynan shuning uchun ham nutqi chiroyli insonlarning fikrlari teran, so'z boyligi keng va gaplarida takrorlar deyarli uchramaydi.

Bir emas, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berish murakkab jarayonlardan biridir. Bu ish o'qituvchidan katta sabr, matonat va professionallikni talab qiladi. Nutqiy xatolarni aniqlash va tuzatish ham ushbu murakkab jarayonning ajralmas qismidir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqidagi xatolarni aniqlash, ularni individual tarzda tuzatish ancha vaqt talab qiladi. Ayniqsa, bu xatolarni ona tili darslarida bartaraf etish biroz murakkabroq kechadi. Chunki dars uchun ajratilgan vaqt – atigi 45 daqiqa, bu esa har bir o'quvchiga individual yondashuv imkonini cheklaydi.

Shu bois o'qituvchi darsda samarali va tushunarli bo'lgan metodlar hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishi, nutqiy kamchiliklarni umumiy tahlil qilib, ularni tizimli ravishda bartaraf etishga intilishi lozim.

O'quvchilarning nutqida ko'p uchraydigan xatolardan biri – bir xil so'zning takroran qo'llanilishidir. Bu xatoning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Eng avvalo, o'quvchilarning so'z boyligi yetarlicha emasligi, sinonimlar va olmoshlardan foydalanishni bilmasliklari bunga sabab bo'ladi.

Birinchi yechim sifatida, o'qituvchi ona tili darslarida mavzu o'tilayotganda og'zaki va yozma matnlar tuzdirishi, agar vaqt cheklangan bo'lsa, kamida gaplar yasashga e'tibor qaratishi zarur. Bu jarayon davomida o'quvchining so'zlarni qo'llash mahorati oshiriladi.

Ikkinchi yechim esa o'quvchilarga ko'proq ertaklar va kichik hikoyalar o'qish imkonini berishdir. O'qituvchi ularga bu matnlarni amaliy tarzda tushuntirib berishi lozim. Bu usul o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda samarali yordam beradi, so'z boyligini oshiradi va fikrlarini aniqroq ifoda etishlariga xizmat qiladi.

Yana bir ko'p uchraydigan xato – so'zning noto'g'ri ma'noda qo'llanilishidir. Bunda o'quvchi so'zlarning ma'nosini yetarlicha anglamaganligi sababli, ularni o'z o'rnida ishlata olmaydi. Leksik xatolar turlicha bo'lgani uchun ularni tuzatish va tushuntirish usullari ham har xil bo'ladi. Ammo bunday xatolarning oldini olish uchun umumiy usul mavjud: bu esa yaxshi nutqiy muhit yaratish, o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnlarni til jihatdan tahlil qilish hamda matndagi so'zlarning ma'no qirralarini tushuntirishdir.

Shuningdek, dars jarayonida lug'at ustida ishlashga katta e'tibor qaratish ham ijobiy natija beradi. Bolalar nutqida yuzaga keladigan xatolarni oldini olish uchun o'qituvchi va nutqiy muhitdagi barcha kishilar so'zlarga diqqat bilan yondashishi juda muhimdir. Agar bola biron so'zning ma'nosi haqida savol bersa, unga to'liq va tushunarli javob berish keyinchalik xatoliklarning oldini oladi. Bugungi zamon talabiga ko'ra, bolalar har bir so'zni o'ylab, to'g'ri va aniq gapirishlari zarur. Chunki ular intellektual salohiyati yuqori, yangi ma'lumotlarni tez o'zlashtira oladigan shaxslar sifatida shakllanmoqda.

Morfologik-uslubiy xatolar esa asosan so'z shakllari, o'zgartiruvchi va yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan kelib chiqadi. Bu xatolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi har bir qo'shimchaning, xususan kelishik va so'z yasovchi qo'shimchalarning ma'nolarini aniq tushuntirib berishi, ularning qaysi vaziyatda qanday ma'no bildirishi haqida misollar keltirishi zarur. Shu bilan birga, ma'nodosh va shakldosh qo'shimchalarga ham e'tibor qaratish foydadan holi bo'lmaydi.

Sintaktik-uslubiy xatolar esa soʻz birikmalari va gap qurilishidagi kamchiliklardan iborat boʻlib, juda xilma-xildir. Ularni bartaraf etish uchun oʻqituvchi oʻquvchilarga koʻplab ertak va hikoyalarni qayta hikoyalash, badiiy asarlarni oʻqish, guruh boʻlib yozma mashqlar bajarish kabi usullarni qoʻllashi kerak.

Kompozitsion, mantiqiy va dalillarga oid notoʻgʻri bayon qilishlar nutqiy xatolar hisoblanmaydi. Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya yoki bayonlarda tuzilgan rejaga rioya qilinmasligi, voqea va kuzatishlarning izchillik bilan bayon etilmasligi kiradi. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun oʻqituvchi oʻquvchilar bilan mantiqiy mashqlar oʻtkazishi, “Hikoya” metodidan foydalanishi ayni muddao boʻladi.

Oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi muvaffaqiyat uch asosiy omilga bogʻliq:

Soʻzga eʼtibor bilan munosabatda boʻlish, oʻquvchilarning koʻp mutolaasi va atrofdagi kishilarning toʻgʻri, ifodali nutqi – yaʼni nutqiy muhit.

Bolalarning nutqiy tajribasini toʻgʻri tashkil etis

Oʻquvchilar tomonidan yoʻl qoʻyiladigan ogʻzaki va yozma nutqqa xos xatolarni oʻz vaqtida aniqlab, bartaraf etish juda muhimdir. Faqatgina oʻquvchi xatosini ogʻzaki eshitishi yetarli emas – u oʻz xatosini toʻgʻrilashi uchun oʻqituvchi va ota-onaning doimiy va amaliy yordami talab etiladi. Shu tarzda, birgalikda ishlash orqali kamchiliklarni bartaraf etish mumkin boʻladi. Ayrim xatolarni esa faqat dars jarayonida emas, balki toʻgarak mashgʻulotlarida ham tuzatish mumkin.

Nutqqa oid boʻlmagan xatolar quyidagilardir:

1. Kompozitsion xatolar
2. Mantiqiy xatolar
3. Dalillarni notoʻgʻri ifodalashga oid xatolar.

Kompozitsion xatolarga hikoya yoki insho yozish jarayonidagi insholarning rejaga mos tarzda yozilmaganligi misol boʻla oladi. Bunday xatolarga yoʻl qoʻyilishining asosiy sababi oʻquvchilarning hikoya yoki insho yozishga tayyorgarlik jarayonining puxta amalga oshirilmaganligi deyishimiz mumkin.

Chunki o‘quvchi avvaldan nimalar yozishi ketma-ketligi haqida o‘ylab, reja bilan ish tutmagan va natijada xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘ladi.

Mantiqiy xatolar kerakli so‘zlarni, ba‘zan esa muhim epizodlarni, faktlarni, tasvirlangan narsaning belgilarini o‘tkazib yuborish, mantiqiy ketma-ketlik va asoslilikni buzish kabi xatolar kiradi.

Xatolarning asosiy turlarini bilish, ularning asosiy sabablarini qanday aniqlash, o‘qituvchi ularni tuzatish va ogohlantirish metodologiyasini ishlab chiqishi mumkin. U quyidagi elementlardan iborat:

- o‘quvchilar daftarlaridagi nutq xatolarini tuzatish;

- insho va bayonlarni tahlil qilgandan so‘ng, 20-30 daqiqalik darslardagi xatolar ustida ishlash ishi tashkil etilishi (bunday ishning maqsadi maktab o‘quvchilarini ma‘lum bir turdagi xatolarni mustaqil ravishda to‘g‘rilashga tayyorlashdir);

- shaxsiy xatolar bo‘yicha individual va guruh bo‘lib ishlashlashni tashkil qilish;

- uslubiy mashqlar tizimi, o‘qish va ona tili darslarida matnlarni lingvistik tahlil qilish;

- o‘quvchilarni biror hikoya, insho yozishdan oldin ularga uchrashi mumkin bo‘lgan iboralar va gap qurilishi yoki murakkab birikmalar va ularning lingvistik xususiyati bilan tanishtirish;

- o‘quvchilarni o‘z xatolarini mustaqil to‘g‘rilashga o‘rgatish bo‘yicha ishlar olib borish.

Hozir amaldagi darsliklarda o‘quvchilarning nutqiy xatolar va ular bilan ishlashni o‘rganishlari uchun ham bir necha mashq turlari berilgan. Masalan 1- sinf “Ona tili” darsligining bo‘g‘inga oid bo‘limida quyidagi mashq keltirilgan:

 **3-mashq.** Soʻzlarni oʻqing. Ular boʻgʻinga toʻgʻri koʻchirilganini tekshiring.

... e- **de-** ... oʻ- ... kash- ... pa- ... a-
shik **raza** **qish** **fiyot** **lov** **kam**

 **Oʻylab koʻring:** soʻzlarni boʻgʻinga ajratish va boʻgʻin koʻchirish oʻrtasida qanday farq bor?

Oʻquvchilar bu mashqni bajarishi orqali boʻgʻinga boʻlish va boʻgʻin koʻchirish boʻyicha xatoga yoʻl qoʻyishlari mumkin boʻlgan soʻzlarni bilib olishlari mumkin.

10.2 Nutqiy xatolarni toʻgʻrilash va oldini olish yoʻllari.

Oʻquvchilarga xatolarni toʻgʻrilash bilan bir qatorda ularni oldini olishga ham alohida eʼtibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Buning uchun esa oʻquvchining nutqiy savodxonligini oshirish zarur. Nutqiy savodxonlikni oshirishning eng maʼqul yoʻllaridan biri bu – oʻquvchilarning koʻproq kitob mutolaa qilishidir. Oʻquvchi qanchalik koʻp kitob mutolaa qilsa, shunchalik koʻp soʻzlar bilan tanishadi, turli frazeologik va sintaktik birikmalarga duch keladi. Kitob oʻqish

Oʻquvchilar soʻz boyligini orttirishning eng samarali yoʻllaridan biridir. Kitob oʻqish bilan birgalikda undagi soʻzlarni tushunish va oʻz nutqida mustaqil qoʻllay olish jarayoni ham oʻquvchilarning xatoga yoʻl qoʻyishini oldini oladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nutqiy xatolar haqida umumiy tushuncha bering.
2. Nutqiy xatolarning turlarini sanab bering.
3. Lugʻaviy-uslubiy xatolarning kelib chiqish sabablarini ayting.
4. Nutqiy boʻlmagan xatolar qaysilar?
5. Nutqiy xatolarni toʻgʻrilash uchun qanday ishlar amalga oshiriladi?

Glossariy.

Ona tili o'qitish metodikasi fani– Ona tili o'qitish metodikasi fani ta'lim berish sharoitida ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, fonetika, rammatika bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Savod o'rgatish metodikasi– Savod o'rgatish metodikasi elementar o'qish va yozishga o'rgatadi.

O'qish fanining vazifasi– O'qish fanining vazifasi birinchi navbatda bolalarni tez (me'yorida), to'g'ri, ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Grammatika va imlo metodikasi– Grammatika va imlo metodikasi elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalarni, boshlang'ich imlo malakasini shakllantirishni o'z ichiga oladi

Empirik metod– Empirik metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash

Ona tili o'qitish metodikas tamoyillari – Ona tili o'qitish metodikasi tamoyillari o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Metodika tamoyillari – Metodika tamoyillari o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Mavzu doirasi uslub – Ma'lum bir belgilangan tema

Umumiy tahlil– Badiiy asarlarning g'oyasi va mazmuni talqin etiladi.

Uslub – Ma'lum bir yo'nalish

Tovush – Tovush (tilshunoslikda), nutk, tovushi — kishining murakkab artikulyatsion faoliyat natijasi g'isoblangan, muayyan akustik (eshitilish) va perseptiv (idrok etilish) xususiyatlari bilan ajralib turadigan eng kichik nutq birligi.

Nutq tilning – ma'lum paytda va ma'lum o'rinda namoyon bo'lishidir

Yozuv– insonga oz fikrini uzoq masofaga va uzoq davrga yetkazishda yordam beradigan vosita.

Talaffuz –me'yorlari adabiy til uchun joriy qilingan me'yorlar

Maxsus belgilar – alifboda berilmagan maxsus belgilar

Orfografiya – so'zlar va ularning shakllarini yozish haqidagi qoidalar tizimidir.

Diksiya –Diksiya (lot. dictio — talaffuz) — so'zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, so'zlash usuli. Nutq madaniyatining asosini tashkil etadi. Aktyorlik san'atida, shuningdek, xonanda, diktora, notiq, o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Til– ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo'lgan hodisa

Fonetika– Fonetika (yun. phonetikos — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovozli) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limi.

Grafika – Grafika (yun. yorgarhke, yorgarpo — yozaman, chizaman) tilshunoslikning harflar va tovushlar o'rtasidagi o'zaro munosabagni o'rganuvchi bo'limi.

Unli tovushlar – Unli tovushlar - og'iz va bug'iz boshlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladigan, tarkibi ovozdan iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlar.

Undosh tovushlar –og'iz va bo'g'iz boshlig'ida turli to'siqlarga uchrab paydo bo'ladigan, tarkibi shovqindan yoki ovoz va shovqindan iborat tovushlar.

Harf –tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi

Bo'g'in– tovushlar yig'indisi bo'g'in deyiladi:

Tovush – O'pkadan chiqayotgan havo to'lqiniga bir zarb berish bilan aytiladigan yoki

Nutq tovushlari – Tovush (tilshunoslikda), nutq, tovushi — kishining murakkab artikulyatsion faoliyat natijasi hisoblangan, muayyan akustik (eshitilish) va persektiv (idrok etilish) xususiyatlari bilan ajralib turadigan eng kichik nutq birligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2023.- 31b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son // <https://lex.uz/docs/5013007>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi (2017 yil 13 sentyabr) Qarori. // lex.uz/docs/3338600
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 146-b.
5. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2023. – 416 b
6. Adizova N.B. Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro, 2024. “Durdona”, 2021.-130 b
7. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. 2-sinf. III qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. -T.: Novda Edutainment, 2023.
8. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinf uchun darslik. – Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023. – 80 b
9. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. – Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023. – 80 b.
10. Babanskiy Yu. K.. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. - T: “O‘qituvchi”, 1990.
11. Bakiyeva H., Ahmedova N., Azizova N., Nosirova D., Teshaboyeva B., Ismoilova U., Egamberdiyeva B. “Savodga o‘rgatish darslari”. -T.: “Extremum-press”, 2014. -119b

12. Boynazarova D.D., Toirova. M.E., Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 4-sinf uchun darslik. II qism. – Toshkent, “Novda Edutainment”. 2023. – 88 b.
13. Boynazarova D.D., Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 4-sinf uchun darslik. III qism. – Toshkent, Novda Edutainment. 2023. – 96 b.
14. Fuzailov S., Xudoyberganova M. Ona tili (3-sinf uchlln darslik). - T.: “Oʻqiruvchi”, 2008.
15. Hamroyev A.R., Poʻlatova Yu. A. Ona tili oʻqitish metodikasi. -T: Oʻqituvchi. 2021. 385 b
16. Ikromova R., Gʻulomova X., Yoʻlidosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik). - T.: “Oʻqituvchi”, 2007.
17. Kuranov S.D. Ona tili.2-sinf. –Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023.
18. Matchonov S., Shojalilov A., Gʻulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. Oʻqish kitobi (4-sinf uchun darslik). - T.: “Yangiyul poligraph service”. 2007
19. Matchonov S. va boshq. Boshlangʻich sinf oʻqish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - T: "Yangi yo l poligraph service". 2007
20. Matchonov S., Bakiyeva X., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., G. Xolboyeva. “Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi” darslik. T.: "Ishonchli hamkor", 2021. 370 b.
21. Mavlyanova R., Raxmankulova N. Boshlangʻich taʼlim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent “Voris nashriyot”, 2013-yil.
22. Mavlyanova R., Raxmankulova N. "Boshlangʻich taʼlim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013-yil.
23. Mavlonova K. va boshq. Ona tili va oʻqish savodxonligi. 3-sinf oʻqituvchilari uchun metodik qoʻllanma. – Toshkent, Respublika taʼlim markazi, 2022. – 160 b
24. Olimov Sh., O.Ortikov. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. -T.: “Fan va taʼlim” nashriyoti. 2022. 408-b
25. Ortikov O. Umumiy pedagogika va psixologiya. – Buxoro. Durdona nashriyoti. 2022. 367-b

26. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
27. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009. 3. Matchonov S va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. darslik. -T.: "Ishonchli hamkor", 2021.
28. Safarova R., G'ulomov M., Inoyatova m. Savod o'rgatish daslari. 1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. –Toshkent.: "Tafakkur", 2012.-141 b.
29. Toirova M.E. O'qish savodxonligi. 4-sinf. 1-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. -T.: Novda Edutainment, 2023.
30. Toirova M.E. O'qish savodxonligi. 3-sinf. 1-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. -T.: Novda Edutainment, 2023.
31. Tolipov O', M. Usmonbekova. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. - T: "Fan", 2006
32. Yo'ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. - T.: O'zbekiston, 2003.-298b

MUNDARIJA.

KIRISH.....	3
I BOB. BOSHLANG‘ICH SINFDA EPIK ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI.....	5
1.1 Har xil janrdagi asarlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari.	5
1.2 Ertakni o‘qish metodikasi.	13
1.3 Hikoya janridagi asarni o‘qitish metodikasi.	17
1.4 Ilmiy-ommabop asarlarni o‘qitish metodikasi.	20
II-BOB. BOSHLANG‘ICH SINFDA LIROEPIK ASARLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI.....	24
2.1 Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi.....	24
2.1 Masal janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi.	28
2.4 Epik she’rlar bilan tanishtirish usullari.....	33
III-BOB. BOSHLANG‘ICH SINFDA XALQ OG‘ZAKI IJODI USTIDA ISHLASH METODIKASI.....	40
3.1 Doston, topishmoq, tez aytish, maqol, xalq qo‘shiqlari janridagi asarlarni o‘qitish metodikasi.	41
3.2 Doston o‘qitish metodikasi.	42
3.3 Tez aytishlarni o‘rganish metodikasi. Tez aytishlarning fonetik ahamiyati.	46
3.4 O‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda xalq o‘g‘zaki ijodining roli.....	50
4.1 Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishning maqsadi va vazifalari.....	55
4.2 To‘g‘ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma.....	62
5.1 Boshlang‘ich maktabda kitobxon o‘quvchilarni shakllantirish bosqichlari.	67
6.1 Nutq va uni o‘stirish tushunchasi.....	79
6.2 Nutq o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda muhim vosita.....	88
7-BOB. O‘QUVCHILAR NUTQIGA QO‘YILGAN TALABLAR.....	93
7.1 Nutq o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda muhim vosita.....	93
7.2 O‘quvchilar nutqini o‘stirishning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.....	98
8-BOB. BOG‘LANISHLI NUTQ VA UNI O‘STIRISH VAZIFALARI.	105
8.1. Bog‘lanishli nutq haqida umumiy tushuncha.....	105
8.2 Bog‘lanishli nutqdan mashq turlari.....	109
8.3 Bog‘lanishli nutqqa oid aniq ko‘nikmalar.....	113

9-BOB. BOG‘LANISHLI NUTQ. OG‘ZAKI QAYTA HIKOYA QILISH VA YOZMA BAYON	117
9.1 Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo‘yilgan talablar. ..	117
9.2 Qayta hikoyalash va bayonning turlari.	124
X-BOB. NUTQIY XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI.	131
10.1 O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to‘g‘rilash va oldini olish yo‘llari.	131
10.2 Nutqiy xatolarni to‘g‘rilash va oldini olish yo‘llari.	139
Glossariy.....	139
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	142